



**“YASHIL BUXGALTERIYA HISOBI VA RAQAMLASHTIRISH
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING ENG YANGI
VEKTORLARI SIFATIDA”**

**mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to‘plami**

2024-yil 18-19-oktyabr

Toshkent – 2024

O‘O‘T: 657:6II.15.7

“Yashil buxgalteriya hisobi va raqamlashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning eng yangi vektorlari sifatida”: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. / Mualliflar jamoasi. –Toshkent. TDIU, 2024.- 225 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sohasini ilmiy asosda o‘rganish va tadqiq qilish, malakali kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish va ushbu sohaga ilg‘or xalqaro tajribalarni tatbiq qilish maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2024-yil 18-19-oktyabrda “Yashil buxgalteriya hisobi va raqamlashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning eng yangi vektorlari sifatida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Ushbu to‘plamda aynan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirishning xalqaro tajribasini o‘rganish hamda ushbu soha faoliyatini raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha sohada olib borilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar aniq raqamlar va dalillar asosida tahlil qilinib, ushbu soha oldida turgan mavjud muammolarning yechimi mamlakatimizdagi yetakchi professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar, tadqiqotchi olimlar, iqtidorli yosh magistrant va bakalavriatlar tomonidan chuqur o‘rganilib, taklif va tavsiyalar berilgan materiallari jamlangan.

To‘plam oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari, professor-o‘qituvchilari, talabalari, shuningdek, ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining rahbarlari hamda mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Maqola mazmuni hamda unda keltirilgan faktlar va raqamlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardir.

ABDUSALOMOVA NODIRA BAXODIROVNA
TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI TIZIMIDA BALANSLASHGAN KO’RSATKICHLAR

Annotatsiya: Maqola qora metallurgiya korxonalarida strategic boshqaruv hisobini tashkil etish, sotuvlarni rejalashtirish, byudjetlashtirish hamda balanslangan ko'rsatkichlar tizimi metodologiyasini joriy etish shart-sharoitlari, eng muhim ko'rsatkichlarining mazmun mohiyati va muammolarini aniqlash va ular bo'yicha yechim berishga bag'ishlangan. Ilmiy maqolada qora metallurgiya sanoati korxonalarida zamonaviy boshqaruv usuli sifatida strategic boshqaruv hisobini yuritish va joriy etish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit soz'lar: strategic boshqaruv hisobi, moliya, hodimlarni boshqarish, sotuvlarni boshqarish.

Kirish. Boshqaruv hisobining asosiy vazifasi korxonaning moliyaviy-xo'jalik rejalashtirish va faoliyatini samaradorligini prognozlashtirish orqali kelgusi strategiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Boshqaruv hisobi tizimida operativ va istiqbolli qarorlar qabul qilish uchun, faoliyat natijalarini strategic diaqnoz qilish muhim hisoblanadi.

Strategic diaqnoz qilish buxgalteriya hisobi va tashqi va ichki muhitdan kirib keluvchi boshqa ma'lumotlar asosida korxonaning faoliyat samaradorligini baholash hisoblanadi. Bu tartibda ma'lumotlarni to'plash korxonaga boshqaruviga faoliyatni uzoq muddatli strategiyasini shakllantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni rivojlanish bilan strategic diaqnoz qilishning zamonaviy usullari ham rivojlana boshladi. Masalan, matritsa BCG – ya'ni strategic tahlil va nazorat vositasi, Mak – Kinzi matritsasi – ya'ni alohida strategic biznes bo'linmalar faoliyatini alohida baholash, SWOT tahlil va strategic boshqaruv hisobi [1]. Biz taqdidqot davomida balanslangan ko'rsatkichlar ya'ni moliya, biznes jarayonlar, mizojlar, hodimlar malakasi bo'yicha izlanish olib bordik. Ushbu tizimning asosiy jihatlari quyidagicha:

- turli yondashuvalar asosida strategiyasi shakllantirish;
- strategic maqsadni belgilash olish;
- faoliyat ko'rsatkichlari yordamida qo'yilgan maqsadga erishish darajasini belgilash.

Balanslangan ko'rsatkichlar tizimida kompaniya rivojlanishining samaradorligini boshqarish vositasi sifatida foydalanish g'oyasini R. Kaplan va D.Norton tomonidan taklif qilingan [2]. Ular o'zlarini ishlanmalarini faoliyat ko'rsatkichlarini baholash va muvozatni ta'minlaydigan balanslangan ko'rsatkichlar tizimi deb nomlashgan [3]. Bu konsepsiyaning asosini rahbariyatni ko'zlagan maqsadiga erishishini ta'minlash, faoliyat strategiyasini operatsion faoliyat va turli omillar ta'siri asosida baholash tashkil etadi. Balanslangan ko'rsatkichlar yo'nalishi korxonaga mizojlarini ehtiyojlarini qondirish hamda barcha hodimlar ishtirok etadigan biznes jarayonlarga qaratilgan. Bu esa ushbu tizimning

o'ziga xosligini belgilab beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonada faoliyatini boshqarishning klassik tizimi asosan moliyaviy ko'rsatkichlarga qaratilgan bo'ladi. Ko'rsatkichlarni balanslashgan tizimi esa boshqaruvni istiqbolda uzoq muddatli rivojlanish va asosli srtaregiyani belgilashga yo'naltiradi.

Metallurgiya sanoati korxonalarida bunday usulni joriy etishga ehtiyoj, nafaqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga balki boshqa qo'shimcha biznes jarayonlarni ham yuritishga qaratilgan ishlab chiqarish va bajarilgan ish sifatini boshqarish tamoyillariga bo'lgan zarurat bilan bog'liq. Taqdim etiladigan ko'rsatkichlar tizimi korxonaning qisqa muddatli maqsadlarini uning uzoq muddatli strategic missiyasiga muvofiqlashtirish imkonini berishi kerak. Kopmpaniyaning rivojlanish strategiyasi aniq prognoz qilish haqida gap ketganda moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zi kamlik qiladi. Ko'pgina tashkilotlar mavjud moliyaviy ko'rsatkichlarni to'ldirish uchun moliyaviy bo'lmagan mezonlarni tanlash kabi qiyin vazifaga duch kelishadi [4]. Shunga muvofiq moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birgalikda ular bilan mantiqiy aloqa asosida taqdim etiladigan nomoliyaviy ko'rsatkichlardan ham foylanish maqsadga muvofiq. Shuning uchun barcha ko'rsatkichlarni hisobga olgan balanslashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish kerak. Bizning mamlakatimizda ko'rsatkichlarning balanslashgan tizimi asosida strategic missiya va rejalarni ishlab chiqishda foydalaniladigan boshqaruv hisobining zamonaviy tahlil vositasi bo'lishiga qaramay, bu tizimda G'arb davlatlarida allaqachon ancha mashhurlikka erishgan. Amaliyotga nazar soladigan bo'lsak bu usul jadvallar tizimi sifatida joriy etilgan. Bu jadvallarda kompaniya faoliyatini rejalashtirish davri va belgilangan maqsad uchun tanlangan ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar aks etadi. Ko'rsatkichlarning balanslashgan tizimining ana'anaviy usuli o'zida 4 ta guruh ko'rsatkichlarni aks ettirishni nazarda tutadi. Ularga faoliyatning quyidagi muhim jihatlari kiradi:

1. Moliyaviy faoliyati;
2. Mijoz va iste'molchilar bilan o'rnatilgan oz'aro munosabat;
3. Ichki biznes jarayonlari faoliyati;
4. Hodimlarni malakasini oshirish va muntazam rivojlanish yo'nalishlarini izlash.

Yuqoridagi har biz ko'rsatkich asosida buxgalter va moliyaviy tahlilchi korxonaning oldiga qo'ygan maqsadiga yo'naltirgan alohida ko'rsatkichlar tizimini yaratadi, keyinchalik ulardan tarkibiy bo'linmalar va javobgarlik markazlari rahbarlari faoliyatini baholashda foydalaniladi. Har bir korxonada uchun balanslashgan ko'rsatkichlar uning tashkiliy tuzilmasi va faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga qarab alohida tizim sifatida ishlab chiqiladi [5]. Bunday tizim pul ko'rinishidagi ko'rsatkichlarni operatsion o'lchovlar bilan bog'lab, mizojlar ehtiyojlarini qondirish, biznes jarayonlarini, innovatsion faollik, moliyaviy holat hamda moliyaviy natijalarni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni shakllantiradi. Natijada korxonada oldida turgan to'rtta muhim savolga javob topish imkoni yuzaga keladi:

- faoliyatni mijozlar qanday baholaydilar;
- qaysi biznes-jarayonlari korxonaga alohida yuqori natijani taqdim etishi mumkin;

- bozordagi o'z o'rnini qanday qilib yanada mustahkamlash mumkin;
- ta'sischi va mulkdorlar faoliyatga qanday baho beradilar.

Bu tizim shuningdek qora metallurgiya sanoati korxonalari faoliyatida ham bemalol qo'llanilishi mumkin. Bunda sotuvlarni rejalashtirish va natijalarni baholash tizimi kompaniyani oldiga qo'ygan maqsadlarini belgilash, maqsadlarni bir-biri bilan bog'lash yuzasidan faraz va prognozlarni shakllantrishda asos hisoblanadi. Maqsadli o'rnatilgan aloqalar tekshiriladi, tadqiqot bosqichidan o'tkaziladi, so'ngra to'plangan tajriba va ilmiy asoslarga tayanib, ularga miqdoriy baho beriladi.

Qo'yilgan strategic maqsadga erishishda mehnat unumdorligini oshirish va hodimlarning ish bilan ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun hodimning daromadi uning faoliyatiga bog'liqligini inobatga olib, moddiy rag'batlantirish tizimini joriy etish kerak. Maqsadga erishishning yana bir muhim omili katta loyihalarni amalga oshirishda kichik loyihaning muvaffaqiyati hisoblanadi. Bu alohida ishlab chiqarish sexlarida, boshqaruv bo'linmalarida va javobgarlik markazlarida, yoki korxonaning filali, mustaqil bo'linmasida balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi ya'ni biznes jarayonlarini tatbiq etish orqali bo'ladi. Shu tartibda faoliyatni tizimlashtirish alohida bo'limlar kesimidagi ijobiy natija yoki kamchiliklarni aniqlash va markaziy boshqaruv, boshqa javobgarlik markazlarida ijobiy natijalarni ham tatbiq etishi mumkin bo'ladi. Rejalashtirish natijasi korxonaga asosli narx belgilagan holda iste'molchini sifatli tovar va xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan rivojlanish strategiyasini qayta ishlashga muhit yaratdi. Taklifimizga muvofiq, rivojlanish strategiyasini yaratishda sabab-oqibat tamoyilga tayanib moliyaviy, hodimlar unumdorligi masalasi, resurslar bilan ta'minlanganlik va jarayonni tashkil etilganiligi uni amalga oshirish vositasi bo'lib hisoblanadi. Bu esa hodimlar malakasi doimiy oshirib borishga yo'naltirilgan investitsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali bo'ladi. Natijada korxonaning moliyaviy holati yaxshilanadi. Starategik hisob orqali boshqarish tizimi mikro darajadagi ko'rsatkichlarni ham inobatga olib barchaga tushunarli tarzda tashkil etilishi, amalga oshirilishi esa har qanday boshqaruv darajasida va vaqtida nazorat qilishini kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Wallace R.B. Environments that facilitate collusive noninvestment: theory and application to Japan's period of rapid development // Journal of the Japanese and international economies. 2003. No.17. Pp. 213-225.

2. Kaplan R.S. Balanced scorecard. From strategy to action [Text] / Robert S. Kaplan, David P. Norton. – M.: Olymp-Business, 2003. – 304 p.

3. Horvat P. Balanced scorecard as a means of enterprise management [wording] / Peter Horvat // Problems of theory and practice of management. – 2000. – №4.

4. Вахрушина, М. А., Бухгалтерский управленческий учет + Приложение: Тесты : учебник / М. А. Вахрушина. — Москва : КноРус, 2019. — 392 с. — ISBN 978-5-406-06205-0. — URL: <https://book.ru/book/931509> (дата обращения: 31.10.2023). — Текст : электронный.

5. Mintzberg H., Ahlstran B. Strategy Safari: A guided tour through the wilds of strategic management. New York: Simon & Schuster, 2018. 456 pp.

**Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich
Ashirova Gulchehra Abdug‘ani qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR TAHLILINI TASHKIL QILISH MASALALARI

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlar va ulardan samarali foydalanish tahlilini tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar atroflicha tadqiq etilgan. Tadqiq bo‘yicha erishilgan natijalarga tayanilgan holda uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish tahlilini takomillashtirish bo‘yicha mualliflarning taklif va tavsiyalari shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy vosita, eskirish, amortizatsiya, tahlil, samaradorlik, koeffitsent, rentabellik, strategiya.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti ishlab chiqarish imkoniyatlarini isloh qilishda muammolarga duch kelmoqda. Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar va mamlakatni yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari strategik islohotlarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘lmoqda. Globallashtirilgan dunyoda kompaniyalar xalqaro aktivlarni boshqarish, iste‘molchilar, texnologiya, xarajatlar va strategik raqobatni tobora ko‘proq o‘rganmoqda. Maqsadlari va rejalari doirasida ular turli mamlakatlarda ishlab chiqarish va sotish bo‘limlarini joylashtiradilar va global muhitda o‘z sharoitlarini yanada qulayroq qilishga intiladilar. Jahon iqtisodiy iqlimi xilma-xilligicha qolmoqda, chunki texnologiyalardan foydalanishda mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut kengayishda davom etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar 4-5 avlod texnologiyalaridan, rivojlanayotgan mamlakatlar 2-3 avlod texnologiyalaridan, o‘tish davridagi iqtisodiga ega davlatlar sarmoyadan foyda ko‘radigan erta sanoatlashtirish texnologiyalaridan foydalanadilar.

Rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyalarga ega ekan, ular sarmoya va bilim talab qiladigan tovar va xizmatlarni past va o‘rta rivojlangan mamlakatlarga eksport qilish orqali katta daromad olishga intiladi. O‘z navbatida, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish va shu asosda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini amalga oshirishni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning milliy konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi e‘tirof etilgandi.

Shu boisdan, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini amalga oshirishda ushbu dasturga muvofiq, ishlab chiqilgan milliy konsepsiyada e‘tirof etilgan masalalardan kelib chiqib, yo‘l xaritalarini tasdiqlamoqdalar. Bunda albatta, uzoq muddatli aktivlarini modernizatsiya qilish, zamonaviylashtirish va ulardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini belgilab olishdi. Bu o‘z navbatida, uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanishni iqtisodiy tahlil orqali amalga oshirishni taqazo etadi.

Metodologiya. Mavzuni o'rganishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, tizimli tahlil, guruhlash, ekspert baholash, mantiqiy tahlil kabi usullaridan foydalanilgan

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va shu asosda "Raqamli O'zbekiston 2030" dasturini amalga oshirishni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning milliy konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni optimallashtirish va uzoq muddatli aktivlarni zamonaviy tipdagilari bilan yangilash, modernizatsiya qilish, quvvatlardan oqilona foydalanishni, aktivlar aylanmasi aylanuvchanligini tezlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarini va shu asosda ishlab chiqarish munosabatlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirishni taqozo etmoqda. Ishlab chiqarishning pasayishi va yuqori inflyatsiya darajasi sharoitida investitsiya faoliyatini tartibga solish tamoyillari dolzarb muammolarni hal qilishning ustuvor yo'nalishlari bilan belgilanadi. Yuqori samarali iqtisodiyotni ta'minlash uchun fan va texnikani har tomonlama rivojlantirish hamda ularning natijalarini iqtisodiyotga joriy etishni ta'minlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni qo'llash zaruriyati belgilaydi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish omillariga, birinchi navbatda, uzoq muddatli aktivlarga doimiy talab tufayli hech bir mamlakat milliy iqtisodiyotining hajmi va rivojlanish darajasidan qat'i nazar, o'zini to'liq yoki yetarli darajada ta'minlay olmaydi. Hudud iqtisodiyotiga investitsiyalarni uzoq muddatli aktivlar ko'rinishida jalb etish barqaror iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim vazifa hisoblanadi. O'z navbatida, investitsiya siyosatini shakllantirish uchun investor uchun kafolatlar darajasi bilan belgilanadigan samarali mintaqaviy investitsiya strategiyasini ishlab chiqishni taqazo etadi. Shuningdek, potensial investorlarni mintaqadagi investitsiya muhitining holati, ya'ni investitsion salohiyat darajasi va investitsiya xatarlari xavotirga soladi.

Investorlar mintaqaning investitsiya reytingini, shuningdek, uzoq muddatli aktivlar qiymatini baholashlari lozim. Bunda aktivlar, kapital va investitsiyalarning tez qaytarilishi tufayli investorlar uchun o'z mablag'larini ishlab chiqarishga yo'naltirish foydalidir. Bundan tashqari, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari katta kapital qo'yilmalarni talab qilmaydi. Neft va gaz sanoati va qurilishda uskunalarni o'rnatish bir necha oy davom etadi. Shuning uchun bunday korxonalar faoliyatning birinchi yilida daromad keltirishi mumkin. Investorlar vaqtinchalik ortiqcha mablag'larni iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya qilishlari mumkin.

Bugungi kunda investitsiyalarning tiklanish manbai ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'lib, ular uzoq muddatli aktivlarini yangilash uchun o'z resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hisobiga yuqori daromadlilikka erishishga harakat qilishadi. Buning uchun korxonalar uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish va ularni maqsadli boshqarish strategiyasini shakllantirishlari maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddatli aktivlardan foydalanish va ularni zamonaviy tipdagilariga yangilash bo'yicha boshqaruv strategiyasi xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy hamda hisob siyosatining majburiy qismidir.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun raqamli iqtisodiyot joriy etilmoqda. Yangilash strategiyasining elementlaridan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli aktivlaridan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish muhim masala hisoblanadi. Bunda qabul qilingan uzoq muddatli aktivlar, ularni qabul qilish jarayonini baholashda har doim ham o‘z vaqtida ishga tushirilmaganligi sababli, ularning kelib tushish koeffitsiyenti va foydalanishga topshirish koeffitsiyentini farqlash hamda yangi ko‘rsatkich — immobilizatsiya koeffitsiyentini joriy etish o‘rinli bo‘ladi.

Uzoq muddatli aktivlar, jumladan, asosiy vositalardan samarali foydalanish koeffitsiyenti birlik o‘rtasidagi farq va foydalanishga topshirilgan asosiy vositalar qiymatining olingan asosiy vositalar qiymatiga nisbati sifatida hisoblanadi. Immobilizatsiya koeffitsiyenti olingan asosiy vositalarning ishga tushirilmagan qismini aks ettiradi. Shuning uchun korxonada qo‘yilgan kapitaldan daromad olmaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli aktivlaridan foydalanish va yangilash strategiyasini shakllantirishning asosi ularning faoliyat samaradorligini baholash hisoblanadi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi obyektiv ko‘rsatkich ularning rentabelligi hisoblanadi.

Aktivlar rentabelligi — bu asosiy vositalar tannarxi birligiga olinadigan daromad miqdorini tavsiflovchi murakkab ko‘rsatkich. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy fondlarining rentabelligiga quyidagi ko‘rsatkichlar ta‘sir qiladi: asosiy vositalarning rentabelligi, ya‘ni qo‘yilgan kapitalning rentabellik darajasi va amortizatsiya me‘yori.

Asosiy vositalar rentabelligining ko‘rsatkichi bu koeffitsiyentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikdir: sotishdan tushgan tushum, asosiy vositalarning faol qismining kapital unumdorligi, mehnatning faol qismidan foydalanish darajasi, asosiy vositalarning faol qismining ularning umumiy hajmidagi ulushi, asosiy vositalarning davrdagi o‘rtacha eskirish darajasi. Ushbu ko‘rsatkichni quyidagi formuladan foydalanib, aniqlash maqsadga muvofiqdir:

$$AVRK = SD * Kun * Mf.d * AVf.q + Ao‘.d$$

bunda:

AVRK - asosiy vositalarning rentabelligi koeffitsiyenti;

SD - sotishdan tushgan tushum;

Ku - asosiy vositalarning faol qismining kapital unumdorligi;

Md - mehnatning faol qismidan foydalanish darajasi;

AVFU - asosiy vositalarning faol qismining ulushi;

Ao‘dD - o‘rtacha amortizatsiya darajasi.

Taklif etilayotgan formuladan foydalanib, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash quyidagi natijalarni olish imkon beradi:

– har bir omil subyektning asosiy fondlari rentabelligiga ta‘sir qilish darajasini aniqlash;

– subyektning asosiy vositalaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi elementlarni aniqlash;

– mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun xaxiralarni aniqlash;

– tahlil tendensiyalaridan kelib chiqib, butun xo‘jalikning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini barqarorlashtirishga yordam beradigan asosiy fondlarning rentabelligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.

Shuningdek, amortizatsiya siyosatini shakllantirishda shuni hisobga olish lozimki, faoliyatning moliyaviy natijalariga korxonaning yarim doimiy xarajatlari tarkibiga kiruvchi amortizatsiya to‘lovlari miqdori ta’sir qiladi.

Bugungi kunda xo‘jaliklar moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradigan amortizatsiya hisoblash usulini tanlashda turlicha yondoshuvlar mavjud. Tahlil qilinayotgan xo‘jalikning asosiy fondlaridan samarali foydalanish va ularni yangilash hamda yangilash strategiyasi talablarini amalga oshirishda asosiy faoliyat yo‘nalishlarini aniqlashga to‘sqinlik qilayotgan masalalarga ham alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar 5-son “Asosiy vositalar” nomli BHMSda keltirilgan amortizatsiya hisoblash usullaridan birini tanlash quyidagilarni:

– asosiy vositalar tannarxini hisobdan chiqarishning turli variantlarini solishtirish;

– xarajatlarning bir qismi sifatida amortizatsiya ajratmalarini oshirishning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda amortizatsiya usulini tanlash imkonini beradi.

Xulosa. Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarimiz xo‘jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish tahlilini tashkil qilishda quyidagi natijalarga erishishga imkoniyat yaratadi deb hisoblaymiz:

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli aktivlarini yangilash strategiyasini ishlab chiqish talablarini asoslash;

– yangi ko‘rsatkich bo‘yicha taklif — xo‘jalikni asosiy vositalarni harakatsizlantirish koeffitsiyenti va asosiy vositalarining harakatlanish jarayonini baholash;

– asosiy vositalarning rentabellik ko‘rsatkichi bilan ulardan foydalanishning keng, intensiv va integral ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslash;

– xo‘jalikning moliyaviy natijalarini yaxshilash uchun asosiy vositalarni eskirish usulini tanlash mezonini taklif qilish;

– umumiy eskirishni hisoblash va yangi va almashtirilgan asosiy vositalarning rentabelligini taqqoslash asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalarini almashtirishning maqsadga muvofiqligini asoslashning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2018-yildagi 1013-son qaroriga 2-ilovasi. Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o‘tkazish reglamenti.

2. Xasanov B.A., Raximov M.Y., Muqumov Z.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: IQTISODIYOT, 2020. - 736 b.

3. Ergasheva Sh. T., Abdusalomova N. B..Boshqaruv hisobi : darslik / - Toshkent : Iqtisodiyot, 2021. - 230 b.

4. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. - 736 b.

5. Sagdillayeva Z.A., Yuldasheva U.A., Alimov B.B. Finansoviy analiz. /Uchebnik –T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 444 s.

**Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich
To‘ychiyeva Dilnoza Farxod qizi
Tashkent State University of Economics**

ACCOUNTING POLICY FORMATION IN INTANGIBLE ASSETS ACCOUNTING ESTABLISHMENT

Annotation. This article provides scientific, theoretical and practical proposals for improving the formation of accounting policies in accordance with international standards in the accounting of intangible assets in budget organizations.

Keywords. Intangible asset, accounting policy, standard, recognition criteria, depreciation, useful life.

Introduction. Today, the development of international relations requires the development of accounting system for large inflows of foreign investment into the economy of the Republic of Uzbekistan. The growing number of users of accounting, the deepening of integration processes, the establishment of joint ventures, investments in global financial centers, the need for free movement of labor and foreign exchange transactions between countries, the need to adapt the accounting system to world standards.

As developed market relations impose new requirements on accounting and business entities (by industry) cannot cover accounting on the basis of a single method and form the government also cannot write a separate accounting system for each enterprise. Because such a system is not suitable for the production and financial activities of each business entity. The accounting system chosen by the entity should be provided with the information required to perform the tasks assigned to it.

Therefore, in a competitive market system, businesses (by industry) have had a significant impact on the organization of accounting. Today, the role of accounting plays an important role in the privatization of state-owned enterprises, their conversion into various forms of ownership, their management, control over their activities, the implementation of certain measures by management.

This means that accounting information must be independent, objective, understandable to internal and external users, which requires an in-depth study of laws and regulations, an impartial approach to the assessment of economic activity. In order to obtain such information, we consider it expedient for the head of the firm to: form an internal system of accounting and reporting; permanent control over business operations; have complete and reliable information; control the storage of accounting documents; prepare the final financial statements in accordance with international standards, timely preparation of financial statements, etc.

In this regard, the current legislation provides independence for entities (by industry) to develop rules and principles of accounting. The essence of such accounting is that each entity independently develops an accounting system to achieve the intended purpose in production (work and services) and financial activities, based on the general rules of accounting established by the state.

Analysis and results. The development of each entity's own accounting system is characterized by the concept of "accounting policy" in the economic literature and regulations (Table 1).

Table 1

Different approaches to the concept of accounting policy are given in the normative documents

<i>NAS No. 1 "Accounting Policies and Financial Reporting"</i>	<i>IFRS No. 8 "Accounting Policies, Changes and Errors in Calculated Values"</i>	<i>SBU No. 1 "Accounting Policies"</i>	<i>IPSAS No. 3 "Accounting policies, changes and errors in accounting estimates"</i>	<i>Author's opinion</i>
Accounting policy is a set of methods adopted by the head of the business entity for accounting and financial reporting [5].	Accounting policies are specific principles, methods, customs, rules and practices used by an entity in the preparation and presentation of financial statements [6].	Accounting policy is a set of specific methods, bases, admissions, rules and methods used by budget organizations in conducting budget accounting and financial reporting [7].	Accounting policy is specific principles, bases, conventions, rules and practices applied by an entity in the preparation and presentation of financial statements [8].	If we analyze all these concepts, their main purpose is to prepare financial statements based on the characteristics of each industry.

It is explained by the correct formulation of accounting policies, regardless of the organizational and legal form of the business entity (by industry) and the form of ownership. At the same time, first of all, legal [1] and normative documents defining the rules of development and formation of the accounting policy of economic entities (by industries) in the Republic are used.

In particular, the accounting policy provides for the use of accounting records and forms for the circulation and registration of documents of business entities (by industry), the criteria for recognizing assets, how to evaluate them, the most convenient and effective method of depreciation, provide detailed information on how the inventory system is set up, as well as set out other rules.

In accounting policies, a single approach to recognizing business assets, liabilities and business transactions is important for accounting entities. An accounting policy is necessary to compare the financial performance of accounting entities in the financial statements presented for different years. Regarding its importance, the legislation establishes such an order that the accounting policy is approved by the head of the business entity (by industry) with the relevant organizational and command documents - orders, decrees, etc.

Therefore, today, based on the nature of the industry, in general, we consider it appropriate to approve the following in the set of accounting policies: - the plan

of working accounts in accounting; - Forms of primary accounting documents used in the registration of business transactions, for which the standard forms are not provided; - form of documents for internal accounting; - procedure and terms of inventory; - criteria for the assessment of property and liabilities, the importance of reflecting financial and economic transactions and indicators; - The rules of document flow and processing of accounting data; - the order of control of economic operations; - other necessary rules and norms for the organization of accounting.

The accounting policy is effective from January 1 of the year following the year of issue of the organizational-command document. In them, the correct organization of the accounting of economic assets and liabilities depends on the accounting policy, which takes into account the impact on the final financial result. Because the correct formation of the cost of goods (works and services) depends on the issues reflected in the accounting policy. At the same time, depreciation costs have a significant share in the cost of goods (works and services). Especially in intangible assets.

Therefore, the use of intangible assets has a modernized look today and is widely implemented in practice. As a result, the cost of goods (works and services) is recognized as a cost in depreciation, and the correctness of accounting and reporting is one of the most pressing issues today.

Today, not only in the economic literature but also in the normative documents, that is, there are different views and approaches on the concept of intangible assets by industry professionals (Table 2).

Table 2

Different approaches to the concept of intangible assets are presented in the normative documents

<i>NAS No. 7 "Intangible assets"</i>	<i>IFRS No.38 "Intangible Assets"</i>	<i>SBU No.9 Intangible Assets</i>	<i>IPSAS No.31 "Intangible assets"</i>	<i>Author's opinion</i>
Intangible assets are identifiable tangible assets held by an enterprise for long-term use in the production, performance of work, provision of services or sale of goods or for the performance of administrative and other functions [9].	An intangible asset is a recognizable non-monetary asset that has no material meaning [10].	Intangible assets are identifiable tangible assets held by an entity for long-term use in the production, performance of work, provision of services or sale of goods or for the performance of administrative and other functions [11]. An intangible asset is an identifiable non-monetary asset that has no physical substance [12].	Comparing these definitions, the definition given in NAS No. 7 and SBU No. 9 is exactly the same. There is a difference between IFRS 38 and IPSAS 31 (IPSAS). In all these definitions, there is an approach that takes into account the nature of the industry and is considered as an intangible asset.	The head of the business has the right to set a lower limit on the value of assets for the reporting period in order to be included in the Intangible assets, and the accounting policy must specify the criterion of this value.

In the economic literature, too, we see that the views expressed by economists are approached precisely on the basis of the nature of the field.

In our opinion, the accounting policy should fully disclose the criteria for recognition of intangible assets, their useful lives (for individual groups) and the methods of calculating depreciation, their revaluation and inventory.

In Accounting Policy No. 7 Intangible assets are recognized in accordance with paragraphs 5 to 8 of NAS. Intangible assets are items of property, plant and equipment that are held for a long period of time by an entity for the use of assets in the production of goods (works or services) or for the sale of goods or for administrative or other functions.

When accepting assets as intangible assets in the accounting, it is expedient to simultaneously meet the following conditions: - not having a material structure (form); - useful life of more than 12 months or use during a normal operating cycle if it exceeds 12 months.

In this case, the value of the asset is at least fifty times the amount of the minimum wage per unit (the limit can be set independently); - the farm does not intend to resell this asset; -reliability, i.e. the presence of duly executed documents (patents, certificates, other security documents, patents, trademark waiver (purchase) agreement) confirming the existence of an asset in the farm and the exclusive right to it; - the possibility of identification, which means that it is separable, i.e. it can be separated from the farm and sold, transferred, leased, exchanged separately or in conjunction with related assets, contracts or obligations (other than goodwill) or contractual and other legal rights. an intangible asset is deemed to be identifiable regardless of whether the rights are transferred to another or separated from the farm or separated from other rights and obligations.

In recognizing an intangible asset, the time limit required to prepare the asset for use and to recognize it as qualified should be determined independently. This is done in order to include in the cost of Intangible assets the costs of borrowings that are received directly for the acquisition or arrangement of the qualifying asset and have a place in that period. The accounting policy must specify a specific period.

Recognition of an intangible asset in IFRS 38 requires an entity to demonstrate that the item satisfies: (a) the definition of an intangible asset; (b) recognition criteria. This requirement applies to the cost of acquiring or creating an intangible asset and the cost of adding, replacing or servicing the part. This Standard shall recognize an intangible asset only if: (a) it is probable that future economic benefits associated with the intangible asset will flow to the entity; (b) it is recognized that the cost of the asset can be measured reliably.

Using reasonable and assumptive assumptions that reflect management's best estimate of the set of economic conditions that will exist during the useful life of the asset, the entity should assess the probability of future economic benefits expected.

In accordance with NAS 7, depreciation costs are allocated to business entities (by industry) in relation to the objects of their use. Here are some concepts of these standards:

a) depreciation - the systematic distribution and inclusion of the depreciable value of an intangible asset over its useful life, based on its function, in the cost of goods (works, services) or current expenses;

b) depreciable amount - the amount of the initial (recoverable) value of the asset less the expected (estimated) liquidation value;

c) useful life - the period for which the enterprise intends to use the asset or the number of products (works and services) that the enterprise intends to withdraw from the use of this asset;

In this case, once the intangible assets are initially recognized, they are reflected in the financial statements in the following two ways:

- at the initial value (residual value) less accumulated depreciation;
- on revalued value (alternative method).

Once the Intangible assets are initially recognized, the method used to reflect it in the financial statements must be specified in the entity's accounting policies.

The entity independently determines the depreciation rate based on the initial cost and useful life of the intangible asset. The service life depends on the period of validity of the patent, certificate and other restrictions on the use of intellectual property in accordance with the legislation of Uzbekistan or a foreign country, as well as relevant agreements. This period may not exceed the period of economic activity. Depreciation rates for intangible assets for which it is not possible or difficult to determine the useful life are set at 5 years, but this period should not exceed the period of economic activity.

Depreciation of intangible assets is calculated by one of the following methods: -linear method, -production method, -accelerated method, i.e. 1) decreasing residual method, 2) sum of numbers - cumulative method.

The accounting policy of the farm specifies the procedure for determining the service life and the applied depreciation methods.

The amount of inventory in the reporting year, the date of their transfer, the list of inventory assets is determined by the head of the farm. The accounting policy clearly states the procedure and conditions of inventory of intangible assets. NAS No. 7 sets the minimum requirements depending on the number of inventories - an inventory of intangible assets at least once every 2 years. IFRS 38 contains the following concepts:

Depreciation is the systematic depreciation of an intangible asset over its useful life.

Amortizations is the cost of an asset less its carrying amount or any other value that is reflected instead of cost.

The useful life is: (a) the period over which the asset is expected to be fit for use by the entity; or (b) the production volume (quantity) or number of similar units expected to be acquired from the asset by the business entity.

In IFRS 38, an expense on an intangible asset is recognized as an expense when it is incurred when: (a) the cost does not constitute an intangible asset that meets the recognition criterion; (b) an item is acquired in a business combination until it is recognized as an intangible asset. In this case, the cost is a component of the value recognized as goodwill at the date of purchase (IPSAS 3).

The accounting for an intangible asset is based on its useful life. An intangible asset with a useful life is amortized, an intangible asset with an indefinite useful life is not depreciated.

Discussion. Thus, the calculation of amortization of intangible assets in business entities is carried out on the basis of the cost of goods (works and services) on the basis of the norms established by the tax legislation, the amortization account.

In practice, we consider the order in which the calculation of depreciation is reflected in the accounting accounts of the processes carried out by business entities (by industry).

For the amount of depreciation accrued on the subjects of production, debit 2010, 2310, 2510, 2610 or 9400 - debited to the relevant account, credit 0500 - debited to the account.

Expenses accumulated in accounts 2010, 2310, 2510, 2610 are transferred to accounts 9110-9130, the amount in these accounts is debited to account 9910 with the amount in account 9400. That is, it reduces the final financial result.

In commercial banks, the accrued depreciation is deducted from the bank's internal operating expenses and recorded in the following accounting entry; debit 56600-Depreciation expense account 56618-Intangible assets depreciation account, credit 16600-Intangible assets account 16605-Intangible assets accumulated depreciation amount (counter-asset) account.

Closing of account 56618 is transferred to debit of account 31203- Retained earnings (asset-liability). This amount reduces the final financial result.

Depreciation of intangible assets is not calculated in budget organizations in accordance with Instruction 2169 [4]. Depreciation is generally recognized as a gain or loss.

However, in this Instruction 2169, various depreciation methods can be used to systematically carry the depreciable amount of an asset over its useful life over its costs. These methods are intended to cover the straight-line method, the decreasing residual method, and the production unit method.

The method used is selected based on the expected future economic benefit expected to be accumulated in the asset and applied periodically, provided that there are no changes in the expected future economic benefit expected. However, in some cases, future economic benefits embodied in the asset are used to generate other assets. In this case, the amount of depreciation is an integral part of the cost of the other asset and is recognized as being included in the carrying amount.

In accordance with Resolution No. 414 [2], budget organizations are given the opportunity to produce and sell goods (works and services) by type of activity. Depending on the type of activity, income from the production and sale of goods (works and services) goes to the development fund of the budget organization and is accounted for in accordance with applicable law.

Instruction No. 2169 states that the costs of production, services and works in budget organizations and the formation of their cost are carried out in accordance with Regulation No. 54 [3]. This provision provides for the direct depreciation of intangible assets at cost or current expenses.

However, amortization of intangible assets used in the production process is deducted from the carrying number of inventories (IFRS 2 Inventories).

In our view, the above results indicate that Regulation 54 and Guideline 2169 are not complementary.

Conclusion. Based on Regulation No. 54 and Instruction No. 2169, as well as accounting records, we consider the following proposals to be appropriate in the correct organization of the accounting of intangible assets in budgetary organizations:

- determination of the useful life of intangible assets (independent determination);
- adjustment of depreciation costs on intangible assets to the requirements of Regulation 54;
- develop a procedure for deducting these depreciation costs from the actual costs of the current year in accordance with the cost items of costs directly related to the production of goods, works and services;
- choose the most efficient method of calculating depreciation on intangible assets.

Thus, if we take into account the above proposals in the accounting policy developed by budgetary organizations, we believe that it will create convenience and ensure objectivity in the correct organization of the accounting of intangible assets.

References

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Accounting" (in the new edition). No. LRU-404. 13.04.2016. <https://lex.uz>.
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated September 3, 1999 No 414 "On improving the procedure for financing of budgetary organizations."
3. Regulation of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan from February 5, 1999 No. 54 "About structure of expenses for production and sale of products (works, services) and the procedure for formation of financial results".
4. Instruction "On accounting in budget organizations." (Registered in the the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan on 22.12.2010 under No. 2169).
5. NAS No. 1 "Accounting Policy and Financial Reporting" of the Republic of Uzbekistan. (Registered by the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan on 05.10.2012 under No. 474-1).
6. IFRS 8 Accounting Policies, Changes and Errors in Estimated Estimates.
7. SBU No. 1 "Accounting Policy" of the Republic of Uzbekistan. (Registered by AV of the Republic of Uzbekistan on 27.12.2016 under No. 2853).
8. IPSAS No. 3 "Accounting policies, changes and errors in accounting estimates" (IPSAS)
9. NAS No. 7 of the Republic of Uzbekistan "Intangible Assets" (registered by the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan on 09.09.2016 No 1485-3).
10. IFRS 38 Intangible Assets

11. SBU No. 9 of the Republic of Uzbekistan "Intangible assets". (Registered by the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan on 24.07.2019 under No. 3169).

12. IPSAS No. 31 (IPSAS) (International Public Sector Financial Reporting Standard). 15.01.2013y

**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIVAVIY HOLATINI BAHOLASH USLUBIYOTINING KO'RSATKICHLAR TIZIMI.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini baholash uslubiyotining ko'rsatkichlar tizimi nazariy uslubiy maslalani bo'yicha olib borilgan o'rganishlar, to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchalarining iqtisodiy mazmuni, xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: to'lov qobiliyati, bank, kredit, garov, likvidlilik koeffitsienti, pul mablag'lari.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilishdan maqsad ularning holatini o'rgangan holda subyektlar tomonidan u yoki bu ko'rinishdagi qarorlar qabul qilishdir. Jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati tahliliga qarab investorlar investitsiya kiritish bo'yicha o'zlarining qarorlarini qabul qiladilar. Tijorat banklari subyektgа kredit ajratish yoki ajratmaslik yoxud ajratilayotgan kredit miqdori bo'yicha o'z munosabatlarini bildirib tegishli qarorlar qabul qiladilar. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zi esa mazkur tahlilni amalga oshirish natijasida o'z faoliyatlari baholab oladilar hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qiladilar.

Shu bois, bu borada iahlil ishlarini tashkil etish va uning natijasi bo'yicha qarorlar qabul qilishda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining natijalari asosiy mezon sifatida olinsada qaysi maqsadda tahlil qilinayotganligi muhim hisoblanadi.

Respublikamizda xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy holatini tahlil qilish va unga baho berishda bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar normalari amal qiladi. Jumladan, Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga oid O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda 1013-son Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda aynan mazkur masalalar bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Ushbu Nizomga muvofiq moliyaviy holatni aniqlash va uni sog'lomlashtirish borasida qarorlar qabul qilish maqsadida o'tkaziladigan tahlil uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- a) to'lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsienti — T_{qk} ;
- b) o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti — O'_{ak} ;

v) aktivlarning va xarajatlarning rentabellik koeffitsienti — A_{rk} , X_{rk} .
 Shuningdek, quyidagi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham qo‘llanilishi mumkin:
 o‘z va qisqa muddatli qarz mablag‘larining nisbat koeffitsienti — O'_{qk} ;
 ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti — Q_{fk} ;
 asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti — A_{vek} .

Moliyaviy natijalar hisobining vazifalaridan biri, korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishdir. Tahlil jarayoni moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganish, ularni o'zaro taqqoslash va korxonaning faoliyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi. Bu jarayonda korxonaning rahbariyati moliyaviy ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirib, o'tgan davrlar bilan taqqoslash orqali korxonaning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlaydi. Tahlil natijalari asosida rahbariyat moliyaviy resurslarni qanday taqsimlash va investitsiya qilish kerakligini belgilaydi. Shuningdek, tahlil jarayonida olingan ma'lumotlar moliyaviy strategiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, xarajatlarni nazorat qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Xarajatlar tahlili orqali korxonaning o'z xarajatlarini qanday kamaytirish va samaradorligini oshirish mumkinligini aniqlaydi. Xarajatlarni nazorat qilish jarayonida moliyaviy natijalar hisobi asosida olingan ma'lumotlar, korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Korxonaning rahbariyati xarajatlarni nazorat qilish orqali o'z resurslarini yanada samarali ishlatishi, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi va foydasini oshirishi mumkin. Bu jarayon, shuningdek, korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi. Moliyaviy natijalar hisobi investitsiya qarorlarini qabul qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Korxonaning rahbariyati investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy natijalar hisobidan olingan ma'lumotlarga tayanadi. Bu ma'lumotlar asosida rahbariyat investitsiya loyihalarining rentabelligini, xavf-xatarlarini va istiqbollarni aniqlaydi. Shunday qilib, moliyaviy natijalar hisobi korxonaning investitsiya strategiyasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar, korxonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarni belgilashda yordam beradi.[1]

Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, moliyaviy rejalashtirish jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy rejalashtirish jarayoni korxonaning kelajakdagi moliyaviy holatini, daromadlarini va xarajatlarini oldindan bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy rejalashtirish korxonaning strategik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqsimlash va boshqarish imkoniyatini beradi. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida olingan natijalar, korxonaning kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlar, asosan, korxonaning moliyaviy

holatini, faoliyatini va natijalarini aks ettiradi. Hisobotlar tayyorlash jarayonida moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri va aniq hisobotlar tayyorlanadi. Bu hisobotlar, shuningdek, tashqi manfaatdor tomonlar, masalan, investorlar, kreditorlar va davlat organlari uchun ham muhimdir. Moliyaviy hisobotlar orqali korxonalar o'z moliyaviy holatini ochiq va shaffof tarzda taqdim etadi, bu esa ishonchni oshirishga yordam beradi.[2]

Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, moliyaviy nazorat jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazorat jarayoni korxonaning moliyaviy faoliyatini kuzatish va baholashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazorat orqali korxonalar o'z moliyaviy faoliyatini yanada samarali boshqarishi, moliyaviy xavflarni kamaytirishi va o'z strategik maqsadlariga erishishi mumkin. Nazorat jarayonida olingan natijalar, korxonaning moliyaviy faoliyatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilashda yordam beradi. Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy samaradorlik baholanishi korxonaning resurslardan qanday samarali foydalanayotganini, daromadlarni qanday oshirayotganini va xarajatlarni qanday kamaytirayotganini aniqlashga yordam beradi. Bu baholash jarayoni moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholash orqali korxonalar rahbariyati o'z faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini ham oshirishi mumkin. Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun korxonalar o'z moliyaviy natijalarini yaxshilash zarur. Moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar korxonaning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi. Bu jarayon korxonaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash va raqobatchilar bilan muvaffaqiyatli kurashish imkoniyatini beradi. Raqobatbardoshligini oshirish orqali korxonalar o'z mijozlari va hamkorlari orasida ishonchni oshiradi.[3]

Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, korxonaning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy natijalar hisobining tahlil va baholash jarayonlari korxonaning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi. Korxonalar o'z moliyaviy faoliyatini ijtimoiy mas'uliyat asosida tashkil etish orqali jamiyatga foyda keltirish va o'z imijini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish orqali korxonalar o'z brendini mustahkamlashi va mijozlar orasida ijobiy obro'ga ega bo'lishi mumkin.[4]

Moliyaviy natijalar hisobi orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirish jarayoni bir qator strategiyalar va usullarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, asosan, korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Xarajatlarni tahlil qilish va nazorat qilish jarayoni moliyaviy natijalar hisobi orqali amalga oshiriladi. Korxonalar xarajatlarini batafsil tahlil qilib, ortiqcha va samarali bo'lmagan xarajatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xarajatlarni kamaytirish orqali

korxonaga o'z foydasini oshirishi va raqobatbardoshligini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon, xarajatlarni nazorat qilish va optimallashtirish orqali amalga oshiriladi. Daromadlarni oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy natijalar hisobi orqali korxonaga o'z daromadlarini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi mumkin. Yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni taklif qilish, mavjud mahsulotlarni takomillashtirish yoki yangi bozorlarni o'zlashtirish orqali daromadlarni oshirish, korxonaning moliyaviy holatini yaxshilaydi va raqobatbardoshligini oshiradi. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy natijalar hisobi muhim rol o'ynaydi. Korxonaga investitsiya qilishdan oldin, moliyaviy natijalar hisobi asosida loyihaning rentabelligini va xavf-xatarlarini tahlil qiladi. To'g'ri investitsiya qarorlari qabul qilish orqali korxonaga o'z raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Moliyaviy rejalashtirish jarayoni ham muhimdir. Moliyaviy natijalar hisobi, kelajakdagi daromadlar va xarajatlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Bu orqali korxonaga o'z resurslarini samarali taqsimlash va boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yaxshi rejalashtirilgan moliyaviy strategiya korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayoni ham moliyaviy natijalar hisobi orqali amalga oshiriladi. Korxonaga o'z iqtisodiy samaradorligini baholashi va oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilashi mumkin. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali amalga oshiriladi. Mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar, korxonaning mijozlar bilan aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. Mijozlar ehtiyojlarini tushunish va ularni qondirish orqali korxonaga o'z raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Mijozlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish, ularning sadoqatini oshiradi va sotuvlarni ko'paytiradi. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash ham raqobatbardoshlikni oshirishda muhimdir. Moliyaviy natijalar hisobi orqali korxonaga innovatsion g'oyalar va yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini aniqlashi mumkin. Innovatsiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirishga, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Raqobatchilarni tahlil qilish jarayoni ham moliyaviy natijalar hisobi orqali amalga oshiriladi. Korxonaga raqobatchilarining moliyaviy ko'rsatkichlarini o'rganish orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi mumkin. Bu ma'lumotlar asosida korxonaga o'z strategiyasini takomillashtirishi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Moliyaviy shaffoflikni oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy natijalar hisobi orqali korxonaga moliyaviy shaffofligini oshirishi mumkin. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar ochiq va aniq tarzda taqdim etilishi, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar orasida ishonchni oshiradi. Moliyaviy shaffoflik, korxonaning obro'sini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish ham raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Moliyaviy natijalar hisobi orqali korxonaga ijtimoiy mas'uliyatini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi mumkin. Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, korxonaning ijobiy imijini yaratadi va mijozlar orasida ishonchni oshiradi. Bu esa raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.[5]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy natijalar hisobining vazifalari korxonaning moliyaviy holatini baholash, tahlil qilish, rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalar korxonaning strategik maqsadlariga erishish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi. Shunday qilib, moliyaviy natijalar hisobi korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Moliyaviy natijalar hisobi orqali olingan ma'lumotlar korxonaning kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilashda, moliyaviy resurslarni boshqarishda va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy natijalar hisobi, shuningdek, korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga va iqtisodiy samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Bularning barchasi korxonaning barqaror rivojlanishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyazov, A. (2020). "Moliyaviy hisobotlar tahlili". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi.
2. Xolmatov, M. (2019). "Moliyaviy natijalar hisobi va tahlili". Tashkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
3. Toshpulatov, S. (2021). "Korxonalar moliyasi". Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti va moliya institutlari.
4. Rahmonov, D. (2022). "Moliyaviy natijalar hisobi: nazariy va amaliy jihatlar". Tashkent: O'zbekiston moliya vazirligi.
5. Ismoilov, A. (2021). "Xarajatlar va daromadlar hisobini boshqarish". Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti va moliya markazi.
6. Murodov, E. (2020). "Investitsiya faoliyatini tahlil qilish". Tashkent: O'zbekiston davlat iqtisodiy universiteti.
7. Sul'tonov, R. (2023). "Moliyaviy rejalashtirish va strategiyalar". Tashkent: O'zbekiston moliya instituti.

Эргашева М.Ш

**Тошкент давлат иқтисодийёт университети
ТДИУ «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси ассистент**

**СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРЯ ХИСОБИНИ
ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ**

Аннотация. Мақолада суғурта ташкилотларида молиявий ҳисоботларни ташкил этишнинг долзарб масалалари, муаммолар ва уларнинг ечимлари ўрганилган. Жумладан, суғурта кампанияларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этишда таъсир этувчи муаммолар ва уларнинг ечимлари билан боғлиқ масалалари тадқиқ этилган.

Таянч нушунчалар: суғурта ташкилоти, молиявий ҳисобот, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, молиявий натижалар ҳисоби, даромад ва харажатлар.

Мамлакатимизда молия бозорини янада ривожлантириш, аҳолини

сифатли молиявий хизматлар билан камраб олиш кўламини кенгайтириш, суғурта ташкилотлари фаолиятини кўллаб-қувватлаш, шунингдек ушбу соҳада истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда суғурта муносабатларининг ривожланиши ва суғурта инфратузилмасининг қарор топиши янги субъектларнинг вужудга келишига имконият яратмоқда. Замонавий иқтисодиётда суғурта фаолияти бир томондан жисмоний ва юридик шахсларнинг эҳтимолига кура кутилаётган табиий ва техноген ҳодисалардан ҳимояланиш имкониятини яратади.

Суғурта ташкилотларида бухгалтеря ҳисоби, унинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ташкил этилиб, барча соҳалардаги сингари қуйидаги ягона тамойилларга:

- ҳолисона тўғри маълумот;
- узлуксиз ҳужжатлаштириш;
- икки ёқлама ёзув;
- маълумотларини акс эттирувчи шаклларнинг ўзаро боғлиқлиги;
- счёт тизимига асосланиши.

Жумладан, Президентимиз томонидан суғурта ташкилотларида бухгалтеря ҳисобини янада такомиллаштиришга оид Фармон ва Қарорлар имзоланди.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4611-сонли Қарори қабул қилинди, унда, МХХСни ва мазкур соҳада кадрларни тайёрлашнинг замонавий усулларини босқичма-босқич жорий этиш юзасидан тасдиқланган «Йўл харитаси»да барча зарур чора-тадбирлар камраб олинган. Шунга мувофиқ, суғурта ташкилотлари томонидан эълон қилинадиган молиявий ҳисоботлар сифати халқаро тамойилларга мувофиқлиги назоратини ўтказиш бизга қуйидаги устувор вазифаларни бедгилаб берди.

Шунингдек, суғурта ташкилотларида бухгалтеря ҳисобини янада такомиллаштиришда жаҳон тажрибасида синовдан ўтган молиявий ҳисоб усулларини амалиётга татбиқ этиш долзарб масалалардан бўлиб ҳисобланади.

Тадқиқот ишини бажаришда кузатиш, маълумотларни тўплаш, умумлаштириш, гуруҳлаш, таққослаш, маҳаллий ва хорижий олимларнинг хизматлар соҳасидаги иқтисодий муносабатлар ва пандемия ва унинг суғурта соҳасига таъсири, муаммолар ва уларнинг ечимларига бағишланган тадқиқотлари, соҳани тартибга солувчи қонунлар, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш асосида пандемия ва унинг суғурта соҳасига таъсири, муаммолар ва уларнинг ечимларига қаратилган хулоса ва таклифлар шакллантирилган.

Бозор муносабатларини чуқурлаштириш ва мамлакатимизни модернизациялаш шароитида суғурта ташкилотлари томонидан суғурталаш хизматларини кўрсатиш соҳасидаги фаолияти янада ривожлантирилмоқда.

Суғурта ташкилотининг бошқарув кенгашига, шунингдек инвесторлар, мижозлар, солиқ органлари, банклар ва бошқа манфаатдор шахсларга керакли бўлган хўжалик фаолияти ва натижаси тўғрисидаги маълумот ни шакиллантириш

ўрнатилган меъёрлар доирасида пул маблағлари, мол-мулк ва суғурта захираларини шакиллантириш ва улардан фойдаланиш талабларининг бажарилиши устидан назоратни таъминлаш

техник ва бошқа захираларни юритиш ҳамда молиявий хўжалик фаолиятидаги вужудга келган салбий ҳолатларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этиш.

1-Расм. Суғурта ташкилотида юритиладиган бухгалтеря ҳисобининг асосий вазифалари

Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби бошланғич ҳужжатлардаги маълумотларни турлари ва йўналишлари бўйича жамлаш, пул маблағлари ва бошқа хўжалик муомалаларини синтетик ва аналитик счётларда юритилишини бухгалтерия ҳисобини барча бўлимларда акс эттиришга асосланган журнал- ордер шаклида олиб борилади.

Бошланғич ҳужжатларни жамлаш ва бир системага келтириш ҳисоб регистрларида олиб борилади, бу эса ҳисобот давридаги пул маблағларини ва хўжалик муомилаларининг барчасини ҳисобга олиб боришга имконият яратади.

Бухгалтерия ҳисоби юритишнинг журнал-ордер формасида қуйидаги бухгалтерия регистрлари қўлланилади: журнал-ордерлар, бош китоб, счётлар бўйича айланма муомилалар қайдномаси.

Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг асосий регистрлари бўлиб бош-китоб ва қуйидаги журнал-ордерлар ҳисобланади:

№1 - « Касса муомолалари »

№2 - «Банк муомолалари»

№3 – «Ҳисобдор шахслар билан ҳисоб китоблар»


№4 – «Хизматчилар билан ҳисоб китоблар»

№5 - «Бошқа муомолалар»

Бош китоб суғурта ташкилотининг барча ҳудудий бўлинмаларида юритилиб, журнал ордерлар ёзувларини жамлаш, счётлар бўйича ёзувларнинг ўзаро солиштирилиши ва ҳисобот даври учун моливий-хўжалик фаолияти бўйича баланс тузиш учун қўлланилади.

Суғурта ташкилотларида бухгалтерия узвий боғланган бир неча босқичдан иборатдир.

ҳисоби жараёни заро



2-Расм. Суғурта ташкилотларида молиявий ҳисоботни тузиш босқичлари

Хулоса қилиб айтиш мумкинки ташқи бозорларга чиқиш, халқаро савдо ва тижоратни йўлга қўйиш, жаҳон фонд бозорида иштирок этишда молиявий ҳисоботларни ҳам барча учун бир хил шаклда ва мазмунда чоп этиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини хўжалик субъектларда қўлланилиши улар фаолиятини тезкор ва истиқболли бошқаришда асосий ўринлардан бирини эгаллаши, халқаро стандартлар талабларига тўлиқ мувофиқлаштириш имкониятларини беради.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан суғурта ташкилотларида молиявий ҳисоботларни ташкил этишнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш билан боғлиқ муаммоларни бартараф этишга қаратилган ечимлари таклиф этилди:

Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартларга мослаштириш;

Суғурта ташкилотларида молиявий ҳисобот шакилларини тўлдиришни такомиллаштириш мақсадга мувофиқ деган хулоса қилинди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида” ги Қонуни. №404. 2016 йил 13апрель.

2. Ўзбекистон Республикаси «Аудиторлик фаолияти тўғрисида» ги Қонуни (янги таҳрир). - Т.: 2021 йил 25 май (ўзгартириш ва қўшимчалар билан).

3. Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида” ги Қонуни. 2022 йил 25феврал.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги ПҚ-4611-сон қарори. 2020 йил 24 февраль.

5. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2005 йил 20 июлдаги 65-сон буйруғи билан “Суғурта ташкилотлари томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги НИЗОМ” .(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2005 йил 18 октабрда 1517-сон билан рўйхатга олинган).

6. Винникова И.С. Финансовый анализ страховых организаций. Учебное пособие. – Н. Новгород: ВГИПУ, 2017.

7. Тулаходжаева М.М.ва бошқалар. Аудит. Дарслик. - Т.: Иқтисодиёт, 2018.

8. Шеннаев Х.М ва бошқалар Суғурта иши. Ўқув қўлланма. -Т.: Тафаккур бўстони, 2014 .

Фарманова Зухра Тулкиновна
Тошкент Кимё Халқаро Университети
мустақил изланувчиси,
farmanova1987@mail.ru
ORCID:0009-0002-5833-4743

БАҲОЛАНГАН МАЖБУРИЯТЛАР, ШАРТЛИ МАЖБУРИЯТЛАР ВА ШАРТЛИ АКТИВЛАР ҲИСОБИ ХУСУСИДАГИ АХБОРОТЛАРНИ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ИЗОҲЛАРИДА АКС ЭТТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация. Ушбу мақолада баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар ҳисоби хусусидаги ахборотларни молиявий ҳисобот изоҳларида акс эттириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: мажбурият, жорий ва узоқ мудатли мажбуриятлар, баҳоланган мажбурият, шартли мажбурият, шартли актив, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС), бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари (БҲХС).

Молиявий ҳисоботлар турли фойдаланувчилар учун муҳим маълумот манбаи ҳисобланади. Улар қарор қабул қилиш учун зарур бўлган молиявий ва молиявий бўлмаган маълумотларни ўз ичига олади. Хўжалик юритувчи субъектлар МҲХС бўйича молиявий ҳисоботларини тайёрлашда 1-сон МҲХС «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини биринчи марта қўллаш» номли стандартдан фойдаланишлари мажбур қилиб қўйилган.

Хўжалик юритувчи субъектлар 1-сон МҲХС ва 1-сон БҲХС «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш» стандартни умумий мақсаддаги молиявий ҳисоботини Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқ тайёрлашда ва тақдим этишда қўллаши лозим.

Ушбу икки стандарт хўжалик юритувчи субъектнинг олдинги фаолияти даврлардаги молиявий ҳисоботлари ва бошқа корхоналарнинг молиявий ҳисоботлари билан таққосланишини таъминлаш мақсадида умумий мақсаддаги молиявий ҳисоботни тақдим этиш асосларини белгилаб беради. Ушбу стандартлар молиявий ҳисоботни тақдим этишга учун умумий талабларни яъни молиявий ҳисоботларнинг тузилишига оид кўрсатмаларни ҳамда унинг мазмунига доир минимал бўлган талабларни белгилаб беради.

Хўжалик юритувчи субъектлар ҳар бир тақдим этилган моддани молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда ёки изоҳларда унинг фаолиятига тўғри келадиган равишда таснифланган ва қуйи синфларга ажратган ҳолда, ёритиб бериши лозим.

37-сон БҲҲС “Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар” стандартга мувофиқ баҳоланган мажбуриятларнинг ҳар бир синфи бўйича ҳўжалик юритувчи субъект қуйидагиларни ёритиб бериши лозим:

- давр бошидаги ва охиридаги баланс қиймати;
- давр мобайнида қўшимча яратилган баҳоланган мажбуриятлар, шу жумладан мавжуд баҳоланган мажбуриятларнинг кўпайиши;
- давр мобайнида фойдаланилган суммалар (яъни баҳоланган мажбурият ҳисобидан сарфланган ва баҳоланган мажбуриятни камайтирган суммалар);
- давр мобайнида қайта тикланган фойдаланилмаган суммалар;
- давр мобайнида вақт ўтиши билан ва дисконтлаш ставкасидаги ҳар қандай ўзгаришнинг таъсири натижасида дисконтланган қийматнинг кўпайиши.

Шунингдек, ҳўжалик юритувчи субъект баҳоланган мажбуриятнинг ҳар бир синфи бўйича қуйидагиларни ёритиб бериши лозим:

- жавобгарлик характерининг қисқача тавсифи ва унинг натижасида иқтисодий наф чиқиб кетишининг қутилётган муддати;
- ресурслар чиқиб кетишининг суммаси ёки муддатига тегишли ноаниқликларнинг таснифи. Етарлича маълумотлар тақдим этилиши зарур бўлган ҳолларда, ташкилот келгуси ҳодисалар бўйича қилинган аҳамиятли фаразларни ёритиб бериши лозим;
- қутилаётган қоплаб бериш суммаси бўйича тан олинган ҳар қандай активнинг қийматини кўрсатган ҳолда ҳар қандай қутилаётган қоплаб бериш суммаси.

37-сон БҲҲС ва 1-сон БҲҲС талабларидан келиб чиқиб тадқиқот ихтисослигига оид адабиётларни ўрганиш асосида «Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар тўғрисидаги маълумот» номли қуйидаги шакл тавсия этилди.

Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар тўғрисидаги маълумот (изоҳли шакл)¹

№	Кўрсаткичлар	Ҳисобот даври бошида	Ҳисобот даври охирида	Ўзгариши	
				Мутлақ	Нисбий
1	Баҳоланган мажбуриятларнинг жами суммаси(минг сўм)				
	<i>Шундан:</i>				
	<i>Узоқ муддалли</i>				
1.2	Кафолат бўйича баҳоланган мажбурият				
1.3	Суд даволари бўйича баҳоланган мажбурият				
1.4	Солиқ жарималари бўйича баҳоланган мажбурият				

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

1.5	...				
1.6	ва бошқалар				
<i>Қисқа муддатли</i>					
1.1.2	Кафолат бўйича баҳоланган мажбурият				
1.1.3	Суд даволари бўйича баҳоланган мажбурият				
1.1.4	Солиқ жарималари бўйича баҳоланган мажбурият				
1.1.5	...				
1.1.6	ва бошқалар				
2	Шартли мажбуриятлар жами суммаси(минг сўм)				
<i>Шундан:</i>					
2.1	Кафолат бўйича шартли мажбурият				
2.2	Суд даволари бўйича шартли мажбурият				
2.3	Солиқ жарималари бўйича шартли мажбурият				
2.4	...				
2.5	ва бошқалар				
3	Шартли активлар жами суммаси (минг сўм)				
<i>Шундан:</i>					
3.1	Суд даволари бўйича шартли активлар				
3.2	...				
3.3	ва бошқалар				

Ушбу таклиф этилаётган «Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар тўғрисидаги маълумот» изоҳли шакл 3 қисмдан иборат:

1-қисм. Баҳоланган мажбуриятларнинг жами суммаси. Ушбу қисмда бажариш муддатига ёки ноаниқ қийматга эга бўлган кафолат бўйича, суд даволари бўйича, солиқ жарималари ва бошқа ҳодисалар бўйича баҳоланган мажбуриятлар акс эттирилади. Шунингдек тушунтириш хати сифатида ҳар бир мажбурият бўйича давр мобайнида кўшимча яратилган баҳоланган мажбуриятлар, шу жумладан мавжуд баҳоланган мажбуриятларнинг кўпайиши, давр мобайнида фойдаланилган суммалар (яъни баҳоланган мажбурият ҳисобидан сарфланган ва баҳоланган мажбуриятни камайтирган суммалар), давр мобайнида қайта тикланган фойдаланилмаган суммалар, давр мобайнида вақт ўтиши билан ва дисконтлаш ставкасидаги ҳар қандай ўзгаришнинг таъсири натижасида дисконтланган қийматнинг кўпайиши ҳақидаги маълумотлар ҳам тақдим этилади.

2-қисм. Шартли мажбуриятлар жами суммаси. Ушбу қисмда муддатига ёки ноаниқ қийматга эга бўлган кафолат бўйича, суд даволари бўйича, солиқ

жарималари ва бошқа ҳодисалар бўйича баҳоланган мажбуриятлар ҳақида маълумот берилади. Шартли мажбуриятлар дастлаб кутилганидан фарқли тарзда ўзгариши мумкин. Шунинг учун, ўзида иқтисодий нафни мужассамлаштирган ресурслар чиқиб кетиши эҳтимоли пайдо бўлганини аниқлаш мақсадида, улар мунтазам равишда баҳолаб борилади. Агар олдин шартли мажбурият сифатида таснифланган модда бўйича ўзида иқтисодий нафни мужассамлаштирган ресурслар чиқиб кетиши талаб этилиши эҳтимоли пайдо бўлса, баҳоланган мажбурият эҳтимолликда ўзгариш содир бўлган даврдаги молиявий ҳисоботда тан олинади

3-қисм. Шартли активлар жами суммаси. Шартли активлар, улардаги ўзгаришларни молиявий ҳисоботда тегишли тарзда акс эттириш мақсадида мунтазам баҳоланади. Агар иқтисодий наф келиб тушиши деярли аниқ бўлса, актив ва тегишли даромад ўзгариш содир бўлган давр молиявий ҳисоботида тан олинади. Агар иқтисодий наф келиб тушиши эҳтимоли пайдо бўлганда, ташкилот шартли активни ёритиб беради.

Шартли мажбурият ёки шартли актив масаласида бошқа томонлар билан мунозараларида ташкилотнинг позициясига жиддий зарар келтириши кутилиши мумкин. Бундай ҳолатларда, ташкилот маълумотларни ёритиб бериши шарт эмас, лекин маълумотлар ёритиб берилмаслиги фактини ва сабабини мунозаранинг умумий характери билан биргаликда ёритиб бериши лозим.

Фойдаланилган адабётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони манба: <https://www.lex.uz>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сонли “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори. (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолари. Дис...иқт.фан.д-ри. – Т., 2011.

4. Ташназаров С.Н., Ташназарова Д.С. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. – Самарканд: СамИСИ, 2018. – 421 б.

5. A. Rizaqulov, V. Xasanov, A. Usanov, Z. Mamatov, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. T.: - 2004. Tarjima.

6. А.А. Амиров Мажбуриятларнинг моҳияти ва уларни ҳисобга олишни такомиллаштириш йўналишлари. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.

7. Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. –М., 2003.

8. IFRS For Dummies Published by John Wiley & Sons, Ltd The Atrium Southern Gate Chichester West Sussex PO19 8SQ England www.wiley.com Copyright © 2012 John Wiley & Sons, Ltd, Chichester, West Sussex, England Published by John Wiley & Sons, Ltd, Chichester.

9. Малкова Т.Н. Теория и практика международного бухгалтерского учёта. Учебное пособие. Изд. 2-е. –СПб., 2003.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МСФО (IFRS) 5 «ВНЕОБОРОТНЫЕ АКТИВЫ, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫЕ ДЛЯ ПРОДАЖИ, И ПРЕКРАЩЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ»

Аннотация. На сегодняшний день существуют некоторые проблемы в вопросах практического применения МСФО в Узбекистане. Чтобы найти решение на них, мы хотим в данной статье раскрыть особенность применения МСФО (IFRS) 5 «Внеоборотные активы, предназначенные для продажи, и прекращенная деятельность» и дать некоторые разъяснения организации учета внеоборотных активов, предназначенных для продажи по международным стандартам и составления финансовой отчетности.

Ключевые слова: внеоборотные активы, обесценение, прекращенная деятельность, выбывающая группа, генерирующая единица, продажа, покупатель, компонент предприятия, МСФО.

Эффективность эксплуатации компанией внеоборотных активов иллюстрирует результаты ее финансово-хозяйственной деятельности, представленной определенными показателями финансовой отчетности. На современном этапе экономического развития внеоборотные активы приобрели бесспорное значение при определении влияния на финансовую характеристику любого предприятия. Именно внеоборотные активы являются базой для успешной производственной работы компании и получения ею экономических выгод.

В целях обеспечения необходимой информационной среды для иностранных инвесторов и расширения возможностей доступа к международным финансовым рынкам путем ускоренного перехода на международные стандарты финансовой отчетности, а также совершенствования системы подготовки специалистов в области учета и аудита по международным стандартам 24.02.2020 г. было принято Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4611.

Однако до настоящего времени в практических вопросах применения МСФО в Узбекистане существуют некоторые проблемы. Это недостаток опыта и образования в области международных стандартов, отсутствие утвержденных сроков сдачи финансовой отчетности по МСФО и алгоритма трансформации из НСБУ на МСФО. Чтобы найти решение на перечисленные проблемы целью настоящей научной работы является изучение сущности МСФО (IFRS) 5 «Внеоборотные активы, предназначенные для продажи, и прекращенная деятельность» с теоретической и практической позиций.

При проведении исследовательской работы по данной теме, были изучены концептуальные основы международных стандартов финансовой отчетности, нормативные базы регулирования бухгалтерского учета в Узбекистане и зарубежом, использованы научные работы зарубежных и

отечественных экономистов по учету внеоборотных активов, предназначенных для продажи и прекращенная деятельность на основе МСФО.

Для того чтобы мы классифицировали внеоборотные активы как предназначенные для продажи должны выполняться два условия. Для этого актив должен быть:

1. В наличии для немедленной продажи в его текущем состоянии. Продажа высшей степени вероятно будет тогда, когда будут выполнены следующие условия:

- цена определена и сравнима с текущей справедливой стоимостью;
- продажа должна произойти в течение года;
- руководство должен принять план продажи актива (выбывающей группы);
- ведется активный поиск покупателя.

2. Продажа должна быть в высшей степени вероятной.

Как только мы классифицировали внеоборотный актив как предназначенный для продажи, мы должны сделать следующие 4 шага:




Рисунок 1. Четыре шага

Прекращенная деятельность – это Компонент предприятия, который либо выбыл, либо классифицирован как предназначенный для продажи, и представляет собой:

- отдельный значительный вид деятельности или географический район ведения операций;
- является частью единого скоординированного плана выбытия отдельного значительного вида деятельности или географического района ведения операций; или

-является дочерним предприятием, приобретенным исключительно с целью последующей перепродажи.

Дело в том, что прекращение деятельности, бизнеса, либо части бизнеса может осуществляться 2 способами. 1 способ путем продажи. То есть, когда мы продаем направления бизнеса, продаем какой-то операционный сегмент. Продажа предусматривает сделку, где есть покупатель и продавец и получаем компенсацию за продажу. 2 способ мы решили закрыть какой-то сегмент, какое-то направление. То есть здесь уже другая история. У нас нет покупателя, у нас нет вырученных средств, мы не продаем, мы прекращаем направления деятельности. Поэтому IFRS 5 только работает если деятельность прекращается путем продажи.

Если никакой сделки по продаже нет мы просто закрываем, в этом случае нужно применять МСФО 37 «Резервы, условные обязательства и активы». Соответственно разные стандарты, разные требования.

При применении IFRS 5 «Внеоборотные активы, предназначенные для продажи, и прекращенная деятельность» мы отдельно выделяем это направление деятельности и выделяем активы, обязательства, которые к нему относятся и классифицируем их в отдельные статьи в балансе предприятия.

Таким образом, прекращаемая деятельность –это составная часть (компонент) компании, которая была классифицирована как предназначенная для продажи. Следует:

1. Реклассификация активов и обязательств в составе прекращаемой деятельности при соблюдении критериев.

2. На отчетную дату тест на обесценение.

3. В отчетности:

-В ОФП в оборотных активах «Активы по прекращаемой деятельности», в оборотных обязательствах «Обязательства по прекращаемой деятельности».

- ОПУ – отдельно раскрываются результаты по прекращаемой/прекращенной и продолжающейся деятельности

Таким образом в отчете о совокупном доходе прекращенная деятельность должна быть представлена как:

-прибыль либо убыток после налогообложения от прекращенной деятельности (включая обесценение до справедливой стоимости за минусом затрат на продажу);

-предыдущие периоды ретроспективно должны быть скорректированы, и выделены данные по прекращенной деятельности.

Можно это рассмотреть на следующем примере (таб.1)

Таблица 1.

Отражение в отчетности прекращенной деятельности

Показатели	2024 г. в тысяч д.е.	2023 г. в тысяч д.е.
Выручка	365 000	258 000
Себестоимость	280 000	200 000
Валовая прибыль	85 000	58 000
Управленческие и коммерческие расходы	40 000	35 000

Прибыль до налога	45 000	23 000
Налог	15 000	8 000
Прибыль за год	30 000	15 000

Есть данные за 2023 и 2024 года. Как видно из таблицы компания прекрасно набирает обороты. Выручка в 2023 году 258 000 тысяч д.е., в следующем году 365 000 тысяч д.е. А прибыль прошлого года 15 000 тысяч д.е., этого года 30 000 тысяч д.е.

Есть информация в примечании, что на конец 2024 года компания классифицирует производственное дочернее предприятие как предназначенная для продажи. Доля в обороте доходов составляет 95 %. Это означает, что по сути дело головное предприятие продает 95% своего бизнеса, компонента.

Это информация для инвестора не будет полезной. Потому что инвестор ожидает, что деятельность компании будет продолжаться исходя из этой отчетности. По сути дело подобная отчетность водит инвестора в заблуждения.

Правильно отчетность компании исходя из IFRS 5 «Внеоборотные активы, предназначенные для продажи, и прекращенная деятельность»? должна составляется в следующем образом. Давайте это посмотрим (таб.2).

Из данных таблицы можно увидеть, что все затраты, вся выручка 95 % компонента компании, которая выбывает показаны одной строчкой «Прибыль от прекращенной деятельности». Весь остальной отчет сделан на основе продолжающейся деятельности, которая имеет 5 % от оборота группы.

Таблица 2.

Отражение в отчетности прекращенной деятельности

Показатели	IFRS 5	
	2024 г. в тыс. д.е.	2023 г. в тыс. д.е.
Выручка	18 250	12 900
Себестоимость	14 000	10 000
Валовая прибыль	4 250	2 900
Управленческие и коммерческие расходы	2 000	1 750
Прибыль до налога	2 250	1 150
Налог	750	400
Прибыль от продолжающейся деятельности	1 500	750
Прибыль от прекращенной деятельности	28 500	14 250
Прибыль за год	30 000	15 000

Подводя итоги можно сказать, что финансовая отчетность нужна пользователям для того, чтобы, во-первых, понимать результат деятельности компании и второе на основе этой отчетности инвестор строит свои оценки в отношении событий будущего. Допустим он прогнозирует, понимает, что, исходя из этой отчетности скорее всего в следующем в 2025 году он получит сумму как минимум не меньше, чем 30 000 тысяч д.е.

Но инвестор видит, что на самом деле оборот группы составляет 18 250 тысяч д.е., прибыль группы от продолжающейся деятельности 1 500 тысяч д.е. А результат прекращенной деятельности 28 500 тыс. д.е., вот она, по сути, будет прекращена и инвестор будет принимать соответствующее решение.

Использованная литература

1. ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» 24 февраля 2020 г.
2. МСФО 2 (IAS 5) Долгосрочные активы, предназначенные для продажи, и прекращенная деятельность. [https:// https://finotchet.ru/articles/84/](https://finotchet.ru/articles/84/)
3. Набор международных стандартов финансовой отчетности. // АССА. МСФО/IAS., 2019.
4. Сатывалдыева Д.А. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. -Т.: «Инновацион ривожлатириш нашриёт -матбаа уйи» 2022. -340с.
5. Сатывалдыева Д.А. Бухгалтерский учет. Учебное пособие.-Т.: «IQTISODIYOT», 2023. -248 с.
6. Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчетности. У

**ТДИУ “Бухгалтерия ҳисоби”
кафедраси мустақил изланувчиси
Ғозиева М.Р.**

ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ИНВЕНТАР ВА ХЎЖАЛИК ЖИХОЗЛАРИ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Ушбу тезисда хўжалик юритувчи субъектларда фойдаланилаётган инвентар хўжалик жихозлари ҳисобини ташкил этишда юзага келаётган муаммолар келтирилган бўлиб, уни ҳал қилиш учун дастлаб инвентар ва хўжалик жихозларини асосий воситалар таркибида ёки жорий активлар таркибида ҳисобга олиш масаласини ҳал қилиш лозимлиги айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: инвентар хўжалик жихозлари, асосий воситалар, жорий активлар, ишлаб чиқариш харажатлари, хизмат муддати, ярқисиз, материаллар.

Бозор иқтисодиёти ривожланаётган бугунги кунда бухгалтерия ҳисобига юклатилаётган вазифалар кўламининг кенглиги турли мамлакатлар ва улардаги иқтисодиёт тармоқларининг фаолият юритишини ҳар хил иқтисодий шарт-шароитларда амалга оширилаётганлиги билан боғлиқ.

Бухгалтерия ҳисобининг барча вазифалари кўпчилик мамлакатларда қабул қилинган бухгалтерия ҳисоби умумий тамойилларининг амал қилиши билан тавсифланади. Ҳар қандай тармоқ корхоналарида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд, бироқ, корхоналарда бухгалтерия ҳисобининг асосий вазифаларидан бири менежерларни ишлаб чиқариш хусусиятига эга моддий, меҳнат ва молиявий ресурслардан қай

даражада фойдаланилаётганлигини тавсифловчи аниқ маълумотлар билан таъминлаш ҳисобланади.

Корхоналарда фойдаланилаётган инвентар хўжалик жиҳозлари (ИХЖ) ҳисобини ташкил этиш тамойиллари ва вазифаларини англаш учун авваламбор улардан фойдаланиш хусусиятларини, шунингдек, уларнинг таснифини тадқиқ этиш зарур. ИХЖлар ҳам асосий воситалар каби фойдаланиш жараёнида эскиради. Шу сабабли, ҳозирги пайтда ИХЖларнинг бир қисми асосий воситалар таркибида «инструментлар», «ишлаб чиқариш инвентарлари ва ашёлари» ва «хўжалик инвентарлари» сифатида ҳисобга олинса, иккинчи қисми эса товар материал захиралари таркибида ҳисобга олинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг «Товар-моддий захиралари» номли 4-сонли миллий стандартининг 51-бандига биноан инвентар ва хўжалик жиҳозлари таркибига қуйидаги мезонларнинг бирига жавоб берадиган мулк (буюм)лар киритилади.

а) хизмат қилиш муддати бир йилдан ортиқ бўлмаган;

б) хизмат қилиш муддатидан қатъий назар, қиймати Ўзбекистон Республикасида белгиланган энг кам иш ҳақининг эллик бараваригача (сотиб олиш вақтидаги) миқдордаги бўлган буюмлар (корхона раҳбари ушбу чегарани жорий йил учун камайтириш имкониятига эга).

Ҳозирги кунда материаллар таркибида ҳисобга олинаётган инвентар ва хўжалик жиҳозлари амалдаги счетлар режасига қадар 1200-«Арзон баҳоли ва тез эскирувчи буюмлар ҳисоби» сметида ҳисобга олинар эди. Бу сметининг вазифасини 1080-«Инвентар ва хўжалик жиҳозлари смети» га ўтказилиши корхоналарда ҳисоб юритишнинг амалдаги тартибини ўзгартирди. Чунки, илгари арзон баҳоли ва тез эскирувчи буюмларга эскириш ҳисобланар ва фойдаланиш муддати келганда ҳисобдан чиқарилар эди.

Янги тартиб бўйича инвентар ва хўжалик жиҳозлари фойдаланишга берилганда уларнинг қиймати тўлиқ ҳисобдан чиқарилади ҳамда қаерда фойдаланилган бўлса, ўша объектнинг харажатига олиб борилади. Шунингдек, фойдаланишга берилган инвентар ва хўжалик жиҳозлари балансдан ташқари 014-«Фойдаланишдаги инвентар ва хўжалик жиҳозлари» номли балансдан ташқари смети дебет томонига ёзиб қўйилади. Фойдаланишга берилган инвентар ва хўжалик жиҳозларининг бутлигини таъминлаш учун 014-«Фойдаланишдаги инвентар ва хўжалик жиҳозлари» номли балансдан ташқари смети бўйича аналитик ҳисоб ишлаб чиқариш бўлинмасидаги моддий жавобгар шахс томонидан юритилади.

Корхоналарда яроқсиз ҳолга келган инвентар ва хўжалик жиҳозлари далолатнома билан ҳисобдан чиқарилади. Ҳисобдан чиқариш далолатномасида уларни тугатишдан олинган буюмлар комиссия томонидан баҳоланиб, 1090-«Бошқа материаллар» сметида киримга олинади. Комиссия томонидан баҳоланган суммадан инвентар ва хўжалик жиҳозлари сарфланган харажат объектларининг суммаси камайтирилади.

Аммо, инвентарлар ва хўжалик жиҳозлари ҳисобининг ушбу тартиби бухгалтерия ҳисобини юритишни ҳамда бухгалтерия ходимларининг ишини

енгиллатмади, аксинча, ҳисоб-китобларда айрим чалкашликларни юзага келтирди.

Янги тартибда бухгалтерия ҳисобидаги ушбу ўзгаришлар хўжалик юритувчи субъектларда қуйидаги муаммоларни вужудга келтирди:

1. Инвентарлар ва хўжалик жиҳозларини ишлатиш жараёнида харажатлар сарфланади ва улар ишлаб чиқарилаётган маҳсулот таннархида ўз аксини топади. Инвентар ва жиҳозлар фойдаланишга берилганда уларнинг қийматини 100% харажатга олиб борилиши эксплуатация қилиш харажатларини назорат қилишни сусайтиради, бу эса бухгалтерия ҳисобида ноаниқликни келтириб чиқаради.

2. Бухгалтерия ҳисобида сарфланган инвентар ва хўжалик жиҳозлари қийматининг тўлиқ ҳисобдан чиқарилиши, асосий маҳсулот таннархини ошишига олиб келади.

3. Бухгалтерия ҳисобининг балансдан ташқари счетлари мазмунига кўра корхонага тегишли бўлмаган мулк ва бошқа активларни ҳисобга олишга мўлжалланган. Шунинг учун ҳам ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланилаётган ўзига тегишли инвентар ва хўжалик жиҳозларини мазкур счетларда ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ эмас.

Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун дастлаб инвентар ва хўжалик жиҳозларини асосий воситалар таркибида ёки жорий активлар таркибида ҳисобга олиш масаласини ҳал қилиш лозим.

Ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланиладиган инвентар ва хўжалик жиҳозларини уч гуруҳга ажратиш лозим:

1. Ишлаб чиқариш жараёнида бир йилгача фойдаланиладиган инвентар ва хўжалик жиҳозлари;

2. Ишлаб чиқариш жараёнида уч йилгача фойдаланиладиган инвентар ва хўжалик жиҳозлари;

3. Ишлаб чиқариш жараёнида уч йилдан кўпроқ фойдаланиладиган инвентар ва хўжалик жиҳозлари.

Биринчи гуруҳга кирувчи инвентар ва жиҳозлар фойдаланишга берилганда унинг қийматини тўлиқ харажат сифатида тан олиш зарур.

Иккинчи гуруҳга кирувчи инвентар ва хўжалик жиҳозларини эса эскириш ҳисоблаш орқали ҳисобдан чиқариш лозим. Бунда “Тудвилл”ни ҳисобдан чиқариш тажрибасига асосланиш, яъни инвентар ва хўжалик жиҳозларини ҳисобга олувчи счетларнинг кредитида уларнинг фойдаланиш муддатларидан келиб чиқиб эскириш ҳисоблаш зарур.

Учинчи гуруҳга кирувчи инвентар ва хўжалик жиҳозларини уларнинг қийматидан қатъи назар, асосий восита сифатида ҳисобга олиш ва эскириш ҳисоблаш орқали уларнинг қийматини харажат сифатида тан олиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Ушбу таклифлар фойдаланишга берилган, аммо ишлатиш муддати тугамаган инвентарлар ва хўжалик жиҳозларини балансдан ташқари счетларда ҳисобга олишга заруратини қолдирмайди. Энг асосийси, бу хўжалик муомалаларининг ўз мазмунига зид равишда бухгалтерия ҳисобининг балансдан ташқари счетларида ҳисобга олишга барҳам берилади. Чунки,

юқорида таъкидланганидек, корхона балансан ташқари счетларда ўзига тегишли бўлмаган моддий қийматликларни ҳисобга олиши лозим.

Шундай қилиб, фойдаланишга берилган инвентар ва хўжалик жиҳозлари қийматини харажат сифатида тан олиш бўйича берилган тавсиялар бухгалтерия ҳисобининг аниқлилик, объективлик ва мувофиқлик тамойилларига амал қилишни таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари. - Т.: ЎБАМА. 2000. -209 б.
2. Богаченко В.М. Основы бухгалтерского учета. - Ростов на/Д: Феникс, 2013. - 336 с.
3. Jo'rayev N. Abduvaxidov F. Sotivoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –Т.: 2012, - 480 б.
4. Кондраков Н.П.: Бухгалтерский учет. - М.: ИНФРА-М, 2012. -420 стр.
5. Сатывалдыева Д.А. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. -Т.: «Инновацион ривожлатириш нашриёт -матбаа уйи» 2022. -340с.
6. Сатывалдыева Д.А. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. -Т.: «IQTISODIYOT», 2023. -248 с.
7. Эргашева Ш. Т., Темиров Ф. Т, ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. Т. 2016 й

Хамдамов Баҳром Касимович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
профессори, иқтисод фанлари доктори

"МАСОФАВИЙ АУДИТ" АВТОМАТЛАШГАН МА'ЛУМОТЛАР ТИЗИМИ ВА УНИНГ АХАМИЯТИ.

Мақолада масофавий аудит информацион тизимини ташкил қилиш зарурлиги асосланган ва ушбу тизимни яратиш йуналишлари белгилаб берилган. Назорат масалахатчи аудиторлик тизимини фаолияти ва уни аудиторлар меҳнат унумдорлигини ошириш омили сифатидаги ўрни таҳлил этилиб, тегишли тавсиялар берилган.

Таянч сўзлар: Масофавий аудит, назорат масалахатчи аудиторлик тизими (НМАТ), аудит, тафтиш, эксперт-консультация фаолияти, суд-бухгалтерия экспертизаси, шартли меҳнат унумдорлиги

АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ СИСТЕМА «ДИСТАНЦИОННЫЙ АУДИТ» И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ.

Хамдамов Баҳром Касимович
Ташкентский государственный экономический
университет, профессор, доктор экономических наук

В данной статье рассматриваются вопросы необходимости и пути создания автоматизированных дистанционных аудиторских систем.

Пранализирована деятельность контрольно – консалтинговых аудиторских систем и её воздействие как фактор на повышение производительности труда аудиторов, даны рекомендации по совершенствованию данной системы.

Ключевые слова: Дистанционный аудит, контрольно – консалтинговые аудиторская система, аудит, ревизия, экспертно-консультационная деятельность, судебно-бухгалтерская экспертиза, условная производительность труда.

AUTOMATED INFORMATION SYSTEM "REMOTE AUDIT" AND ITS VALUE.

Hamdamov Bahrom Kasimovich
Tashkent institute of finance
professor, doctor of economics

This article discusses the necessity and ways of remote audit systems. The activity of control and consulting audit systems and its impact as a factor in increasing the productivity of auditors are analyzed, recommendations for improving this system are given.

Keywords: remote audit, control and consulting audit system, audit, audit, expert consulting activities, forensic accounting expertise, conditional labor productivity.

КИРИШ

Самарали аудит тизимини яратиш, рақамли аудитни ривожлантириш орқали амалга ошади. Республикамизда "Масофавий аудит" автоматлашган ма'лумотлар тизими яратилди. Бу тизими 34 та вазирлик ва маҳкамаларни уз ичига олди. Натижада 2024 йилда, янги манбаларга таяниб, ҳисоб палатаси давлат бюджетига 3,7 трлн сум қушимча тушимни та'минлади, 2,7 трлн сум қайд этилмаган молиявий маблаг аниқланди. Давлат харидлари тизимида 4,5 трлн. сум миқдорида камомадлар аниқланди ва баргараф этилди. (Sputnik.Uz. 2021.01. Ташкент).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 10.07.2024 й. ПФ . № -100 "Бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан молиявий назоратни кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар" тўғрисидаги фармони қабул қилинди. Ушбу фармонда масофавий назорат тизимини ташкил қилиш юзасидан аниқ курсатмалар берилди. Шу мақсадда ҳисоб палатасининг "Масофавий аудит" ма'лумотлар тизимига 110 вазирлик ва маҳкамаларнинг ма'лумотлар базаси интеграциялашади. Бу 480 триллион сум бюджет харажатлари мониторингини камраб олади. (Sputnik.Uz. 2021.01. Ташкент).

Бунда ихтисослашган маслаҳатчи бўғин яратилиши зарур. Бу тузилмани «назорат маслаҳатчи аудиторлик тизимлари (НМАТ)» деб аташ мумкин. НМАТ аудиторлик объектларининг қуйидаги гуруҳларига мўлжаллаб ташкил қилиниши мақсадга мувофиқ:

- бухгалтерия ҳисоби қўлда юритиладиган объектлар;
- бухгалтерия ҳисоби компьютерлар қўллаб юритиладиган объектлар.

Бу ерда, компьютер файлларининг мазмунини ташкил қилувчи бирламчи бухгалтерия ҳужжатларининг асосий қисми қайта ишланади. Бу ҳолатда НМАТ нинг файлларидан фойдаланиши мумкин. Бу эса, ўз навбатида, аудитни бажариш учун қилинаётган харажатларнинг қисқаришига, унинг аниқлиги ва оперативлигини оширишга имкон беради.

Агар, мижознинг бухгалтерия ҳисоби автоматлаштирилган бўлса, у ҳолда аудитор ўз вазифаларини бажаришда «Маълумотларнинг компьютер ишланмаси шароитида аудит» номли аудит халқаро стандартидан фойдаланиши лозим.

Худди шу стандарт НМАТ ишлаб чиқувчи фаолиятга ҳам асос қилиб олиниши керак, чунки бу стандарт унга автоматлаштирилган бухгалтерия тизимининг хусусиятларини тўғри ҳисобга олиш имконини беради. Бундан ташқари, стандарт мижознинг ҳисобга доир маълумотларини компьютерда қайта ишлашни ташкил қилиш шаклини аниқлаш бўйича ишларни тартибга солишга ёрдам беради. Шу билан бирга бунда маълумотларни қайта ишлашнинг марказлашган даражасини аниқлаш зарур: маълумотлар маҳаллий компьютерларда ёки тизимга уланган компьютерларда қайта ишланади.

Бу саволларга жавоблар мижозларнинг маълум бир гуруҳларини тўла тенглаштириб, НМАТни ташкил қилишнинг стратегиясини белгилаб беради. Бироқ, аудиторлик тизимни ташкил қилишнинг имконли стратегияларини изоҳлашдан аввал, бундан қандай вазифалар олдига қўйилишни аниқлаш зарур.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРХИ

Аудит бу тафтиш фаолияти деган нуқтаи назарда А.Ф.Аксёненко, Ю.А.Данилевский, В.М.Родионов, А.Я.Руф, А.К.Солодов, К.Л.Угольников туришибди.

Профессор А.Ф.Аксёненконинг фикрича, аудит бухгалтерия ҳисобини юритиш жараёнини ва турли мулкчилик шароитида хўжаликлар молиявий ҳисоботини белгиланган қонунларга мослигини текшириш эканлиги билдирилган.

Бизнинг фикримизча, бу ҳолда асос сифатида аудитнинг мақсади - турли мулкка асосланган корхоналар молиявий ҳисоботларини ва ҳисоботни юритишни текшириш тушунилади. Шу билан бирга аудит фақат ҳисобот ва ҳисобни юритилишини текшириш билан чегараланмайди. Аудиторлик назорати корхона фаолиятининг алоҳида тарафларини ўрганишга, ҳисобни юритишда кўмаклашишга, хўжалик фаолиятининг таҳлили, қабул қилинаётган бошқарув қарорларининг асосланганлигига қаратилади.

Ю.А.Данилевский аудитни йиллик молиявий ҳисоботни текширувчи мустақил назорат сифатида ва уни қай даражада белгиланган қонунларда мослигини аниқлаб, активлар, мажбуриятлар ва хусусий маблағларни акс эттирилишининг тўлаллиги, аниқлигини белгилаб берувчи восита сифатида талқин қилади.

В.И. Подольский «аудит корхона эришган молиявий натижаси, бухгалтерия ҳисобини тасдиқлаб берувчи, тафтиш ва назоратга нисбатан кенгроқ тушунча» (9), деб билади.

Кўриниб турибдики, келтирилган таърифлар, биринчидан, молиявий ҳисобот аудити ва амалга оширилган муомалалар ҳаққонийлигининг тафтиши бир хил тушунча сифатида кўрсатилган, иккинчидан, аудит давлат молиявий назоратининг кўриниши сифатида берилган. Бизнинг фикримизча, бундай ёндошишни конструктив деб ҳисоблаб бўлмайди, чунки бу МДХ давлатларида аудит амалиётини жуда соддалаштириб кўрсатади ва шу билан бирга Ўзбекистон иқтисодидаги амалга оширилаётган йирик ташқи иқтисодий алоқалар талабига жавоб бермайди. Шу билан бирга таҳлил қилинаётган аудит тўғрисидаги фикрлар - қонуний жараёндир, чунки ҳозирги кунда Ўзбекистонда аудит чет давлатлардаги аудит тараққиёти эволюциясининг биринчи босқичидаги назарий фикрлар таъсири остида ва собиқ Иттифоқнинг назорат ва тафтиш тажрибасида ривожланмоқда.

Аудитни экспертиза-консультация фаолияти сифатида талқин қилувчи олимлар қаторига Е.А.Стойнов, Е.С.Стойнова, П.И.Камышановларни киритиш мумкин. Масалан, Е.А.Стойнов ва Е.С.Стойнова чет эл тажрибасини ўрганган ҳолда аудитни комплекс иқтисодий таҳлил билан таққослашмоқда.

Профессор П.И.Камышанов «аудитни бизнесни экспертиза қилувчи восита» (10) сифатида талқин қилади.

НАТИЖАЛАР ВА МУХОКАМА

Ўзбекистонда масофавий аудит тизими бюджет назорати буғинида давлат ижро ҳокимиятининг вазирлик ва маҳкамалари, қонун чиқарувчи ҳокимиятда ҳисоб палатасида ташкил қилинди. Ушбу тизим бюджет маблағларини самрали ишлатилиши, сақланишини таминлашда аҳамияти катта ва яхши натижалар бермоқда. Шу ўринда аудит назарияси ҳали амалий малакаларни умумлаштирувчи илмий асослар ва ғоялар тизими сифатида шаклланмаганлиги сабабли, назорат- маслахатчи аудиторлик тизимининг (НМАТ) назарияси ҳақида ҳам гапириш эрта, деб ҳисоблаймиз. Бу ерда гап фақат НМАТни ташкил қилиш ва иш юритишининг асоси бўлган назариясининг баъзи бир жабҳалари ҳақидагина бориш мумкин.

Аудиторлик тизимларини ташкил қилишнинг асосларини кўриб чиқишдан аввал, аудит қуйидаги фаолият турлари билан узвий боғлиқликда эканлигини инобатга олиш керак:

- Иқтисодий таҳлил;
- Молиявий-хўжалик фаолиятининг тафтиши;
- Суд-бухгалтерия экспертизаси.

Аудит умумлашган фан бўлиб, юқорида кўрсатилган ҳар бир фаолият турининг иш юритиш услуби ва усулларини ўз ичига қисман олади.

Корхоналарнинг самарадорлик нуқтаи назаридан қараладиган хўжалик жараёнлари иқтисодий таҳлилнинг предмети ҳисобланади. Унинг ташкилий қисмларидан бири - молиявий таҳлил бўлиб, у фақат бухгалтерия ҳисоботини қамраб олади. Бу шароит молиявий таҳлилни корхонага қизиқиши бўлган контрагентлар билан ташқи алоқа соҳасига олиб чиқади.

Молиявий-хўжалик фаолиятнинг тафтиш предмети бўлиб, қонунийлик нуқтаи назаридан қараладиган жараёнлар ҳисобланади. Охириги вақтларда аудиторлик ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган назоратнинг янги

кўринишлари пайдо бўлди, бироқ молиявий-хўжалик фаолиятини тафтиш қилиш назоратнинг асосий шаклларида бири бўлиб қолмоқда. Тафтишнинг асосий вазифаси корхона фаолиятининг барча бўлимларини батафсил ва чуқур текшириш ҳисобланади.

Назорат-тафтиш ишининг услублари ўзига хос бўлиб, уларни бир неча гуруҳга ажратиш мумкин: тасдиқловчи ҳужжатлар ва ёзувларни текширишга мўлжалланган услублар; рўйхатдан ўтказиш ва назорат текшириш учун қўлланиладиган услублар; тафтишчиларнинг таҳлилий иш услублари.

Суд-бухгалтерия экспертизасининг предмети бўлиб, ноқонуний ҳатти-ҳаракатларга йўл қўйилганлиги ҳақидаги ҳужжатлар хизмат қилади.

Бундай экспертизанинг ўзига хослиги шундайки, тафтиш даврида тафтишчи олдида жиноий иш предмети бўлиб, қолган ҳужжатларни ўрганиш вазифаси қўйилади.

Айтиб ўтганимиздек, аудитнинг предмети - ҳисоботнинг ҳаққонийлиги ва унинг қонунийлигини тасдиқлаш, шунингдек, корхона фаолиятининг ҳақиқий шароитини аниқлаш ҳисобланади. Шундай қилиб, аудиторлик фаолиятнинг бу турлари билан нафақат бевосита боғлиқ, балки уларнинг фарқи ҳам бор. Бу фарқларни кўриб чиқамиз.

Аудит ва иқтисодий таҳлил. Иқтисодий таҳлилнинг асосий вазифаси - корхона шароитини объектив баҳолаш, шу шароитга тушишига сабаб бўлган омилларни аниқлаш, ҳақиқий кўрсаткичларнинг режасидан оғишини ҳисоблашдан иборат. Аудитор эса бу вазифасини нафақат бажариш, балки корхона молиявий-хўжалик фаолиятини яхшилаш учун йўл кўрсатиши, корхона ходимларига кейинги даврда уларни ҳатти-ҳаракатлари қандай бўлиши кераклиги ҳақида маслаҳат бериши зарур.

Аудит ва иқтисодий таҳлилнинг умумий соҳаси фойдаланувчиларни молиявий фаолиятни яхшилаш бўйича маълумотлар билан таъминлашга қодир бўлган НМАТни яратишни объектив талаб қилади.

Аудит ва тафтиш. Тафтиш предмети - ишлаб чиқариш-хўжалик фаолиятини қонуний ва ҳаққоний акс эттиришдир. Аудит предмети тафтиш билан солиштирганда сал кенгроқ бўлиб, бу мулк ва моддий захиралари билан боғлиқ муомалаларнинг нафақат қонунийлиги, балки солиққа тортиш, пенсия таъминоти, мол-мулкни баҳолаш, хўжалик юритишнинг самаралилиги масалалари ҳамдир. Аудитор доимо у ёки бу муомаланинг қонунийлиги фактини қайд қилиб эмас, балки хўжалик муомалалари жараёнларини миждозга ёрдам нуктаи назаридан кўриб чиқади.

Аудит ва суд-бухгалтерия экспертизаси. Суд-бухгалтерия экспертизаси тафтишнинг бир қисми бўлгани сабабли, аудит билан назорат муолажаларининг янада камроқ миқдори билан тўқнаш келади. Экспертиза хўжалик фаолиятини ҳужжатларда расмийлаштиришнинг қонунийлиги, бузилиш фактларини қайд қилишга устувор йўналтирилган, шу билан бирга чегараланган ва ёпиқдир. Аудит ҳақида эса бундай фикр юритиш мумкин эмас.

Шундай қилиб, аудит фаолиятнинг бир неча турлари ичига, уларнинг услублари ва ташкил қилиш асосларини синтезлаштириб кириб боради.

Аудитда, иқтисодий таҳлилда, тафтиш ва суд-бухгалтерия экспертизасида умумий соҳаларнинг мавжудлиги, барча кўрсатиб ўтилган тавсифларга эга бўлган НМАТни ташкил қилишни талаб қилади.

Бундай турдаги тизим ташкилий тузилма нуқтаи назаридан, бажариш вазифалари турлича бўлган иккита қисмдан ташкил топиши лозим. Иқтисодий таҳлил ва тафтиш турли мақсадларни кўзлагани каби, НМАТ ҳам бир томондан, назорат қилиш, иккинчи томондан эса маслаҳат бериш учун мўлжалланган. Бунда НМАТ ташкил қилиш асослари шундай бўлиши керакки, унинг қисмларидаги қарама-қарши мақсадларга самарали эришиш таъминланиши керак. Бундай асосларга:

- Умумтизим қисмини яратиш учун: а) комплекслилик; б) ахборот сақлашнинг ягона тизими;

- Назорат қилувчи қисмни яратиш учун: а) аудиторлик хатолари пайдо бўлиши таваккалчилигининг энг камлиги (минимуми); б) маълумотларни минимал, лекин етарли даражада киритиш; в) аудиторлик ҳисоботларини ташкил қилиш схемаларининг бирлиги ва келишилганлиги;

- Маслаҳат берувчи қисмни яратиш учун: а) натижаларни таққослаш; б) натижаларнинг мақсад сари йўналтирилиши; в) натижалар ноаниқлигининг минимуми кабилар киради.

Комплекслилик принципи турли ахборот тизимини ташкил қилишда умумқабул қилинган бўлиб, реал жараёнлар (бу шароитда аудит моделини) умумий моделини ишлаб чиқишни назарда тутди. Умумий модел тизим тузилишининг асосий мақсадларини, чегараларини, хўжалик жараёнларини бухгалтерия ҳужжатларида қайд қилиш усулларини акс эттириши лозим. Умумтизим моделининг мавжудлиги аудит вазифалари, назорат муолажалари ва услублари, бирламчи бухгалтерия ҳужжатлари ўртасидаги боғлиқликни ўрнатиш имконини беради.

Ташқи аудитнинг мақсадларини таҳлил қила бориб, назорат қилувчи аудитнинг қуйидаги вазифаларини ажратиб кўрсатиш мумкин: тайёр маҳсулот ҳисоби ва уни сотиш аудити; ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот таннархи калькуляциясининг аудити; устав капитали ва таъсисчилар билан ҳисоб-китоблар аудити; меҳнат ва иш ҳақи бўйича ҳисоблашувлар аудити; моддий қимматликлар ҳисобининг аудити; пул маблағлари ҳисобининг аудити ва бошқалар.

Консультатив-маслаҳатчи аудит вазифаларига қуйидагиларни киритиш мумкин: Қарз воситалари стратегиясининг аудити; молиявий барқарорлик аудити; дивидендлар бўйича сиёсатнинг аудити; тўловга қобилиятлилик аудити; комплекс аудит. Бу вазифалар иқтисодий-математик моделлар билан кўрсатилиб, одатда, математик дастурлаштириш ва ноаниқ мантиқ услублари ёрдамида ўз ечимини топади.

НМАТнинг қоидалар манбаидан фойдаланишнинг иккита имконияти мавжуд:

- талабларга мос келадиган ташқи ахборот билимлар манбаи тизим қоидаларига асосан қайта ишланади ва олинган натижа натижавий файлларга юборилади;

- талабларга мос келувчи ташқи ахборот, аввало, фактлар манбаига жойлаштирилади. У аудитор томонидан, тизим билан мулоқоти охиридагина мос қоидалар ёрдамида қайта ишланади. Аудиторлик ҳисоботи бунда қисмлар билан эмас, балки тўла таркиб топади.

Аудитни бажариш модули - тизим ишини бўлимларга ажратиш, экранга стандарт ва стандарт бўлмаган ойналарни чиқариш, аудиторлик хулосаларни ташкил қилиш ва таҳрир қилиш учун белгиланган.

Бу модулни ишлаб чиқиш аудиторлик назорат функцияларини бажариш стратегиясини танлашни назарда тутати. НМАТни ташкил қилишда иккита стратегия мавжуд бўлиб, уларни танлаш икки қарама-қарши мезонга асосланади:

- бошланғич маълумотларни киритишда харажатларни минималлаштириш;

- молиявий ҳужжатларда хато бўлган ҳаракатларни ўтказиш таваккалчилигини минималлаштириш.

ҲУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР:

Шундай қилиб, аудит фаолиятининг бу тури ва келтирилган йўналишлар нафақат бевосита боғлиқ, балки уларнинг фарқлари ҳам мавжуд. Ушбу фарқлар аудит, иқтисодий таҳлил, тафтиш ва суд-бухгалтерия экспертизасида умумий соҳаларнинг мавжудлиги барча кўрсатиб ўтилган тавсифларга эга бўлган назорат маслаҳатчи аудиторлик тизимларини (НМАТ) ташкил қилишни талаб қилади.

НМАТни ташкил қилишнинг стратегиясини белгилаш ва қандай вазифалар олдига қўйилиши аниқлаш зарур. Буларни ечишга мўлжалланган НМАТнинг таъминловчи қисми, яъни ахборот ва дастурий таъминот умумлаштириб, яратилиши зарур.

Шуни алоҳида қайд этиб ўтиш мақсадга мувофиқки, НМАТни ташкил қилишни иккита стратегия асосида олиб бориш ва уларни танлашнинг мезонлари ишлаб чиқиш керак бўлади.

Аудит иқтисодий таҳлил, молиявий-ҳўжалик фаолиятининг тафтиши ва суд-бухгалтерия экспертизаси каби фаолият турлари билан узвий боғлиқликда эканлигини инобатга олиб, назорат маслаҳатчи аудиторлик тизимлари (НМАТ) қониктирадиган асосларни аниқлашда юқоридаги фаолият турлари предмети ва таклиф қилинаётган тизим ўртасидаги боғлиқлик ўрганилиши мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2017. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.

2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. (yangi tahrir) - T., 2021.

3. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni.

4. “Byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 07. PF 100-sonli Farmoni.

5. Mirziyoev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent ; “ O’zbekiston” 2017 - 488b.
6. Mirziyoev Sh.M Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent ; “ O’zbekiston” 2017 - 104b.
7. “O’zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ 3946-sonli Qarori.
8. “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga o’tishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ 4611-sonli Qarori.
9. В.И Подольский. Аудит. –М., ЮНИТИ, 2006.
10. П.И.Камышанов. Знакомьтесь: Аудит (Организация и методика проверок). –М., ИВЦ «Маркетинг», 1994.
11. Хамдамов Б.Қ., Остоноқулов А.А. Бюджет назорат: Ўқув қўлланма. -Т.: Тошкент Молия институти, 2018 йил. 310 бет.
12. Хамдамов Б.Қ. Ўзбекистон иқтисодида аудит муаммоси // Хўжалик ва ҳуқуқ. - Тошкент, 1997. -№4. Б.36-39.
13. <https://president.uz> - официальный сайт Президента Республики Узбекистан.
14. <https://www.lex.uz>
- 15.. <https://www.mf.uz>
16. <https://www.stat.uz> - Г
17. <https://www.deloitte.com> - Deloitte & Touche
18. <https://www.pwc.com>. - Pricewaterhouse Coopers чебник. –Т.: Iqtisodiyot, 2021. 305 с.

Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna
Tashkent State University of Economics
Accounting and audit 4th year student
E-mail: hamroyevasevinch1@gmail.com

UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO "GREEN ACCOUNTING": EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES

Abstract. Green accounting is a new way of including environmental costs in financial decisions, which can greatly help promote sustainable development. This article looks at the significance, challenges, and opportunities of using green accounting in Uzbekistan, a country currently making important changes to its economic and environmental policies. Green accounting is vital for a country's overall growth, especially given the issues of resource depletion and environmental harm. By aligning with global sustainability trends, Uzbekistan can improve its international competitiveness and attract eco-friendly investments. This article contributes to the conversation about sustainable development in Uzbekistan by

analyzing how green accounting could transform the country's economy. Through a thorough review of current literature and practical studies, the article highlights both the theory and practice of implementing green accounting in Uzbekistan. It also offers recommendations for overcoming challenges and maximizing opportunities for sustainable economic growth.

Key words: green accounting method, energy industry, sustainable development, environmental policies, the IFRS S1 and S2 Sustainability Disclosure Standards.

INTRODUCTION. Green accounting, which integrates environmental costs into traditional financial accounting, is becoming increasingly crucial in addressing sustainable development goals. In Uzbekistan, a country rich in natural resources yet facing significant environmental challenges, the adoption of green accounting presents both obstacles and opportunities. Transitioning to sustainable development is becoming a global demand, urging countries worldwide to reconsider their economic models from an environmental sustainability perspective. One of the innovative approaches that has gained significant attention is green accounting. This method expands traditional accounting systems by including environmental costs related to economic activities. Green accounting acknowledges that natural resources are not unlimited and that environmental degradation can lead to serious economic consequences. It aims to provide a more comprehensive understanding of a country's economic health.

This article focuses on Uzbekistan, a country with rich natural resources and a growing economy. It explores the need, challenges, and opportunities related to implementing green accounting in this context. In Uzbekistan, which has the largest population in Central Asia, rapid economic growth has been observed over the last decade. However, this growth has resulted in significant environmental costs, such as water scarcity, soil degradation, air pollution, and the loss of biodiversity.

Additionally, in the draft resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the accounting system and encourage its transition to International Financial Reporting Standards," tasks have been outlined to introduce the practice of "green accounting," a method of measuring and reporting the environmental impact of economic activities. Therefore, conducting scientific research on the prospects of organizing and maintaining "green accounting" in our country is one of the most pressing issues today.

These issues not only represent environmental problems but also have direct and indirect economic impacts on the country's agriculture, industry, and healthcare sectors. Therefore, there is a necessity to adopt an economic system in Uzbekistan that adequately takes into account these environmental costs to ensure sustainable development.

LITERATURE REVIEW. Green accounting, also known as environmental accounting, has gained a lot of attention in both international and national discussions. It focuses on including environmental issues in financial and economic decisions. This overview looks at how green accounting has developed, the challenges in applying it, and the specific opportunities it offers in Uzbekistan.

Uzbekistan's shift toward green accounting is framed within a broader global movement aimed at integrating environmental considerations into economic decision-making. This transition is critical, given the increasing emphasis on sustainability and the urgent need to address environmental degradation. Recent studies highlight the significance of green accounting as a tool for promoting sustainable development and improving resource efficiency (Bennett et al., 2018; Zadeh et al., 2020 [1]).

In the context of Uzbekistan, several scholars have identified key challenges impeding the effective implementation of green accounting practices. Issues such as insufficient regulatory frameworks, lack of public awareness, and limited technical capacity among accounting professionals have been noted (Rahimov et al., 2021; Askarov, 2022). Moreover, the existing accounting systems often fail to adequately capture environmental costs, leading to a misrepresentation of true economic performance (Turaeva, 2023). However, the literature also points to promising opportunities for Uzbekistan in this transition. The government's commitment to sustainability, as reflected in various national strategies, creates a conducive environment for adopting green accounting practices. Studies emphasize the potential for enhancing investment in renewable energy and natural resource management, which could be supported by improved accounting practices (Shaykhutdinov, 2021; Karimova & Tashkentov, 2022). Furthermore, international cooperation and knowledge exchange with countries that have successfully implemented green accounting frameworks could provide valuable insights for Uzbekistan's strategy (Javlonov, 2023).

Overall, the existing literature underscores both the challenges and opportunities that Uzbekistan faces in its journey toward green accounting. Addressing these issues through a multi-faceted approach could pave the way for more sustainable economic practices and contribute to the country's long-term environmental goals.

ANALYSIS AND RESULTS. The analysis revealed that Uzbekistan is at the early stages of adopting green accounting principles. The existing accounting framework primarily focuses on traditional financial reporting, with limited integration of environmental costs or sustainable practices. While there have been some legislative initiatives aimed at promoting environmental responsibility, such as the adoption of the Strategy for the Transition to a Green Economy for 2019–2030, green accounting principles are not yet fully integrated into national accounting standards of Uzbekistan.

The transition to green accounting in Uzbekistan faces several obstacles:

Institutional Gaps: There is a lack of clear regulatory frameworks and standards specific to green accounting. The absence of detailed guidelines on how businesses should account for environmental costs and benefits is a major barrier to wider adoption. *Lack of Expertise:* Many professionals in the accounting field lack training in environmental economics or green accounting methodologies. This skills gap limits the ability of firms to adopt environmentally sustainable reporting practices.

Data Availability and Transparency: Data on environmental impacts (such as emissions, resource consumption, and waste) is not systematically collected or

reported by most industries. Without reliable data, integrating environmental factors into accounting practices becomes challenging.

Economic Priorities: Uzbekistan is still heavily focused on economic growth, with energy and resource-intensive industries such as agriculture and mining being dominant sectors. This focus makes it difficult to prioritize green initiatives, which may be perceived as costly or as a hindrance to short-term economic goals.

Despite the challenges, there are significant opportunities for Uzbekistan to accelerate its transition to green accounting:

Government Commitment to Sustainability: Uzbekistan has demonstrated increasing commitment to environmental sustainability, as seen in its Green Economy Strategy, which highlights the need for integrating environmental concerns into economic decision-making. This provides a conducive policy environment for green accounting reforms.

International Cooperation: Uzbekistan's partnerships with international organizations such as the World Bank, the UNDP, and the Global Green Growth Institute offer access to financial resources, technical expertise, and best practices from other countries that have successfully implemented green accounting.

Technological Advancements: Advances in digital accounting systems and environmental data tracking offer Uzbekistan the potential to leapfrog some of the barriers, such as manual reporting and data collection. These technologies can help firms to integrate environmental data into their financial statements more easily and accurately.

Growing Interest in Sustainable Development: There is a growing awareness among businesses and the public about the importance of sustainable development. Several private companies, especially in sectors like renewable energy and eco-tourism, are beginning to adopt more sustainable practices and might act as early adopters of green accounting principles. A review of pilot projects and case studies within Uzbekistan shows that sectors such as renewable energy and water resource management are beginning to experiment with integrating environmental costs into their accounting systems. For example, some renewable energy projects have started reporting on carbon savings, and agricultural projects have assessed the economic value of water conservation practices. These pilot initiatives highlight both the potential benefits and challenges of adopting green accounting on a larger scale. In organizing green accounting in the Republic of Uzbekistan, it is advisable to follow the stages below (Figure 1)




Figure 1. Stages of organizing green accounting in Uzbekistan

By following the stages mentioned above, the organization and implementation of green accounting in Uzbekistan will enhance the country's environmental sustainability and ensure stable economic growth. IFRS S1 provides a global framework for sustainability disclosures, emphasizing materiality and comparability (IFRS Foundation, 2022). Uzbekistan could benefit from adopting similar standards to ensure that environmental and social risks are systematically integrated into financial reporting, improving transparency for investors and stakeholders.

IFRS S2 mandates companies to disclose climate-related risks, including governance, strategy, and metrics for assessing climate impacts (IFRS Foundation, 2022). For Uzbekistan, integrating these requirements into its accounting standards could help align the country's sustainability efforts with global benchmarks, particularly in sectors vulnerable to climate risks like agriculture and energy.

IFRS S1, which outlines general requirements for sustainability-related disclosures, could help Uzbek businesses and industries report material environmental risks (e.g., resource use, pollution levels, and biodiversity impacts). This would improve the transparency and accountability of firms operating in key sectors such as agriculture, mining, and energy, ensuring that environmental risks are integrated into corporate financial reports.

Climate-related risks are a core focus of Uzbekistan's Green Economy Strategy, which aims to reduce carbon emissions and increase the share of renewable energy to 25% by 2030. The application of IFRS S2 (Climate-related Disclosures) would ensure that firms disclose the financial impact of climate change on their operations, helping to align business practices with national climate goals.

CONCLUSION. Uzbekistan's transition to green accounting is a crucial step toward achieving its sustainable development goals, especially as the country faces significant environmental challenges amid rapid economic growth. While the

journey toward fully integrating environmental costs into the national accounting framework is still in its early stages, there are clear opportunities for progress.

1. The Green Economy Strategy for 2019–2030 provides a strong policy foundation for this transition, emphasizing the need for Uzbekistan to adopt environmentally responsible economic practices. However, several obstacles remain, including institutional gaps, a lack of expertise, and limited data availability. Without robust regulatory frameworks and a comprehensive system for collecting environmental data, the integration of environmental and financial accounting remains challenging. Moreover, the country's current focus on energy-intensive industries such as agriculture and mining creates tension between short-term economic gains and long-term environmental sustainability.

2. Despite these challenges, there are significant opportunities that could accelerate Uzbekistan's shift toward green accounting. The government's commitment to sustainability and international cooperation with organizations such as the World Bank and UNDP can provide the necessary financial and technical support to develop green accounting frameworks. Additionally, technological advancements in digital accounting and environmental data tracking offer potential solutions to the existing data collection and reporting challenges. Furthermore, the growing interest in sustainable development within Uzbekistan's business sector, particularly in renewable energy and eco-tourism, could position key industries as early adopters of green accounting principles.

The application of IFRS S1 and IFRS S2 standards presents a promising path forward. These international frameworks for sustainability and climate-related disclosures could help Uzbekistan align its accounting practices with global benchmarks, ensuring greater transparency and accountability in how environmental risks are integrated into financial reports.

3. By adopting these standards, the country can improve investor confidence, attract foreign investment, and better manage climate-related risks in sectors such as agriculture and energy, which are vulnerable to the impacts of climate change. In conclusion, while Uzbekistan faces notable challenges in its transition to green accounting, the combination of government commitment, international cooperation, and evolving technologies presents a pathway for overcoming these obstacles. By integrating environmental considerations into its accounting systems, Uzbekistan can not only meet its sustainable development goals but also secure a more resilient and diversified economy for the future.

4. By effectively utilizing the stages of organizing and maintaining green accounting in Uzbekistan, there will be an opportunity to significantly increase the reliability and accuracy of financial reports prepared based on the national accounting standards of our country.

REFERENCES

1. Bennett, M., James, P., & Inderjit, S. (2018). *Sustainability Accounting: Theory and Practice*. Green Press.

2. Askarov, A. (2022). Barriers to Implementing Green Accounting in Uzbekistan: Challenges and Solutions. *Journal of Environmental Accounting*, 15(3), 45-60.

3. Javlonov, B. (2023). International Cooperation in Green Accounting: Lessons for Uzbekistan. *Environmental Policy Review*, 29(2), 78-89.

4. Karimova, N., & Tashkentov, R. (2022). Integrating Environmental Costs into National Accounting: A Case Study of Uzbekistan. *Asian Journal of Environmental Studies*, 11(1), 15-30.

5. IFRS Foundation. 2022. IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. International Financial Reporting Standards. Accessed October 10, 2024. <https://www.ifrs.org>.

6. IFRS Foundation. 2022. IFRS S2: Climate-related Disclosures. International Financial Reporting Standards. Accessed October 10, 2024. <https://www.ifrs.org>.

*Исроилов Исломжон Фуломжонович,
НамМТИ таянч докторанти.*

ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ

Аннотация. Мақолада ички назорат тизимининг шаклланиши, функциялари ва ташкил этилиши ёритиб берилган. Бундан ташқари иқтисодий олимларнинг ички назорат бўйича турли хил ёндашувлари ва фикрлари қисқача баён этилган. Шунингдек, ички назоратни амалга ошириш учун университетларда махсус бўлимлар ташкил этилиши бўйича кўрсатмалар берилган.

Калит сўзлар: Ички назорат, назорат муҳити, хавфни баҳолаш жараёни, ахборот тизимлари, назорат тадбирлари, бошқарув воситаларининг мониторинги, бошқарув функцияси, ахборот-коммуникация технологиялари.

Аннотация. В статье рассмотрены формирование, функции и организация системы внутреннего контроля. Кроме того, кратко описаны различные подходы и мнения ученых-экономистов по вопросам внутреннего контроля. Также даны указания о создании в вузах специальных подразделений для осуществления внутреннего контроля.

Ключевые слова: Внутренний контроль, контрольная среда, процесс оценки рисков, информационные системы, меры контроля, мониторинг средств контроля, функция управления, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract. The article describes the formation, functions and organization of the internal control system. In addition, various approaches and opinions of economic scientists on internal control are briefly described. Also, instructions were given on the establishment of special departments in universities for the implementation of internal control.

Key words: Internal control, control environment, risk assessment process, information systems, control measures, monitoring of management tools, management function, information and communication technologies.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида сифатли ва рақобатбардош мутахассислар

тайёрлаш борасида кўплаб чора-тадбирлар амалга ошириш билан бирга олий таълим муассасаларида ички назоратни такомиллаштиришга ҳам алоҳида эътибор қаратиш белгиланган.

Ўқув жараёнини такомиллаштириш билим беришдан тортиб профессор-ўқитувчиларни малака талабларигача бўлган ўқув жараёнини барча талабларини бажаришни ўзида қамраб олувчи ички назоратни ташкил этиш ва услубиятини ишлаб чиқишни тақозо қилади. Чунки замонавий таълим рақобатдош устунликларни сақлаб қолиш учун замонавий технологияларни доимий равишда жорий этишни тақозо қилади. Ҳозирги кунда асосий эътибор таълим жараёнини қаратилган ва бу жараённи бошқаришнинг назорат каби фундаментал функцияси эса деярли унутилган.

Олий таълим тизимидаги ўқув жараёнининг кўп қиррали ва мураккаб архитектураси унинг ахборот-коммуникация технологиялари ва инсон ресурсларини ҳам қамраб олувчи барча механизмларини юқори сифатда фаолият кўрсатишини тақозо қилади. Бу эса ўз навбатида, ушбу тизимда амалга оширилган жараёнларнинг бутун мажмуасини диверсификация қилиш имконини берадиган ички назорат тизимини такомиллаштиришга олиб келади. Тўғри ташкил этилган ички назорат тизими ушбу жараённи замонавий истеъмолчилар талабларига жавоб берадиган ва юқори даражада амалга ошириш ҳамда уни қўллашдан кўзланган ижобий натижага эришиш имкониятини яратади.

Ички назорат кенг маънода корхонанинг бошқарув органи ёки бошқа ходимлари томонидан фаолият самарадорлиги ва оқилоналиги, молиявий ҳисоботларнинг ишончлилиги, қонунлар ва қоидаларга риоя қилиш каби вазифаларни бажаришга оид маълумотлар олиш учун амалга ошириладиган жараён сифатида таърифланади.

Ички назорат ўқув жараёнининг барча босқичларини ва унинг иштирокчиларини назорат қилиш қобилиятини ўз ичига олганлиги сабабли, тўғри ташкил этилган ва жорий этилган ички назорат тизими юқори сифатли олий таълимни амалга оширишнинг асосий воситаси бўлиб ҳисобланади.

Умуман олганда ички назорат тизими одатда қуйидаги бешта асосий элементлардан иборат бўлади:

- назорат муҳити;
- хавфни баҳолаш жараёни;
- ахборот тизимлари;
- назорат тадбирлари (ҳаракат, тартиб);
- бошқарув воситаларининг мониторинги.

Хусусан, профессор М.В. Мелник ички назоратга бошқарув функцияси сифатида қараган ва унга “қабул қилинган бошқарув қарорларини асослаш, оғишлар ва ноқулай вазиятларни аниқлаш ва раҳбариятни ўз вақтида хабардор қилиш учун ташкилот фаолиятини доимий мониторинг қилиш ва текшириш тизими”, - дея таъриф берган.

Профессор А.Д. Поповани фикрига кўра, ички назорат тизимининг асосий таркибий қисмлари назорат субъекти ва объекти ҳисобланади. Шунингдек, бошқарувнинг мақсад ва вазифаларига қараб ҳам назорат субъекти

ва объекти аниқланади. Бу ҳолда ички назорат тушунчаси А.Д. Поповага кўра бошқарув назорати билан ўзаро боғланади, чунки “бошқарув назорати объектлари бюджет таълим муассасасида ички назорат тизимининг асосий йўналишларини белгилайди”.

Натижаларга кўра назорат тури хўжалик жараёни тугагандан сўнг уни амалдаги назорат стандартлари билан таққослаш асосида амалга оширилади.

Олий таълим жараёнини ички назорат қилишнинг асосий функциялари қуйидагилардан иборат:

- таркибий бўлинмаларнинг ўзаро ҳамкорлигини назорат қилиш;
- университетнинг таркибий бўлинмалари томонидан ўз хизмат мажбуриятларининг бажарилишини назорат қилиш;
- таълим жараёнини ташкил этилиши устидан назорат қилиш;
- малакали ходимлар билан таъминланиши устидан назорат қилиш;
- ўқитиш жараёни сифатини назорат қилиш;
- таълим тизимида ўқитиш жараёни мониторинги;
- таълим жараёни қоидаларига риоя этилишини назорат қилиш;
- таълим жараёнини ташкил этишда хавфларни аниқлаш.

Ички назоратни амалга ошириш учун университетларда махсус бўлимлар ташкил этилиши керак. Агар университетда шундай бўлимлар фаолият кўрсатаётган бўлса, уларни таълим жараёнини бевосита назорат қила оладиган мутахассислар билан тўлдиришлари керак. Бунинг учун назоратчи қуйидаги соҳаларда билим ва кўникмаларга эга бўлиши керак:

- ахборот-коммуникация технологияларини тушуниши;
- таълим фаолиятини тартибга солувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни билиши;
- таълим жараёни иштирокчиларининг малака талабларини билиши;
- таълим жараёни тўғрисидаги университет ректори томонидан тасдиқланган низомни билиши;
- таълим жараёнининг тузилишини амалда билиши.

Шу билан бирга, факультетдаги таълим жараёнини текширишдан университетнинг ичидаги манфаатдор бўладиган томонлар қуйидагилар бўлиши мумкин:

- таълим муассасаси раҳбари (ректор);
- ўқитиш жараёнини ташкил этувчи таркибий бўлинмани назорат қилувчи проректор;
- факултет декани ёки таркибий бўлинма раҳбари.

Таркибий бўлинма фаолиятини текшириш учун ректорнинг буйруғи билан камида уч киши ёки битта назоратчидан (бу факультетнинг контингентига боғлиқ бўлади) иборат махсус комиссия тузилади. Комиссия таркибини шакллантиришнинг бир неча йўли мавжуд:

Назорат хизмати (бўлими) ходимларидан иборат комиссия тузиш. Бу усул университетнинг ташкилий тузилмасида функцияси ички назоратни мониторинг қилиш ва бошқа таркибий бўлинмалар фаолиятини даврий текшириш бўлган махсус бўлинма мавжуд бўлган тақдирда қўлланилади;

Турли таркибий бўлинмалар ходимларидан, одатда уларнинг раҳбарлари - факултет декани, кафедра мудирлари ёки ўринбосарлари, бўлим бошлиқларидан иборат комиссия тузиш.

Юқоридаги усулларнинг ҳар бири ўзининг афзалликлари ва камчиликларига эга. Иккинчи усулда комиссия аъзолари, одатда ҳар доим ҳам бошқа бўлинмалар ходимларининг фаолиятини баҳолаш учун етарли даражада тушунча ва амалий кўникмаларга эга бўлмайди. Бироқ, бу камчиликни тўлиқ бартараф этиш мумкин.

Фикримизча, ички назоратни ташкил этиш учун таълим жараёнини ички назорати самарадорлигини оширадиган қуйидаги бир қатор чора-тадбирларни амалга ошириш зарур:

тегишли ходимлар томонидан ўз вазифаларини бажариши тўғрисидаги маълумотлар акс эттириладиган бирламчи ҳужжатлар ёки бошқа маълумот манбаларининг рўйхатини шакллантириш;

мавжуд назорат муҳитига мос келадиган назорат тартиб-қоидаларининг услубий базасини шакллантириш. Услубий база қуйидаги элементларни ўз ичига олиши мумкин: таълим муассасаси раҳбарларининг иш услубини таҳлил қилиш; университетни бошқаришда ички назоратнинг ролини раҳбарият томонидан тушуниш даражасини баҳолаш; ички назорат тизимини ташкил этиш ва уни такомиллаштириш нуқтаи назаридан раҳбарларнинг ҳаракатлари тавсифи; ички назорат бўлимининг ташкилий мақомини шакллантириш; тегишли норматив ҳужжатларни шакллантириш ва тартибларни расмийлаштириш; ходимларнинг ваколатлари ва мажбуриятларини рўйхатга олиш; ходимларни белгиланган қоидалар тўғрисида хабардор қилиш тизимининг тавсифи; раҳбарлар томонидан назорат натижасида аниқланган четланишларни ўрганиш ва улар томонидан тегишли қарорларни ўз вақтида қабул қилиш; бошқарувнинг алоқа ва ахборот воситалари билан таъминланиши тизимини ташкил этиш; молиявий ҳисоботларни тузиш ва уларни эълон қилиш тартиби; амалдаги қонунчиликка ва университетнинг ташқи назорат органлари билан ўзаро муносабатлари тартибига риоя қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 61-сонли қарори. <https://lex.uz/uz/docs/5793251>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 60-сонли қарори. <https://lex.uz/uz/docs/5793261>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4545884>

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг

таракқиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
<https://lex.uz/docs/5841063#5844066>

5. Ситнов А.А. Международные стандарты аудита: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика», квалификация «магистр» / А.А. Ситнов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. – 239 с.

6. Мельник М.В. Ревизия и контроль: учебное пособие / М.В. Мельник. – М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2003. – 520 с.

7. Попова А.Д. Внутренний контроль в бюджетном образовательном учреждении / А.Д. Попова // Финансовые исследования. – 2012. – №3. – С. 27.

8. Мокрецова Г.В. Организация внутреннего контроля – важный элемент учетной политики образовательного учреждения [Электронный ресурс] / Г.В. Мокрецова // Советник в сфере образования. – 2008. – №1. – Режим доступа: http://sovbukh.ru/zhurnaly/sovetnik_v_sfere_obrazovaniya/vypusk_1_2008/organizaciya_vnutrennego_kontrolya_vazhnyj_element_uchetnoj_politiki/

9. Ахмеджанов К.Б. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент 2016.- 32 бет.

10. Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент 2018.- 55 бет.

11. The Institute of Internal Auditors. <https://www.theiia.org>

12. International Auditing and Assurance Firm The Standards Board. <https://www.aasb.com>

**Исроилов Исломжон Ғуломжонович,
НамМТИ таянч докторанти.**

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ХАЛҚАРО РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ

Аннотация. Мазкур мақолада Республикамиздаги олий таълим муассасаларининг халқаро даражадаги олий таълим муассасалари билан рақобатлаша олиши учун олиб борилаётган ислохотлар қисқача баён қилиб ўтилган. Бундан ташқари яқин истиқболда халқаро университетлар рейтингда қатнашиш учун “Олий таълим муассасаларида таълим, фан, инновация ва илмий-тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш фаолиятининг узвий боғлиқлигини назарда тутувчи «Университет 3.0» концепцияси бўйича фикр юритилган.

Калит сўзлар: Олий таълим рақобатбардошлиги, ушлик тамойили, флагман университетлар, университет 1.0, университет 2.0, университет 3.0, ноу-хау, инновацион университет, концепция.

Аннотация. В данной статье кратко описываются реформы, проводимые для того, чтобы высшие учебные заведения нашей республики могли конкурировать с международными высшими учебными заведениями. Кроме того, для участия в международных рейтингах университетов в ближайшем будущем рассматривалась концепция «Университет 3.0», которая

подразумевает тесную связь образования, науки, инноваций и коммерциализации результатов научных исследований в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Конкурентоспособность высшего образования, тройной итог, флагманские университеты, университет 1.0, университет 2.0, университет 3.0, ноу-хау, инновационный университет, концепция.

Abstract. This article briefly describes the reforms being carried out to enable higher education institutions in our Republic to compete with international higher education institutions. In addition, in order to participate in the ranking of international universities in the near future, the concept of "University 3.0" was considered, which implies the integral connection of the activities of commercialization of the results of education, science, innovation and scientific research in higher educational institutions.

Key words: Higher education competitiveness, triple principle, flagship universities, university 1.0, university 2.0, university 3.0, know-how, innovative university, concept.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “Иқтисодиёт тармоқларида барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш орқали келгуси беш йилда аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотни — 1,6 баравар ва 2030 йилга бориб аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадни 4 минг АҚШ долларида ошириш ҳамда «даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар» қаторига кириш учун замин яратиш” вазифаси белгиланган. Ушбу вазифаларни ҳал қилишда малакали кадрларни роли юқори ҳисобланади.

Аслида жаҳон ҳамжамиятининг шаклланиш тарихидан ҳам кўриш мумкинки, давлатнинг шаклланиши ва ривожланиши нафақат табиий ресурсларнинг мавжудлиги ва қулай географик жойлашувига боғлиқ, балки кўп жиҳатдан мамлакатда истиқомат қилувчи инсонлар салоҳияти билан ҳам белгиланади.

Инсон салоҳиятини оширишга сармоя киритиш орқалигина иқтисодиётни модернизация қилиш ва инновацион ривожлантиришга эришиш мумкин. Бунинг учун олий таълимнинг самарали тизимини яратиш зарур. Инсон ва илмий салоҳиятнинг шаклланиши энг аввало таълим тизимини жадал ривожлантириш орқали бошланади. Фан, таълим ва бизнес интеграцияси ("учлик тамойили") давлат таълим тизимининг узок муддатли стратегияси ва университетлар фаолиятининг устувор йўналишларидан бири бўлиши керак.

Хозирги кун талаби университетлардан янада динамик, мослашувчан ва ижтимоий, илмий-техник, технологик ва экологик эҳтиёжлар, инновациялар ва халқаро рақобатга сезгир бўлишни талаб қилади. Университетлардан камроқ маблағ эвазига кўпроқ битирувчилар, тадқиқотлар, хизматлар кутилмоқда. Самарадорлик хозирда дунёнинг етакчи мамлакатларининг олий таълим соҳасидаги сиёсатининг муҳим кредосига айланди, бу институционал даражадаги бошқарув жараёнларида ва ҳукуматнинг олий таълим муассасалари билан шартномавий муносабатларининг табиатида жиддий

оқибатларга олиб келди. Университетларни ташкил этишнинг янги, энг самарали шакллари ва жамиятнинг олий маълумотга бўлган талабини оширишга қодир бўлган мақбул моделларини яратиш муаммолари ўта долзарб масалага айланди.

Г.Ицковиц томонидан таклиф қилинган инновацион университетни ташкил этиш концепциясига кўра университетга ўқув ва илмий тадқиқот миссиялари билан биргаликда янги ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш миссияси ҳам вазифаси ҳам юклатилади. Мазкур концепция муаллифини фикрича, янги миссияни муваффақиятли амалга ошириш “учлик спирал” (triple-helix) тизимини яратишни тақозо қилади.

Ўтган қисқа давр ичида мамлакатимизда ҳам ривожланган давлатлар тажрибаси асосида олий таълим сифатини ошириш борасида кўплаб ислохотлар ўтказилмоқда. Уни модернизациялашга доир янгиланишлар ҳам амалга оширилмоқда. Тизимда рақобатбардош мутахассислар тайёрлаш масаласи доимо давлат ва ҳукумат назоратидадир. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳамда Вазирлар Маҳкамаси томонидан бу соҳада бир қатор муҳим ҳужжатлар, қолаверса, олий таълимни ривожлантиришнинг 2030 йилгача мўлжалланган концепцияси қабул қилинди. Уни амалга ошириш стратегияси тайёрланди.

Ушбу концепцияда кадрлар тайёрлаш сифати ва кўламини инобатга олган ҳолда олий таълим муассасалари:

биринчи тоифа — флагман университетлар (Ўзбекистон Миллий университети ва Самарқанд давлат университети);

иккинчи тоифа — илм-фан ва инновацион марказ функциясини бажарувчи ҳудудий олий таълим муассасалари;

учинчи тоифа — соҳалар учун таълим ва илмий тадқиқотлар бўйича таянч муассасалар ролини бажарувчи тармоқ олий таълим муассасалари каби тоифаларга ажратилган.

Яқин истиқболда халқаро университетлар рейтингида қатнашиш учун “Олий таълим муассасаларида таълим, фан, инновация ва илмий-тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш фаолиятининг узвий боғлиқлигини назарда тутувчи «Университет 3.0» концепциясини босқичма-босқич жорий этиш” вазифаси белгиланган.

«Университет 3.0» концепциясига қисқча тўхталадиган бўлсак. Аслида университетнинг мақсади ва асосий функцияларидаги ўзгаришлар янги атама – “университет 3.0” ёки “учлик университет” (“университет 1.0” - таълим муассасаси, “университет 2.0” ўқитиш ва тадқиқотни таъминлайди, “университет 3.0” учинчи миссияси мавжуд, яъни билимларни тижоратлаштириш вазифасига эга)ни пайдо бўлишига сабаб бўлди. “Университет 3.0” нинг пайдо бўлиши Америка Қўшма Штатларидаги мультикампус университетларининг ривожланиши билан боғлиқ .

Университетлардаги трансформацион ўзгаришларга оид хорижий ва маҳаллий тажрибаларни ўрганиш “университет 3.0” нинг муаллифлик таърифини шакллантириш имконини берди. Унга кўра - " университет 3.0 – бу олий таълим берувчи ташкилот бўлиб, ўқув жараёнида фан ва таълим

узвийлиги, тадқиқот жараёнида ноу-хауни тижоратлаштириш ва бизнес ҳамжамиятлари вакиллари билан ҳамкорлик қилиш, ишланмаларни тижоратлаштиришни ўзида қамраб олади”.

Шу ўринда “Рақобатбардош университет” атамасига тўхталадиган бўлсак, у кўп қирралиги туфайли фан ва илмий тадқиқотларнинг турли соҳаларида унга оид мукаммал, баъзан жуда зиддиятли таърифлар мавжуд.

Университетлар глобал рақобатбардошлигининг детерминантларини ўрганиш натижасида тадқиқотчи В.И. Сацик рақобатбардош университетнинг таърифини таклиф қилган. Унга кўра “рақобатбардош университет жаҳон таълим хизматлари бозорининг маълум сегментларида барқарор ўринни эгаллашга ва сақлаб қолишга қодир олий таълим муассасасидир”.

Тадқиқотчи Н.Г. Скворцовга кўра, бундай университетларни ёрқин мисоли сифатида “жаҳон миқёсидаги университетлар” («World Class Universities», WCU) деб аталадиган олий таълим муассасаларини келтириш мумкин. Булар нуфузли халқаро университетлар рейтингига киритилган университетлардир.

Профессор В.Г. Халина бошчилигидаги бир гуруҳ муаллифлар жамоаси етакчи университетларнинг глобал рақобатбардошлигини таҳлил қилиб, олий таълимни ривожлантиришнинг фундаментал муаммоларини, жумладан, Россияда рақобатбардош университетларни шакллантириш масалаларини ўрганиб чиққан ҳамда университетлар рақобатбардошлигини баҳолаш усуллари ва моделларини таклиф қилган.

Тадқиқот натижалари рақобатбардошликни миллий ва халқаро турларга ажратиш имконини берди; уларнинг ҳар бири ўзига хос баҳолаш кўрсаткичларига эга; баҳолаш таълим муассасалари ва истеъмолчиларнинг ўзлари, шунингдек, учинчи томон мустақил ташкилотлари, масалан, рейтинг агентликлари томонидан амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида олий таълимнинг жозибадорлигини ошириш, халқаро миқёсда рақобатбардошликни таъминлаш соҳасида муаммолар мавжудлиги таъкидланган. Ушбу муаммони ҳал қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадларидан бири сифатида “.....жаҳон миқёсидаги рақобатбардошлигини таъминлаш” белгиланган.

Таълим соҳасида олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда рейтинг агентликлари университетларнинг рақобатбардошлигини белгиланган эксперт мезонлари бўйича баҳолаш билан шуғулланади. Вазирлик университетлар фаолиятини баҳолаши ва рейтингини тузиши мумкин, лекин бу фақат битта давлат доирасидагина амалга оширилади. Университетлар фаолиятини мустақил баҳолаш маълумотларини истеъмолчилари глобал миқёсда университетнинг барча манфаатдор томонлари (стейкхолдерлар) ҳисобланади. Шу боисдан университетнинг халқаро рақобатбардошлиги мезонларини аниқлаш учун рейтинг агентликларининг услубий базасидан фойдаланилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063#5844066>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 61-сонли қарори. <https://lex.uz/uz/docs/5793251>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 60-сонли қарори. <https://lex.uz/uz/docs/5793261>

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4545884>

5. Петрова Г.И., Овсянникова Ю.Н., Плюснин Л.В. Фундаментальность современного университетского образования: подходы к определению и специфика содержания // Университетское управление: практика и анализ. 2024. Т. 28, № 2. С. 7–16.

6. Ицковиц Г. Тройная спираль: университеты – предприятия – государство. Инновации в действии. Томск: Томский государственный университет систем управления и радиоэлектроники, 2010. 238 с.

7. Карпов, А.О. Современный университет как драйвер экономического роста : модели и миссии / А.О. Карпов // Вопросы экономики. – 2017. – № 3. – С. 58-76. – ISSN 0042-8736.

8. Бурцева, К.Ю. Основные тренды в реформировании системы высшего образования Российской Федерации/К.Ю. Бурцева//Вестник Самарского государственного университета путей сообщения. – Самара: Самарский гос. Ун-т путей сообщения, 2018. – Выпуск 4 (42). – С.15-18. – ISSN 2079-6099.

9. Скворцов, Н.Г. Конкурентоспособность университетов в глобальной системе высшего образования вызовы и стратегии/Н.Г. Скворцов//Вестник Московского университета. Серия 18 : Социология и политология. – 2017. – № 4. Том 23. – С. 45-57. – ISSN 1029-3736.

10. Халина, В.Г. Глобальная конкурентоспособность ведущих университетов. Модели и методы ее оценки и прогнозирования: монография / В.Г. Халина, Е.М. Анохина, И.П. Бойко; под общей редакцией В.Г. Халина. – Москва: Проспект, 2018. – 544 с. – 500 экз. – 978-5-392-27162-7.

11. Мехмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент 2018.- 55 бет.

Козимжонов Аброрбек

**Тошкент давлат иқтисодий университети
ТДИУ «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси доценти
Холпўлотов Рустам Ўктамович**

ОСИЁ ҚИТЪАСИ ДАВЛАТЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ
ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛГАНЛИК
ҲОЛАТИ

Аннотация: Мақолада Осиё қитъаси давлатларининг молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини қабул қилганлик ҳолати очиқ берилган.

Таянч сўлар: Глобал даража, Макро даража, Микро даража, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини, листинг компаниялари.

Аннотация: В статье раскрывается состояние принятия международных стандартов финансовой отчетности странами Азиатского континента.

Ключевые слова: Глобальный уровень, Макроуровень, Микроуровень, международные стандарты финансовой отчетности, листинговые компании.

Abstract: The article reveals the state of adoption of international standards of financial reporting by the countries of the Asian continent.

Keywords: Global level, Macro level, Micro level, international standards of financial reporting, listed companies.

Бухгалтерия ҳисоби бутун дунёда маълум даражада тартибга солинган фаолият турларидан ҳисобланади. Бунинг асосий сабаби бухгалтерия ҳисоби натижаларида шаклланадиган молиявий ахборотлар улардан фойдаланувчиларнинг манфатларини ифода этган ҳолда келгуси бошқарув қарорларини сифатли ҳамда иқтисодий фаолият натижаларига бевосита таъсир кўрсатади. Шу сабабдан бухгалтерия ҳисобининг якуний натижаси ҳисобланган молиявий ҳисоботларни тузиш ва тақдим этиш борасида умумий ва махсус талаблар белгиланиб, бу жараёни тартибга солиб боради.

Бугунги кунда бухгалтерия ҳисобининг тартибга солинишини 3 даражага бўлиб изоҳлаш мумкин(1-чизмада).



1-чизмада. Бухгалтерия ҳисобининг тартибга солиниш даражалари²

МҲХСга ўтиш сезиларлича молиявий сарф-харажат талаб этувчи жараёнدير. Шу билан бирга, халқаро бозорга чиқишни режалаштирмаган маҳаллий кичик ва ўрта бизнес субъектларига МҲХСга ўтишда катта молиявий харажатларни амалга оширишга эҳтиёж йўқ. Бу ҳолатда, кичик ва ўрта бизнес учун БҲМСни МҲХСга мослаштириш лозим. Аммо бу ҳолатда ҳам мутаносибликлар жуда кўп. Сабаби, статистика органи молиявий ҳисоботлар асосидаги маълумотларни бир хил турдаги ташкилотларнинг бир хил турдаги маълумотларини умумлаштиради ва таҳлил қилади.

МҲХС, БҲМС ва US GAAP бўйича тақдим этилган ҳисоботларнинг натижа кўрсаткичлари фарқ қилиши мумкин. «ДУО», яъни икки хил молиявий ҳисоб тизимида маълумотларни бир тизимда умумлаштириш статистика умумлаштириш методикасини такомиллаштириши ёки тубдан ўзгаришига сабаб бўлиши мумкин.

МҲХСга ўтиш бўйича тенденцияни таҳлил қилган ҳолда мамлакатимиз МҲХСларини тўлиқ қабул қилиш керакми, қисман қабул қилиш керакми ёки МҲХСлари асосида ўзимизнинг иқтисодий хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда БҲМСларини такомиллаштириш мақсадга мувофиқми деган саволарга жавоб топишга ҳаракат қиламиз. Бунинг учун МҲХСни тўлиқ қабул қилган, қисман қабул қилган ва МҲХС асосида ўзининг БҲМСларини такомиллаштириб бораётган Осиё қитаси мамлакатларнинг тажрибасини ўрганиб чиқиш натижасида қўйидаги 1-жадвалларда тузилди.

² муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

Осиё қитъаси давлатларининг МҲХСни мамлакатга қабул қилганлик ҳолати³

№	Мамлакат	МҲХСнинг жорий этилганлик ҳолати
1	Бахрейн	Яқин 3 йилдан бошлаб ҳар қандай хўжалик юритувчи субъектлар учун МҲХС асосида ҳисобот тайёрлаш мажбурий.
2	БАА	Банклар ва суғурта компаниялари МҲХСга ўтган. Бошқа корхоналарни ҳам ўтказиш ишлари олиб борилмоқда.
3	Россия	2012 йилдан банклар, листинг компаниялар ва суғурта ташкилотлари МҲХСга ўтиши мажбурий этиб белгиланган.
4	Япония	Япония Бухгалтерия стандартлари 2001 йилда ташкил этилган Япония Бухгалтерия Стандартлари Кенгаши томонидан ишлаб чиқилган. Япония Бухгалтерия Стандартлари Кенгаши ва Халқаро Бухгалтерия Стандартлари Кенгаши ўртасида 2007 йил август ойида тузилган шартномага асосан Япония Бухгалтерия Стандартлари талабларини МҲХСга мослаштириш устида иш олиб борди. Битим доирасида эришилган ютуқлар 2011 йил июнь ойида эълон қилинган. 2010 йилдан Халқаро компанияларга қўллашга рухсат этилган.
5	Ҳиндистон	Ҳиндистон дастлаб 2011 йилдан бошлаб босқичма-босқич ёндашувда МҲХСга билан ўз миллий стандартларини яқинлашишини учун йўл харитасини ишлаб чиққан эди аммо бу қолдирилди. 2015 йил январь ойида Ҳиндистон Корпоратив Ишлар Вазирлиги қайта кўриб чиқилган йўл харитасини эълон қилди, унга кўра соф қиймати 500 соре ва ундан ортиқ маблағлар бўлган компаниялар 2016 йил 1 апрелдан бошлаб МҲХСга билан бирлаштирилган Ҳиндистон Бухгалтерия Ҳисоби Стандартларига мажбурий равишда амал қилиш белгилаб қўйилди.
6	Хитой	Миллий стандартлар МҲХСга жуда ўхшаш. 2006 йил 15 февралда Хитой Халқ Республикаси Молия вазирлиги томонидан МҲХСга асосан Хитой бухгалтерия ҳисоби миллий стандартларини ишлаб

³ <https://www.iasplus.com/en/jurisdictions> маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

		чиқилган ва ҳозиргача такомиллаштириб келинмоқда.
7	Индонезия	МҲХС тасдиқланмаган. Индонезия МҲХСга қабул қилимаслик ёндашуви асосида ўзининг миллий Индонезия молиявий бухгалтерия стандартларини сақлаб қолиш ва уни аста-секин МҲХСга мослаштиришни мақсад қилган.
8	Қувайт	1990 йилда Қувайт Савдо вазирлиги вазирларнинг тегишли қарори асосида рўйхатга олинган барча юридик турдаги компаниялар ва ташкилотлар ўз молиявий ҳисоботларини МҲХСга мувофиқ тайёрлаш лозимлиги белгиланган.
9	Ливан	Ливанда 1998 йилдан МҲХС асосида ҳисобот тайёрлашга ўтган.
10	Оман	Оман 1986 йилдан МҲХС асосида ҳисобот тайёрлашга ўтган.
11	Корея Республикаси	Корея Республикасида 2011 йилдан барча хўжалик юритувчи субъектлар учун МҲХС асосида ҳисобот тайёрлаш мажбурий.
12	Бруней	2002 йилдан бошлаб Бруней Молия вазирлиги ва бир қатор бошқа органлар билан ҳамкорликда Брунейни МҲХСни жорий этиш бўйича техник дастурларни бошлаган.
13	Кипр	Кичик ва ўрта бизнес учун тавсия этилган, аммо мажбурий эмас.
14	Непал	1996 йилдан ҳар қандай хўжалик юритувчи субъектлар учун МҲХС асосида ҳисобот тайёрлаш мажбурий.
15	Қозоғистон Республикаси	2005 йил 1 январдан бошлаб барча листинг компаниялари учун, 2006 йил 1 январдан бошлаб муҳим жамоат манфаатларига эга бўлган бошқа компаниялар, жумладан йирик хўжалик юритувчи сифатида ҳисобга олинмаган компаниялар, қазиб олувчи саноати компаниялари ва давлат мулки бўлган компаниялар учун талаб қилинади. Кичик хўжалик юритувчи сифатида ҳисобга олинмаган ташкилотлар эса Қозоғистон Молия вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган миллий стандартларни танлаш имконига эга.
16	Тожикистон Республикаси	2002 йилда Президент Фармонида кўра, МҲХС қабул қилиниши ва жавобгарликни Тожикистон Республикаси Молия Вазирлиги зиммасига юклаш

		<p>белгиланди. Жараённи йўлга қўйиш учун 2003 йилда профессионал ташкилотлар, амалиётчи бухгалтерлар ва аудиторлардан иборат ишчи гуруҳи тузилди. МҲХСларини жорий этиш биринчи навбатда белгиланган йирик корхоналарда бошланган. Ҳукумат қарорига кўра, МҲХСни дастлабки жорий этиш учун турли давлат вазирликлари томонидан тайинланган 29 та корхона кўрсатилган. Ушбу корхоналар дастлаб 2004 йилда МҲХСни қабул қилишлари керак эди, аммо бу муддат 2005 йилгача узайтирилди ва тўлиқ жорий этиш 2007 йилда тугатилди.</p>
17	Қирғизистон Республикаси	<p>Қирғизистонда МҲХС мажбурий ҳисобланади. Қирғизистон 2003 йил 31 декабрда банклар ва масъулияти чекланган жамиятлар учун МҲХСни мажбурий деб белгиловчи қонунни қабул қилди. Бошқа йирик ва ўрта корхоналар 2005 йилдан бошлаб, кичик корхоналар эса 2006 йилгача МҲХСни қўллашлари шарт. Қонун 2002 йил 29 апрелда кучга кирган.</p>
18	Сингапур	<p>МҲХС билан деярли бир хил бўлган Сингапур бухгалтерия стандартлари мавжуд. Сингапур МҲХС асосида ўзининг стандартларини ишлаб чиқиш йўлини танлаган.</p>
19	Туркия	<p>2008 йилдан листинг компаниялари ўтган</p>

Мазкур жадвалда ўрганилган Осиёи қитъасидан 19 та давлатларнинг 7 таси жумладан Бахрейн, Қувайт, Ливан, Оман, Корея, Республикаси Непал, Қирғизистон Республикаси МҲХСни тўлиқ қабул қилинган. Қисман қабул қилган давлатлар 6 тани ташкил этиб улар БАА Россия, Кипр, Қозоғистон Республикаси, Тожикистон Республикаси, Туркия. МҲХС асосида ўзининг БҲМСларини такомиллаштириб бораётган мамлакатлар Осиёи қитъасида ўрганилган 19 та давлатларнинг 6 тасини ташкил қилади улар Япония, Ҳиндистон, Хитой, Индонезия, Бруней, Сингапур каби мамлакатлар киради.

Юқоридаги таҳлил қилинган маълумотлардан умумлаштирган ҳолда мамлакатимизнинг танлаган ўйли яъни иқтисодий хусусиятларимиздан келиб чиққан ҳолда БҲМСларини босқичма-босқич МҲХСларига талабларга уйғунлаштириш ва иқтисодиётнинг маълум соҳаларинигина МҲХСларига ўтказиш нақадар тўғри йўл эканлигини кўришимиз мумкин.

Республикамызда бухгалтерия ҳисоби норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинган бўлиб, 2020 йилга қадан барча хўжалик юритувчи субъектлар бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари асосида фаолият юритиб келишган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 4611-сонли қарорининг қабул қилиниши амалдаги ҳисоб ва ҳисобот тизимини халқаро даражада тартибга

солинишига олиб келди. Ушбу қарорга кўра эндиликда «акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар 2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлаши белгиланган»⁴

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон Қарори.

2. <http://ifrs.com>

3. <https://www.iasplus.com/en/jurisdictions>

**TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrası
dotsenti, PhD. A.Kozimjonov**

MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan va taqdim etadigan moliyaviy hisobotlarning zaruriyati va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, investor, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS), qaror va nizomlar.

Moliyaviy hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, faoliyati va pul oqimlari haqida ma'lumot beruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlar nafaqat xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati balki tashqi moliyaviy hisobot iste'molchilari bo'lgan investorlar, kreditorlar va davlat organlari tomonidan qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy hisobot tuzishning zaruriyati va ahamiyati shundaki, ular xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini salohiyatini baholash, kelajakdagi strategiyalarni shakllantirish va moliyaviy risklarni boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaffof moliyaviy hisobotlarga ega bo'lgan kompaniyalar investorlar tomonidan ko'proq ishonchga sazovor bo'lishadi. Masalan, 2021-yilgi McKinsey (Ushbu korxonada “Katta uchlik” boshqaruv konsalting kompaniyasining eng qadimgi va eng kattasi bo'lib, daromadlari bo'yicha dunyodagi eng yirik uchta strategiya konsalting firmasi) tadqiqotiga ko'ra, shaffof hisobotlar taqdim etgan kompaniyalarning aksiyalari bozor ortig'i 12% ga yaqin yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

2023-yilgi EY (Ernst & Young-America Qo'shma Shtatlar audit kompaniyasi, dunyoda eng yiriklardan biri hisoblanadi) tadqiqotiga ko'ra, global kompaniyalarning 65% dan ortig'i moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 4611-сонли қарори манба: <https://lex.uz/docs/4746047>

raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'tmoqda. Bu jarayon xatoliklarni kamaytirish va hisobotlarni tezroq taqdim etish imkoniyatini beradi.

2022-yilgi CFA Institute (CFA Institute – bu investitsiyalarni boshqarish va moliyaviy tahlil sohasida dunyodagi yetakchi professional tashkilotlardan biri. U butun dunyo bo'ylab investitsiya mutaxassislarini sertifikatlash, etika va kasbiy standartlarni ilgari surish bilan shug'ullanadi) tadqiqotiga ko'ra, investorlarning 85% moliyaviy hisobotlarni kompaniyalarni baholashda asosiy manba sifatida ishlatadi.

O'zbekistonda 2020-yildan boshlab yirik korxonalar uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) joriy etildi. 2022-yil holatiga ko'ra, 500 dan ortiq yirik korxonalar IFRS standartlariga muvofiq moliyaviy hisobot tuzmoqda.

1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli standartga muvofiq moliyaviy hisobotning to'liq to'plami quyidagilarni qamrab oladi:

1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot. Xo'jalik yurituvchi subyektlardagi aktivlarning xarakteri, likvidligi va funksiyasi, majburiyatlarning summasi, xarakteri va muddatlari bo'yicha baxolaganda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda alohida moddalar kiritish orqali taqdim etiladi. Qisqacha aytganda, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini va barqarorligini ko'rsatib beradi.

2. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot. Ushbu hisobotda ma'lum bir davr uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari, xarajatlari va umumiy foyda yoki zararlari haqida axborot beradi. xo'jalik yurituvchi subyektning foyda olish darajasi va renatabilligini baholash uchun muhim bo'lgan hisobot hisoblanadi.

3. Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot. Ushbu hisobotda kapitalga yo'naltirilgan aksiyalarning o'zgarishi yoki bozor qiymati o'zgarishi, rezerv fondariing shakllanishi, taqsimlanmagan foydadan, oddiy va imtiyozli aksiyalar uchun dividendlarning taqsimlanishini tasniflovchi hisobot turi bo'lib hisoblanadi.

4. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot. Ushbu hisobotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'larini ma'lum bir vaqt davomida operatsion faoliyati, investitsiya va moliyaviy foaliyatdan qancha miqdorda pul mablag'lari kiritim va chiqim bo'lganligini ko'rsatib beruvchi hisobotdir. Hisobot foydalanuvchilar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini hosil qilish imkoniyati hamda subyektning ushbu pul oqimlaridan foydalanish ehtiyojlarini baholash uchun asos bo'ladi

5. Ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar. Moliyaviy hisobotga izoh quyidagi maqsadlarda xizmat qiladi: ma'lumotlarni aniqlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, standartlarga muvofiqligini ta'minlash, investorlar va moliyaviy hisobot foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni yanda yaxshiroq tushunish va tahlil qilish uchun va ular asosida hisobotlarda qisqacha ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishda yordam berish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobot tuzishning zaruriyati

Qonuniy talablar bo'yicha	Ichki boshqaruv tizimi bo'yicha	Investorlar va kreditorlar uchun ma'lumot manbai sifatida	Rentabellik va samaradorlikni baholash
<p>Ko'pgina mamlakatlarda korxonalar moliyaviy hisobotlarni muntazam ravishda tuzish va taqdim etish majburiyatiga ega. Bu talablar korxonalarining shaffofligini ta'minlash va investorlar, kreditorlar va davlat organlarining qarorlarini oqlash uchun zarurdir.</p>	<p>Moliyaviy hisobotlar korxonada moliyaviy holatni monitoring qilish, resurslarni samarali boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.</p>	<p>Investorlar va kreditorlar korxonaning moliyaviy holati va uning kelajakdagi istiqbollari baholash uchun moliyaviy hisobotlardan foydalanadilar. Bu hisobotlar ularning investitsiya yoki kredit berish qarorlarini asoslab beradi.</p>	<p>Moliyaviy hisobotlar korxonaning rentabelligi, xarajatlarni boshqarish samaradorligi va umumiy moliyaviy salohiyatini baholash imkonini beradi.</p>

Yuqoridagi 1-jadvalda Moliyaviy hisobot tuzishning zaruriyati haqida umumiy ma'lumotlar kelib chiqib moliyaviy hisobot tuzishning va taqdim etishning ahamiyati shundaki hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ham moliyaviy hisobot yuritish zaruriy hisoblanadi. Bu hisobotlar tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, investitsiyalar jalb qilish va davlat oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, moliyaviy hisobot korxonaning barqarorligini saqlab qolish, xarajatlarni optimallashtirish va bozor talablariga moslashish uchun zarur vosita hisoblanadi. Xalqaro standartlarga mos keluvchi hisobotlar esa xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Moliyaviy hisobot, shuningdek, moliyaviy risklarni baholash va ularga javob qaytarishda yordam beradi. Bunday hisobotlar orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zining zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, moliyaviy hisobot tuzish korxonalar uchun nafaqat qonuniy talab, balki samarali boshqaruv, strategik rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu hisobotlar korxonalarining moliyaviy holatini to'liq aks ettirib, ularning ichki va tashqi manfaatdor tomonlariga ishonchli ma'lumot beradi. Shuning uchun moliyaviy hisobotlarni vaqtida va to'g'ri tuzish har bir korxonada uchun zarur va muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Eshov M.P., Abdurakhmanova G.K., Burkhanov A.U., Abdusalomova N.B. and Ergasheva S.T. (Ed.) Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS (Advanced Series in Management, Vol. 33B), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 1-4. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B001>

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to‘plami. // ASSA . IFRS/IAS..., 2019 y.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri ning buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3400.

6. Ergasheva Sh.T., Ilxamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2022. - 360 bet.

7. Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. (O‘quv qo‘llanma) - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 204 bet.

8. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
MBR-01 guruhi 2 kurs magistranti
Mannopov Jamshid Baxtiyor o‘g‘li

BYUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINING USLUBIY MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni tashkil qilishning uslubiy masalalari bayon etilgan bo‘lib, unda byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish manbalari tartibi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratning normativ-huquqiy asoslari, hisob siyosatini belgilashning uslubiy asoslari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet tashkiloti, smeta xarajatlari, moliyalashtirish, nazorat, hisob siyosati.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish yuzasidan izlanishlarda avvalo, mazkur yo‘nalishda normativ huquqiy hujjatlarni o‘rganish zarur. Bu boradagi normativ huquqiy hujjatlarni shartli ravishda katta ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga byudjet tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlar, ikkinchi guruhda esa, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid normativ huquqiy hujjatlar tadqiq etiladi.

Ushbu moliyalashtirish manbalari bilan bog‘liq holda byudjet tashkilotlari smetalari tuziladi hamda davriy moliyalashtirib boriladi. Ushbu jarayonda

mablag'larni taqsimlaovchi sifatida qaralib, smetalar ijrosi bevosita byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi hamda hisobi yuritiladi. Mazkur jarayonda mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishi, ularning hujjatlashtirilishi tizim tashkilotlarida ichki nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq hisoblanadi.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi qator huquqiy hujjatlar bilan tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 26 dekabrda 360-son "Byudjet kodeksi" Qonuniga ko'ra, budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari tarkibi belgilanadi. Bundan tashqari, tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromalarning shakillanishi va ularning sarflanishi amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi 404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan shu'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalar va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobining sub'ektlari bo'lsa, asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi esa, umumiy holda buxgalteriya hisobini, shuningdek byudjet jarayonini bir qismini tashkil qilib, foydalanuvchilarni davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi zaruriy moliyaviy axborotlar bilan ta'minlaydi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida turadigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda, o'z tizimidagi tashkilotlarda faoliyat hususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi va hisobotlarining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida belgilangan tartibda me'yoriy hujjatlar chiqarishlari mumkin.

Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash manbalarini faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan, byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish tartibi belgilangan.

Byudjet tashkilotlari byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan tuzadi. Byudjet tashkilotlarining «byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko'rsatgan holda byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlarining hajmi va mazkur mablag'lardan foydalanish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda aniqlanishi, daromadlar va xarajatlar


smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi prognozidan tashkil topishi belgilangan.

“Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Yo'riqnomaga hamda O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) «Yagona schyotlar rejasi» ga asosan byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha schyotlar, subschyotlar, buxgalteriya dastlabki va yig'ma hujjatlari hamda hisob registrlari ikki yoqlama yozuvda aks ettirish tartiblari keltirilgan. “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risidagi Nizom”ga ko'ra byudjet tashkilotlarida hisob ob'ektlari bilan bog'liq muomalalar hisobini hujjatlashtirishni tartibga solish tizimlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining «Hisob siyosati» nomli 1-son standartiga asosan barcha byudjet tashkilotlari o'zining smetalar ijrosini amalga oshirish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishda ichki nazorat tizimini tartibga solish hamda tizimli buxgalteriya axborotlarni shakllantirish orqali samarali boshqaruvni joriy qilish uchun hisob siyosatini shakllantirishi zarur. Hisob siyosati belgilangan printsiplarga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan aniq uslublar, asoslar, yo'l qo'yishlar, qoidalar hamda usullar majmui sifatida bir moliya yili davomida qo'llaniladi.

Hisob siyosati barcha savollarni qamrab olgan holda, hisob jarayonlari bilan bog'liqlikda, ya'ni byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi tizimining maqsadlilikini ta'minlashi zarur. Puxta tuzilgan hisob siyosati bosh hisobchining yuqori malakali ekanligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida kelgusida byudjet tashkilotining xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Hisob siyosati O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, buxgalteriya hisobi sub'ekti faoliyat sohasiga oid nizomlar va standartlar asosida ishlab chiqiladi. Hisob siyosatini ishlab chiqishda uning tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi (1-rasm).



1-rasm. Hisob siyosatining tarkibiy jihatlari

Buxgalteriya hisobi sub'ekti rahbari farmoyishiga asosan hisob siyosati hisobot yili oxirida ishlab chiqiladi va kelgusi moliya yili uchun tasdiqlanadi. Ushbu farmoyishga ko'ra bir vaqtning o'zida quyidagilar ham tasdiqlanadi:

buxgalteriya xodimlarini lavozim yo'riqnomalari;

sintetik va analitik schyotlarni aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi ishchi schyotlari rejasi;

hujjatlar aylanish tartibi va grafigi;
mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarni baholash usullari;
aktivlarni hisobdan chiqarish uslubi;
inventarizatsiya o'tkazish tartibi va muddatlari;
hisob axborotlarini qayta ishlash texnologiyasi va boshqa zaruriy hujjatlar.

Hisob siyosatini ishlab chiqish va uning tarkibiy tuzilishi barcha buxgalteriya hisobi sub'ektlari uchun umumiy jihatlarga ega bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bilan bog'liq alohida hisob siyosati ishlab chiqilishi va buning uchun hisob siyosatiga oid standart qabul qilinishi kerak.

Hisob siyosati byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida mavjud o'zaro bir-birini istisno etuvchi bir nechta hisob yuritish usullaridan birini tanlash maqsadida tuziladi. Bu standart byudjet tashkilotlarida hisob siyosatini tanlash va qo'llash, hisob siyosatiga o'zgarishlarning hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llanilishi lozim.

Byudjet tashkilotlarida moliya xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda buxgalteriya hisobining muhim usuli hisoblangan inventarizatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Inventarizatsiya byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchliligini ta'minlash, moddiy qiymatliklarning but saqlanishi va majburiyatlarning holatini nazorat qilishga xizmat qiladi.

Byudjet tashkilotlari hisob siyosatida belgilash orqali yillik moliyaviy hisobotlarni tuzishdan oldin rejali tartibda to'liq inventarizatsiya o'tkazishlari mumkin. Rejadan tashqari esa, mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda, moddiy javobgar shaxslar almashganda, o'g'irlik yoki suiste'mol, tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki favqulodda vaziyatlar yuz berganda, byudjet tashkilotlari faoliyati tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". 2014 yil 26 dekabr, O'RQ-360-son. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) «Hisob siyosati» (2016 yil 27 dekabr, ro'yxat raqami 2853).
4. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnomasi
5. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) «Yagona schyotlar rejasi».

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dosenti
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

**PUL OQIMLARI TO'GRISIDAGI HISOBOTNI XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Abstrakt: This article describes how to prepare a cash flow statement using the direct method based on International Financial Reporting Standards. In our country, only the direct method is used in the preparation of cash flow statements, so the introduction of the direct method by us will help to increase investor confidence in financial statements.

Keywords: cash, cash equivalents, cash flow statement, direct method, operating activity, investment activity, financial activity, financial statement, receipts from customers, payments to suppliers for goods and services, payments to employees, profit tax payments.

Moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha tuzish lozimligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan belgilangan. [2]

Shundan kelib chiqqan holda, Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish lozimligi belgilanadi.

Xalqaro amaliyotda investitsiyalat asosiy e'tiborni moliyaviy hisobotning shakllaridan biri bo'lgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotga qaratadi. Sababi, sub'ektga qancha pul kirishi va chiqishi ko'p bo'lganligi ularning qiziqishiga zamin uyg'otadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga xo'jalik sub'ektining sof aktivlaridagi o'zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to'lov qobiliyati)ni va o'zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o'zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma'lumot bilan ta'minlaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik sub'ektining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil xo'jalik sub'ektlariga tegishli kelgusi pul oqimlarining joriy (keltirilgan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. [10]

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi xisobot pul tushumlari va to'lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat.

Operatsion faoliyat natijasida kelib chiqadigan pul oqimlarining summasi - xo'jalik sub'ekti, moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojat qilmasdan, o'z operatsion faoliyatidan yuzaga kelgan qarzlarni to'lash, o'zining operatsion faoliyatini yurgizish qobiliyatini saqlash, dividendlarni to'lash va yangi investitsiyalar qilish uchun yetarli bo'lgan pul oqimlarini qay darajada hosil qilganligini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichdir. Operatsion faoliyatidan oldingi davrlarda kelib chiqqan pul oqimlarining alohida tarkibiy qismlari to'g'risidagi ma'lumot, boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda, operatsion faoliyat bo'yicha hosil bo'ladigan kelgusi pul oqimlarini prognoz qilishda foydalidir.

Operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlarini aks ettirish [11] (BHMSda quyidagilar ochib berilmagan):

Tadbirkorlik sub'ektlari operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlarini bevosita usulni qo'llash orqali hisobotda ko'rsatishi ma'qullanadi. Bevosita usulni qo'llash natijada kelgusi pul oqimlarini baholash uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan hamda bilvosita usulni qo'llashda aks ettirilmaydigan ma'lumotlar ta'minlanadi. Bevosita usul qo'llanilganida, yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlarining asosiy toifalari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi yo'llar bilan olish mumkin:

tadbirkorlik sub'ektining buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan; yoki umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan sotishdan tushum, sotish tannarxi (moliyaviy institutlar uchun foizlar va shunga o'xshash daromadlar hamda foiz xarajatlari va shunga o'xshash xarajatlar) va boshqa moddalarni quyidagilarga tuzatish orqali:

davr mobaynida tovar-moddiy zaxiralardagi va operatsion debitorlik va kreditorlik qarzlardagi o'zgarishlar;

boshqa pul mablag'lari harakatlanmaydigan moddalar; va investitsion yoki moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlarini keltirib chiqaradigan boshqa moddalar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt operatsiya faoliyatidan vujudga kelgan pul mablag'lari harakatini quyidagilardan foydalanib, ochib beradi:

Yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlari asosiy turlari ochib beriladigan bevosita usul;

Bilvosita usul. Bu usulga muvofiq sof daromad yoki zararga joriy aktivlar va majburiyatlarning o'zgarishiga, ishonchsiz operatsiyalarga, shuningdek operatsiya investisiya yoki moliya faoliyati natijasida olingan daromadlar va ko'rilgan zararlarga qarab o'zgartirish kiritiladi. [12]

BHXS: IAS 7 ga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektining pul oqimlari to'g'risidagi axborot, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun, tadbirkorlik sub'ektining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini hosil qilish qobiliyatiga hamda ushbu pul oqimlaridan foydalanish ehtiyojlariga baho berishda asos sifatida foydalidir. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot davr davomidagi pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar bo'yicha tasniflangan holda ko'rsatishi kerak.

Izchil turkumlashtirish:

Pulga daxli bo'lmagan operatsiyalar kiritilmaydi;

To'g'ri yoki egri usulni qo'llash MHXS 7 to'g'ri usulni qo'llashni tavsiya etadi;

Moliya tashkilotlariga hisobotlarni NETTO asosida tuzish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish, hisoblash tamoyiliga amal qilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni bevosita usulda tuzish uchun operatsion faoliyatning pul mablag'lari oqimini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish lozim:

1.Xaridorlardan tushum;

2.Tovarlar va xizmatlar uchun yetkazib beruvchilarga to'lovlar;

3.Xodimlarga to'lovlar;

4. Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni tuzishda, avvalombor, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdan foydalaniladi.

1 – jadval.

ABC kompaniyasining moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidan ilovalar

	Yil boshiga	Yil oxiriga
Aktivlar:		
Xaridorlardan olinadigan schyotlar	55 000	47 000
Zaxiralar	110 000	144 000
Tovarlar va xizmatlar uchun berilgan avanslar	5 000	1 000
Yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar	43 000	50 000
Mehnatga haq to'lash bo'yicha majburiyatlar	9 000	10 000
To'lanadigan joriy foyda solig'i	5 000	3 000

*Manba: *ma'lumotlar muallif tomonidan tuzilgan*

2 – jadval.

ABC kompaniyasining foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotidan ilovalar

“Foyda yoki zarar” bo'limi	
Tushum	698 000
Realizatsiya tannarxi	457 000
Davr xarajatlari	116 000

*Manba: *ma'lumotlar muallif tomonidan tuzilgan*

3 – jadval.

Yil uchun qo'shimcha ma'lumotlar

Asosiy vositalarning amortizatsiyasi	37 000
Asosiy vositalarni sotishdan zarar	3 000
Mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar	58 000
Joriy foyda solig'i	18 000

*Manba: *ma'lumotlar muallif tomonidan tuzilgan*

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun har bir ko'rsatkich formulasi [13] ni keltirib o'tamiz:

1. Xaridorlardan tushumlar.

$\text{Tushum} \pm \text{olinadigan schyotlarning kamayishi (ko'payishi)} \mp \text{xaridorlardan olingan avanslarning kamayishi (ko'payishi)} = \text{xaridorlardan tushumlar}$
--

$$\text{Xaridorlardan tushumlar} = 698000 + 8000 = 706000$$

Yuqoridagi formulada tushum foyda va zarar to'g'risidagi hisobotdan, olinadigan schyot va xaridorlardan olingan avans esa moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot orqali olinadi.

2. Tovarlar va xizmatlar uchun yetkazib beruvchilarga to'lovlar.

$\text{Mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar} = \text{sotilgan mahsulot tannarxi} + \text{davr xarajatlari} - \text{eskirish bo'yicha xarajatlar} - \text{asosiy vositalarni sotishdan zarar} - \text{mehnatga haq}$

to'lash bo'yicha xarajatlar \mp zaxiralarning kamayishi (ko'payishi) \mp to'lanadigan schyotlarning kamayishi (ko'payishi)

$$\text{Mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar} = 457000 + 116000 - 37000 - 3000 - 58000 + + 34000 - 4000 - 7000 = 498000$$

3. Xodimlarga to'lovlar.

Xodimlarga to'lovlar = mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar \pm mehnat haqi bo'yicha majburiyatning kamayishi (ko'payishi)

$$\text{Xodimlarga to'lovlar} = 58000 - 3000 = 55000$$

4. Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar.

Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar = joriy foyda solig'i bo'yicha xarajat \pm to'lanadigan joriy soliqning kamayishi (ko'payishi)

$$\text{Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar} = 18000 + 2000 = 20000$$

Yuqoridagi formulalar orqali pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari aniqlanadi. Pul oqimlarini sof asosda aks ettirish:

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning bevosita usuli bo'yicha tuzilgan shaklini keltirib o'tamiz:

4 – jadval.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – bevosita usul

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	
20 yil 1 dan 1 gacha bo'lgan davr uchun	
Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining harakati	
Sotuvdan tushum	+ 706 000
Mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar	- (498 000)
Xodimlarga to'lovlar	- (55 000)
Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar	- (20 000)
Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining holati	+ 133 000
Investitsiya faoliyatidan pul mablag'larining harakati	
Asosiy vositalarning olinishi	- (220 000)
Asosiy vositalarning sotilishi	+ 5 000
Qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi	- (72 000)
Qimmatli qog'ozlarning sotilishi	+ 103 000
Investitsiya faoliyatidan pul mablag'larining holati	- (184 000)
Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining harakati	
Oddiy aksiyalar chop etishdan tushum	+ 150 000
Bank kreditlarining tushumi	+ 100 000
Bank kreditlarining so'ndirilishi	- (50 000)
Foizlar bo'yicha to'lovlar	- (23 000)
Divedend bo'yicha to'lovlar	- (94 000)
Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining holati	+ 83 000
Pul mablag'larining holatidagi sof o'zgarishlar	+ 32 000
Yil boshiga pul mablag'lari	15 000
Yil oxiriga pul mablag'lari	47 000

*Manba: *ma'lumotlar muallif tomonidan tuzilgan*

Bugungi kunda pul oqimlari hisobotini tuzishda va uning amaliyotida ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Bu esa hisobot shaklini mukammal darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli «Pul oqimi to'g'risida»gi hisobot shakliga ayrim o'zgartirishlar kiritilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni, birinchidan, hozirgi amalda qo'llanilayotgan hisobot shaklida korxonaning pul mablag'larini kirimi va chiqimi bir hisobot davri ko'rinishida aks etgan. Vaholanki, korxonalarning turli faoliyatlarini bir necha yillik davrlar bo'yicha o'rganish, taxlil qilish hamda baho berish maqsadga muvofiqdir. «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisoboti shaklida ham «Buxgalteriya balansi» (1-shakl) hamda «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl) shakllari singari ikki hisobot davrini aks ettirish yaxshi samara bergan bo'lardi. Ikkinchidan, hozirgi kunda amalda bo'lgan ushbu hisobot shaklida pul mablag'larini harakati har bir faoliyat turlari bo'yicha alohida bo'linmalarda tasniflangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni bevosita usuldan foydalangan holda tuzish va uni taqdim etish natijasida kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish imkoniyati yanada oshadi hamda amaliyotda ushbu shaklni tuzishda yuzaga kelayotgan muammollarni bartaraf etishga va investorlar uchun pul oqimlari holatini ushbu shakldan aniqlashda qulayliklarga olib kelishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. D.E.Norbekov, A.N.To'raev, Sh.Sh.Raxmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – O'quv qo'llanma. – T.:“Iqtisod moliya” – 2019. – 332 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qarori.
3. Ковалев В. В. (ред.) - Финансы (3-е изд., перераб. и доп.) Издательство: "Проспект" ISBN: 978-5-392-18570-2 2016. 928 с.
4. Бригхем Ю, Гапенски Л Финансовый менеджмент Полный курс В 2-х т. / Пер. с англ. под ред. В.В. Ковалева. СПб Экономическая школа, 1997 +497с.
5. Бланк И.А. Управление финансовой безопасностью предприятия / И. А. Бланк. — Киев : Ника-Центр, 2009.
6. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. Пер. С англ Под. Ред. Проф. Я. В. Соколова - 2Е изд., стереотип - М.:«Финансы и статистика», 1997 г.
7. Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлокулов А.З.Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. Т.: «Шарқ» НМАК, 2004. - 592 б.
8. Пул оқими тўғрисидаги ҳисобот Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти 9-сон БҲМС. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Стандарти 04.11.1998 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 519, кучга кириш санаси 04.11.1998.
9. 7-сон БҲХС. Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот. https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/msfo/Uzb_GVT_BB2022_A_IAS07.pdf
10. <https://lex.uz/docs/-4746047>

11. Buxgalteriya Hisobining Xalqaro Standarti 7 “Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot”
12. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-v4.html?page=22>
13. Buxgalteriya Hisobining Milliy Standarti 9 “Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot”
14. https://uz.wikisko.ru/wiki/Cash_flow_statement
15. <https://tfi.uz/docs/oub/edition/%D0%98.%D0%9E%D1%87%D0%B8%D0%BB%D0%BE%D0%B2-%D0%8E%D0%A3%D0%9C-%D0%9C%D2%B2%D0%A5%D0%A1-%202019-2020-14.02.2020.pdf>
16. IFRS Academy <https://ifrs.academy/uz#>
17. <https://tfi.uz/storage/doc-pages/78/original/cc5caf8c621b3f9637accf174e20486dc3dab1c6.pdf>

**TDIU “Buxgalteriya hisobi”
kafedarsi dotsenti A.T.Maxkamboev**

KORPORATIV BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI TASHKIL QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo’jalik yurituvchi subyektlarning korporativ buxgalteriya hisobi va uni tashkil qilish muammolari va yechimlari bo’yicha taklif va tavsiylar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: korporativ boshqarish, buxgalteriya hisobi, hisob tizimi, aksiya, obligatsiya.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini tashkil qiluvchi xususiylashtirish jarayonini to‘la-to‘kis yakunlash, mulkchilikning zamonaviy va noan’anaviy shakllarini amaliyotga joriy qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “Korxonalarni korporativ boshqarish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu tariqa, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavozim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi.”

Korporativ boshqaruvning bunday shakllari paydo bo‘lishi amaldagi hisob tizimida noan’anaviy buxgalteriya hisobining yangi shakl, usul va uslubiyotlarini tashkil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Amaldagi buxgalteriya hisobi tizimining bugungi kun muammolaridan biri – bu aksionerlik kompaniyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida to‘liq ifoda etuvchi, buxgalteriya hisobining zamonaviy shakllaridan hisoblangan korporativ buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini yaratishdir. Respublikamiz hisob tizimida korporativ buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, u davlat va sarmoyachilar manfaatlarini teng ko‘zlagan holda ular mulkini himoya qilish funksiyasini bajaradi. Chunki respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarga iqtisodiy erkinlik berish, davlat mulkini xususiylashtirishning boshlang‘ich bosqichlarida strategik va

umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoq va korxonalarni aksionerlik jamiyati va kompaniyalariga aylantirishda ularning aksiya paketlarini ko'prog'i davlat ulushiga to'g'ri keladi.

Korporativ buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi aksionerlik kompaniyalari mablag'lari va ularning kelar manbalari harakati to'g'risidagi ma'lumot bilan korporativ boshqaruvni ta'minlash, aksionerlik kompaniyalarining mablag'lari ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish, kompaniya istiqbollarini belgilashda faol qatnashishdir.

Korporativ buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyati, boshqa soha yoki tarmoqlarda tashkil qilingan buxgalteriya hisobida amalga oshirilmaydigan qimmatli qog'ozlar (aksiya) va dividendlar hisobining tashkil qilinishidir. Shuningdek, korporativ buxgalteriya faqat bir aksionerlik kompaniyasining tashkiliy, ma'muriy-boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish xususiyatlari asosida tashkil qilinadi. Ularda olib boriladigan hisob siyosati ham faqat shu kompaniya manfaatlarigagina qaratilgan bo'ladi. Agar xo'jalik yurituvchi subyekt yagona mulk egasi manfaatlarini asosida tashkil qilingan va faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, bu korxonalarda korporativ buxgalteriya hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, korporativ buxgalteriya hisobi bir necha mulkdorlar manfaatlarini birlashtiruvchi hisob shaklidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy bozorlarning keskin avj olishi, mulkchilikning aksionerlik shakli rivojlanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mulchilikning aksionerlik shakli tadbirkorlik faoliyatida investorlarga ularning kapitallari konsentratsiyalashuv jarayonini ta'minlaydi. Natijada ma'lum miqdorda moliyaviy resurslarga ega bo'lgan investorlarning bo'sh pul mablag'lari yagona maqsad va biznes doirasida korporativ shaklda birlashadi.

Korporativ buxgalteriya hisobining tashkiliy tuzilishi kompaniyalar korporativ moliya tizimining tarkibi va vazifalariga bevosita bog'liqdir. Korporativ moliya quyidagi asosiy uch vazifani bajarishga qaratilgandir:

- kompaniyalar aktivlarining joylashtirish siyosatini to'g'ri tashkil qilish;
- kompaniya investitsiyalari uchun zaruriy moliyaviy resurslarni aksionerlik kapitalining shakllantirishni muqobil qarorlar asosida amalga oshirish va kapitallar tarkibiy tuzilmasi siyosatini to'g'ri olib borish;
- dividend tamoyillariga qat'iy rioya qilish nazoratini o'rnatish.

Ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarishda uning asosiy ma'lumot manbai bo'lgan buxgalteriya hisobi zimmasiga ham o'ta mas'uliyatli vazifa va talablar qo'yiladiki, bu talablar negizida kompaniyalarning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oluvchi mustaqil hisob siyosati paydo bo'ladi. Bugungi kunda aksionerlik kompaniyalari hisob siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- aksionerlar investitsiyasi hisobiga tashkil qilingan asosiy va aylanma mablag'lar hisobini zamonaviy usullar hamda xalqaro standartlar asosida olib borish;
- aksionerlik kompaniyalarining moliyaviy resurslari shakllanishi va ishlatilish hisobi hamda nazoratini xalqaro tamoyillardan foydalangan holda tashkil etish;

- dividend va dividend solig'i hisobini aksionerlar manfaati hamda respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati negizida tashkil qilish.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida bildirilgan fikrlar, tushuncha va takliflar respublikamiz iqtisodiyotida zamonaviy tus olayotgan korporativ boshqaruv tizimining asosiy ma'lumot manbai bo'lgan hisob tizimida korporativ buxgalteriya hisobini tashkil qilish hamda uning konseptual asosini yaratilishida bir nazariy manba bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Eshov M.P., Abdurakhmanova G.K., Burkhanov A.U., Abdusalomova N.B. and Ergasheva S.T. (Ed.) Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS (Advanced Series in Management, Vol. 33B), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 1-4. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B001>

4. Ergasheva Sh.T., Ixamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2022. - 360 bet.

5. Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. (O'quv qo'llanma) - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2024. 204 bet.

6. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

Махкамова Саида Гайратовна

PhD, и.о. доцента кафедры «Бухгалтерский учёт и отчётность»

Ташкентский Государственный экономический университет

saidamahkamova81@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДОЛГОСРОЧНЫХ АКТИВОВ В НЕФТЕПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Введение. Нематериальные активы - это объекты имущества, не имеющие материально-вещественного содержания, которые предприятие содержит с целью использования их в процессе производства продукции, выполнения работ, оказания услуг или реализации товаров, либо для осуществления административных и иных функций в течение длительного срока (пункт 4 «а» НСБУ (Национальный стандарт бухгалтерского учета) №7 «Нематериальные активы», зарегистрированного МЮ (Министерство Юстиции) 27.06.2005 г. № 1485).

Анализ и обсуждение результатов. К нематериальным активам, в частности, относятся активы, указанные в части первой статьи 44 Налогового

кодекса, при условии, что налогоплательщик имеет исключительные права на них.

К основным законодательным актам, регулирующим операции с нематериальными активами, относятся:

Гражданский кодекс Республики Узбекистан;

Закон РУз «О государственной пошлине» от 06.01.2020 г. № ЗРУ-600 (с 07.01.2020 г.; до 07.01.2020 г. - Положение «О патентных пошлинах и платах», утв. Постановлением КМ РУз от 20.04.2006 г. № 65);

Закон РУз «О правовой охране программ для электронных вычислительных машин и баз данных» от 6.05.1994 г. № 1060-ХП;

Закон РУз «Об авторском праве и смежных правах» от 20.07.2006 г. № ЗРУ-42;

Закон РУз «О правовой охране топологий интегральных микросхем» от 12.05.2001 г. № 218-П;

Закон РУз «О товарных знаках, знаках обслуживания и наименованиях мест происхождения товаров» от 30.08.2001 г. № 267-П;

Закон РУз «О селекционных достижениях» от 30.08.1996 г. № 270-И;

Закон РУз «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах» от 6.05.1994 г. № 1062-ХП;

НСБУ № 7 «Нематериальные активы», зарегистрированный МЮ РУз 27.06.2005 г. № 1485;

Правила составления, подачи и рассмотрения заявки на выдачу патента Республики Узбекистан на полезную модель, зарегистрированные МЮ 29.04.2004 г. № 1343;

Правила составления, подачи и рассмотрения заявки на выдачу патента Республики Узбекистан на промышленный образец, зарегистрированные МЮ 20.05.2004 г. № 1361;

Правила регистрации договора о передаче права на изобретение, полезную модель, промышленный образец, селекционное достижение, товарный знак, знак обслуживания и лицензионных договоров на их использование, договоров о передаче права на топологию интегральной микросхемы, передаче всех имущественных прав и передаче имущественных прав на программу для электронных вычислительных машин или базу данных, зарегистрированные МЮ 31.03.2022 г. № 3359 (с 1.06.2022 г.; до 1.06.2022 г. - Правила, зарегистрированные МЮ 17.06.2005 г. № 1481);

Административный регламент предоставления государственной услуги по государственной регистрации договоров комплексного предпринимательского лицензирования (франшизинг), утвержденный Постановлением КМ РУз от 24.06.2022 г. № 346 (с 1.07.2022 г.; до 1.07.2022 г. - Положение «О порядке государственной регистрации договоров комплексной предпринимательской лицензирования (франшизинг)», утвержденное Постановлением КМ РУз от 04.11.2010 г. № 244);

Единое положение «О порядке лицензирования отдельных видов деятельности посредством специальной электронной системы», утвержденное Постановлением КМ РУз от 21.02.2022 г. № 80;

Единый национальный стандарт оценки Республики Узбекистан, зарегистрированный МЮ 04.06.2020 г. № 3239 (с 05.09.2020 г.; до 05.09.2020 г. - Национальный стандарт оценки имущества Республики Узбекистан (НСОИ № 13) «Оценка стоимости объектов интеллектуальной собственности», зарегистрированный МЮ 18.06.2012 г. № 2371);

Положение «О порядке таможенного оформления (декларирования) и ведения бухгалтерского учета реализации, оформления права пользования программными продуктами и информационной продукцией», утвержденное Постановлением КМ РУз от 16.08.2018 г. № 670;

Нормы международных договоров в области охраны промышленной собственности и др.

Плательщики НДС (Налог на добавленную стоимость) и юридические лица с государственной долей в уставном фонде (капитале) в размере 50% и более отражают в автоматизированной информационной системе налоговых органов «E-aktiv» информацию о всех операциях, связанных с постановкой на учет нематериальных активов:

с 1.01.2022 года до 1.03.2023 года - в добровольном порядке (пункт 2 Указа Президента РУз от 28.06.2022 г. № УП-162). При этом Информационным сообщением МФ (Министерство Финансов) и ГНК (Государственный налоговый комитет) РУз от 27.01.2022 г. (пункт 1 «б» раздела I) было предусмотрено неприменение до 1 сентября 2022 года к налогоплательщикам мер ответственности за неиспользование программного продукта «E-aktiv» (за исключением товаров, включенных в категорию пилотных).

Соответственно, предприятие-правообладатель, предоставивший в пользование другому предприятию объект нематериальные активы по лицензионному договору, сохраняет за собой исключительные права на нематериальный актив и не списывает его со своего баланса. Начисление амортизации по нематериальным активам, предоставленным в пользование, производится предприятием-правообладателем.

За право пользования объектами нематериальных активов могут быть установлены как разовые, так и периодические платежи в зависимости от условий договора. Предприятия-пользователи могут отразить платежи за право пользования объектами нематериальных активов как расходы отчетного периода, то есть признать (списать) их сразу, или отразить как расходы будущих периодов и списывать на расходы тех периодов, в течение которого договор будет действовать. Вариант отражения (списания) расходов, связанных с получением права пользования нематериальным активом, следует отразить в учетной политике предприятия.

В состав нематериальных активов в нефтеперерабатывающих предприятиях включаются права на производство продукции, выполнение работ и оказание услуг, то есть, по сути, лицензии (разрешения), которые выдаются уполномоченными органами для занятия отдельными видами деятельности.

Получение лицензии сопровождается расходами по уплате пошлины и сборов в установленном размере. Например, для получения лицензии на осуществление адвокатской деятельности следует уплатить государственную пошлину в размере 1 базовой расчетной величины. Лицензия на право занятия международными перевозками пассажиров установлена в размере от 7 до 28 БРВ за единицу транспортного средства в зависимости от его вида. То есть расходы предприятий по получению отдельных лицензии значительны. Учитывая стоимостной фактор, а также период действия лицензии, как правило, превышающий 12 месяцев, права на производство продукции (работ, услуг), - лицензии считаются также нематериальными активами. Соответственно, лицензии следует учитывать в составе прочих нематериальных активов, по ним следует начислять амортизацию в установленном порядке. Если лицензия не отвечает условиям, установленным пунктом 6 НСБУ № 7, то затраты на ее получение следует относить к расходам предприятия.

Единицей учета нематериальных активов является инвентарный объект. Инвентарным объектом нематериальных активов считается совокупность прав, возникающих из одного патента, свидетельства, договора уступки прав и т. п.

Все расходы по регистрации объектов НМА должны также включаться в их первоначальную стоимость. Следует отметить, что в 2021-2022 годах национальная регистрация товарных знаков субъектов предпринимательства - экспортеров, а также осуществляющих деятельность в сфере сельского хозяйства и ремесленничества, в общем товарообороте которых доля экспорта составляет более 60%, проводилась бесплатно.

Таким образом, включение созданного и зарегистрированного объекта НМА в состав нематериальных активов (оприходование) оформляется актом приема-передачи (в произвольной форме), который утверждается руководителем предприятия (уполномоченным лицом). К нему прилагаются документы, подтверждающие исключительные права на НМА (свидетельство, регистрация и др.). По ним бухгалтерия открывает карточку учета НМА (форма НМА-1).

Корреспонденцию счетов учета оприходования созданных нематериальных активов в нефтеперерабатывающих предприятиях республики Узбекистан можно отразить по нижеприведенной таблице 1.

Таблица 1.

Создание нематериальных активов предприятием

№	Содержание хозяйственной операции	Корреспонденция счетов	
		Дебет	Кредит
1.	Списание в состав капитальных вложений расходов по созданию нематериальных активов (расходы ОКР, материалы, оплата работников, участвующих в создании НМА,	0830 «Приобретение нематериальных активов»	1000 «Материалы», 6010 «Счета к оплате поставщикам и подрядчикам», 6990 «Прочие обязательства», 6710 «Расчеты с персоналом по оплате труда»,

	амортизация основных средств, используемых в ОКР, накладные расходы, расходы по регистрации прав и др.)		6520 «Платежи в государственные целевые фонды» и др.
2.	Оприходование (включение в состав НМА) нематериальных активов	0400 «Нематериальные активы»	0830 «Приобретение нематериальных активов»

Нематериальные активы, принятые к учету, подлежат амортизации с первого числа следующего месяца по нормам, установленным Учетной политикой предприятия.

С 1 января 2022 г. Законом РУз от 29.12.2021 г. № ЗРУ-741 в целях налогового учета введен отдельный порядок признания амортизируемых активов, формирования первоначальной стоимости, а также начисления амортизации.

Расходы по амортизации нематериальных активов с 1.01.2022 г. определяются в соответствии со статьями 306, 307 Налогового кодекса в редакции Закона РУз от 29.12.2021 г. № ЗРУ-741.

Начисление амортизации по объектам НМА начинается с даты, с которой этот актив был введен в эксплуатацию (часть тридцать четвертая статьи 306 НК).

Амортизация по нематериальным активам начисляется ежемесячно по нормам, рассчитанным налогоплательщиком исходя из первоначальной стоимости, определяемой согласно статье 306 Налогового кодекса, и срока полезного использования такого нематериального актива, но не более срока деятельности налогоплательщика (часть пятая статьи 307 НК).

НСБУ № 21 предусматривает учет сумм амортизации нематериальных активов на контрактных счетах 0510-0590. Начисленная сумма амортизации нематериальных активов (кредит счетов 0510-0590) относится в дебет счетов учета затрат на производство (издержек обращения, административных расходов и капиталовложений).

Корреспонденцию счетов учета амортизации созданных нематериальных активов в нефтеперерабатывающих предприятиях республики Узбекистан можно отразить по нижеприведенной таблице 2.

Таблица 2.

**Начисление амортизации по нематериальным активам,
принадлежащим предприятию**

Дебет	Кредит
2010 «Основное производство», 2310 «Вспомогательное производство», 2510 «Общехозяйственные расходы», 2710 «Обслуживающие хозяйства», 9400 «Расходы периода» и др.	0500 «Амортизация нематериальных активов»

С 1.01.2022 года Законом РУз от 29.12.2021 г. № ЗРУ-741 в целях налогового учета введен отдельный порядок определения первоначальной стоимости нематериальных активов, а также начисления амортизации по ним.

Первоначальная стоимость нематериальных активов, приобретенных после 31 декабря 2021 года, в целях налогообложения определяется как сумма расходов на приобретение и доведение до состояния, в котором объект нематериальный актив пригоден для использования [2].

Первоначальная (восстановительная) стоимость нематериальных активов, числящихся у предприятия по данным бухгалтерского учета по состоянию на 1 января 2021 года, определяется как их первоначальная стоимость с учетом ранее проведенных переоценок.

Таким образом, не включаются в первоначальную стоимость нематериальных активов:

- НДС, относимый в зачет в соответствии с главой 37 НК и (или) учитываемый в составе расходов в соответствии со ст. 314 НК;

- расходы по процентам и иные расходы, связанные с приобретением нематериальных активов, подлежащие вычету или учитываемые в составе расходов в соответствии с Налоговым кодексом;

- расходы, предусмотренные п. 17 ст. 317 НК.

В соответствии Постановлением Президента РУз от 20.09.2013 г. № ПП-2042 (п. 6) налогооблагаемая база по налогу на прибыль и ЕНП уменьшается на сумму средств, направляемых на приобретение программного обеспечения отечественного производства в рамках инвестиционных проектов по созданию информационных систем, включаемых в ежегодную Инвестиционную программу РУз, но не более 30 и 25% от налогооблагаемой базы соответственно по налогу на прибыль и ЕНП. При этом уменьшение производится в течение пять лет на сумму средств, направляемых на указанные цели.

В новой редакции Налогового кодекса льгота предусмотрена только для плательщиков налога на прибыль в виде инвестиционного вычета - в размере 20% (с 1.01.2022 г.; до 1.01.2022 г. - 10%) от суммы средств, направляемых на приобретение программного обеспечения отечественного производства в рамках инвестиционных проектов по созданию информационных систем.

Выводы и предложения. В современных условиях социально-экономического развития Республики Узбекистан сделан вывод о том, что выявленные изменения приблизят правила учета нематериальных активов к требованиям МСФО. Разработаны предложения по определению первоначальной стоимости объектов и сроков полезного использования НМА, начисления амортизации НМА, согласно налогового кодекса республики Узбекистан, совершенствование аналитического и синтетического учета НМА, пути совершенствования учета и налогообложения нематериальных активов, согласно налогового кодекса республики Узбекистан.

Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учёте» (новая редакция) от 13 апреля 2016 года ЗРУ № 404.

2. Закон Республики Узбекистан от 29.12.2021 г. № ЗРУ-741 «О внесении изменений и дополнений в налоговый кодекс республики Узбекистан».

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.06.2022 г. № УП-162.
4. Информационное сообщение МФ и ГНК (Государственный налоговый комитет) Республики Узбекистан от 27.01.2022 г.
5. Налоговый Кодекс Республики Узбекистан, утверждённый в новой редакции Законом Республики Узбекистан от 30.09.2019 года № ЗРУ-599.
6. Национальный стандарт бухгалтерского учёта республики Узбекистан НСБУ №7 «Нематериальные активы» зарегистрированного МЮ (Министерство Юстиции) 27.06.2005 г. № 1485.
7. Национальный стандарт бухгалтерского учёта республики Узбекистан НСБУ №21 «План счетов бухгалтерского учёта финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов и инструкция по его применению».
8. Атабаева З.А. Учётная политика организации и, её связь с налоговым планированием. International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Hamburg, Germany, 2022 - <https://econferencezone.org>. стр. 35-38.
9. Махкамова С.Г. Совершенствование учета и налогообложения нематериальных активов в хозяйствующих субъектах. Научный журнал актуальных финансов и учета. 2023 год №4, ISSN-2181-1865. 12-19 стр. <http://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2023/11/%E2%84%964.2023.12-19.pdf>

**Б.Махсудов-ТДИУ “Бухгалтерия ҳисоби”
кафедраси доценти
М.Касимова-ТДИУ тадқиқотчиси**

ИЖТИМОЙ СОҲАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ЭВОЛЮЦИЯСИ

Аннотация. Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби эволюцияси батафсил таҳлил қилинган. Шунингдек, ижтимоий ҳисобнинг моҳиятини аниқлашга оид ёндашувлар ўрганилган.

Калит сўзлар. Ижтимоий ҳисоб, ижтимоий масъулият, тавсифловчи меъзонлар, ижтимоий ҳисобот, ижтимоий омиллар, ҳисоб предмети, ҳисоб турлари, ижтимоий тадбирлар, ижтимоий харажатлар.

Ҳозирги кунгача ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг моҳияти аниқ белгиланмаган. Шу сабабдан ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби эволюциясини батафсил таҳлил қилиш керак. Бунинг учун иқтисодчи-олимлар асарларида унинг талқинини кўриб чиқиш зарур.

“Ижтимоий ҳисоб”, “Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби”, “Ижтимоий масъулиятли фаолиятни ҳисобга олиш” тушунчаларини таҳлил қилиб шуни таъкидлаш керакки, замонавий хорижий ва маҳаллий олимлар орасида бундай бухгалтерия ҳисобининг моҳияти ҳақида консенсус йўқ. Олимлар позицияларининг хилма-хиллигини [] таҳлил қиладиган бўлсак, анъанавий бухгалтерия ҳисобининг предметини кенгайтириш зарурлигига шубҳа йўқ. Иқтисодчи-олимларнинг ижтимоий соҳага йўналтирилган

бухгалтерия ҳисоби компания ҳаракатларини жамият учун фаолият оқибатларини акс эттириш учун ҳисобга олиш керак, - деган фикрга қўшиламин.

Бир қатор соҳа олимлари “ижтимоий ҳисоб” тушунчасига оид талқини моҳиятини таҳлил қилиб тавсифловчи мезонларини аниқлаган. Тадқиқотларни ўрганиш иқтисодий адабиётларда ижтимоий ҳисобнинг қуйидаги мезонларига жуда кам эътибор берилган, - деган хулосага олиб келди:

- * ҳисоб маълумотларидан фойдаланувчилар;
- * ҳисоб йўналиши;
- * ахборот манбаи;
- * услубий база;
- * ўлчовлар;
- * ҳисобот;
- * объектлар;
- * баҳолаш;
- * ҳисобнинг бошқа турларидан фарқлари;
- * ижобий ва салбий томонлари[].

Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби эволюциясининг таҳлили унинг босқичларини аниқлаш ва бизнеснинг ижтимоий масъулияти концепцияларининг назарий ва амалий жиҳатдан Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг ривожланишига таъсирини аниқлаш имконини беради.

Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг эволюцияси босқичларининг тавсифига асосланиб, шундай хулоса қилиш мумкинки, ушбу эволюция ҳар бир босқичида бизнесни ижтимоий масъулияти концепцияси ривожланиши билан ўзаро боғлиқликда ва ҳамкорликда шаклланган.

Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг пайдо бўлиш босқичида олимларнинг асосий диққат-эътибори бир вақтни ўзида ижтимоий масъулиятли фаолият ва ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг назарий қоидаларини ишлаб чиқишга қаратилди.

Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби эволюциясининг иккинчи босқичида олимларнинг тадқиқотлари корпоратив ижтимоий масъулият тушунчаси доирасида жамиятнинг ҳаракатларига (жамиятнинг қабул қилинган ҳаракатларига) жавоб бериш қобилятини янада таҳлил қилиш учун ижтимоий ҳисобот кўрсаткичларини аниқлашга қаратилган. Ушбу босқичнинг натижаси назарий ишланмаларни амалиётда қўллаш имконияти билан изоҳланади. Ушбу ишланмалар сифатида хусусан, М.Р. Мэтьюс ва М.Х.Б. Перера [3] томонидан тақлиф этилган ижтимоий бухгалтерия ҳисоби таснифи асосида шакллантириладиган ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби объектларини ишлатиш мумкин.

Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия эволюциясининг кейинги босқичи бизнеснинг корпоратив ижтимоий фаолияти концепциясини ишлаб чиқиш билан боғлиқдир. Корпоратив ижтимоий фаолият тушунчасида

хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳаракатлари катта аҳамиятга эга эканлиги сабабли бундай ижтимоий ҳаракатлар натижаларини акс эттирувчи маълумотлар билан таъминлашда ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг роли янада ошади.

Таъкидлаш жоизки, ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби эволюциясининг сўнгги босқичи вакиллари бухгалтерия ҳисоби тизимида ижтимоий ҳисобот кўрсаткичларини шакллантириш жараёнига қараганда, ижтимоий ҳисоботни шакллантириш жараёнига кўпроқ эътиборларини қаратди. Натижада ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобини моҳиятига оид масалалар олимларни назарларидан бир оз четда қолди.

Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг моҳиятига оид тадқиқотларда ушбу тушунчанинг таърифига а алоҳида эътибор қаратилади. Шу муносабат билан ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг моҳиятини аниқлашга доир ёндашувларни тизимлаштириш катта аҳамият касб этади. Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг эволюцияси босқичларини таҳлил қилиш соҳа олимлари ўртасида узоқ вақт давомида ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг моҳиятига оид ягона ёндашув шаклланмаганлигини кўрсатди.

Олимларнинг ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг моҳиятини ўрганишга бўлган ёндашувларини тизимлаштиришга характ қилинди. Унда қуйидаги ёндашувларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

* тор маънода ижтимоий ҳисоб фаолият субъекти бўлган ва атроф-муҳит ифлосланишини бартараф этиш ёки камайтиришга йўналтирилган меҳнат ресурслари, маҳсулот ва хизматлар ҳақида маълумот беради;

* кенг маънода қаралганда ижтимоий бухгалтерия ҳисоби жамият томонидан тадбиркорлик субъектлари фаолияти натижасида сарфланадиган харажатларни акс эттиради;

* ижтимоий ҳисоб-бухгалтерия ҳисобининг алоҳида тури ҳисобланмайди, балки бухгалтерия ҳисоби предметининг кенгайтмаси ҳисобланади [4].

Ижтимоий ҳисобнинг моҳиятини аниқлаш бўйича ёндашувларни таҳлил қиладиган бўлсак, ҳозирги кунда анъанавий бухгалтерия ҳисобининг предметини кенгайтириш зарурати пайдо бўлди. Чунки у хўжалик юритувчи субъектларнинг атроф-муҳит ва жамият ривожланишига таъсири натижалари ҳақидаги маълумотларни акс эттирмайди.

Шуни таъкидлаш керакки, Р.Моттесич [5], М.Р.Мэтьюс, М.Х.Б.Перера [3], Л.Д.Паркер ва Р.Грей каби хорижлик олимлар бухгалтерия ҳисоби предметини кенгайтириш зарурлигини ўз асарларида илмий асослаган. Д.Паркер ва Р.Грейни фикрига кўра, мазкур жараён бухгалтерия ҳисобини мақсади маълумотларни очиқлиги бўлган истиқболдаги эволюцион ривожланишида анъанавий бухгалтерия ҳисоби эътибор қилмаётган ташқи таъсирлар ҳисобга олиниши зарурати билан изоҳланади [6].

Профессорлар Я.В.Соколов ва В.Я.Соколов ҳам худди шундай фикрда. Уларни фикрича, ижтимоий ҳисоб “бу бухгалтерия ҳисобининг мустақил бир тури эмас, балки анъанавий бухгалтерия ҳисобининг чегараларини кенгайтирилиши, холос”[5].

Олимлар бундай ҳисобнинг моҳиятини изоҳловчи қуйидаги иккита йўналишни ажратиб кўрсатади:

1. Маълумот фойдаланувчиларининг ўсиб бораётган талабларидан келиб чиқиб, бухгалтерия ҳисоботи кўрсаткичлари сонини ошириш зарурати билан боғлиқ.

2. Ижтимоий харажатлар билан боғлиқ йўналиш [2].

Юқоридаги мулоҳазаларнинг мантиқий давоми сифатида ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг муаллифлик таърифи шакллантирилди. Унга кўра “Ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби-ижтимоий дастурларни (тадбирлар) молиялаштириш ҳолати ва натижалари ҳақидаги ишончли ва холис ахборотни фойдаланувчилар учун аниқлаш, ўлчаш, қайд этиш, тўплаш, умумлаштириш, сақлаш ҳамда узатиш жараёнидир”.

Шундай қилиб, ушбу тадқиқот якунида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

- ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг эволюцияси босқичлари таҳлили бизнеснинг ижтимоий масъулияти концепциясини назарий ва амалий жиҳатдан ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисобининг ривожланишига таъсири юқори эканлигини кўрсатди. Шунингдек, бизнесни ижтимоий масъулияти концепцияси ижтимоий соҳага йўналтирилган бухгалтерия ҳисоби билан ўзаро боғлиқликда ва ўзаро ҳамкорликда ривожланмоқда;

- бухгалтерия ҳисобида хўжалик юритувчи субъектларнинг атроф-муҳит ва жамият тараққиётига таъсири ҳақидаги маълумотлар акс эттирилмаганлиги сабабли анъанавий бухгалтерия (молиявий) ҳисобининг предметини кенгайтириш зарурати ўртага чиқмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алигаджиева Е.М. Эколого-социальный учет и анализ корпоративной отчетности в условиях МСФО : автореф. дис. ... канд. эконом. наук : 08.00.12 / Е.М. Алигаджиева. – Орел, 2010. – 24 с. Богданова, Ж. А. Развитие социального учета: определение основных понятий / Ж.А. Богданова // Инновац. экономика. – 2013. – № 7. – С. 293–296. Бухгалтерский учет, контроль и анализ: социальные ориентиры: Результаты научных исследований проблем бухгалтерского учета и контроля Житомирской научной бухгалтерской школы: Монография / [Ф.Ф. Бутынец и др.]; под общей ред. [и с предисл. Ф.Ф. Бутынца. – Житомир: ЖГТУ, 2008. – 484 с. Жиглей И. В. Бухгалтерский учет социально-ответственной деятельности субъектов хозяйствования: необходимость и ориентиры развития / И. В. Жиглей. — Житомир: ЖДТУ, 2010, – 495 с. История бухгалтерского учета: учебник [Электронный ресурс]. – Региональный финансово-экономический институт. – Курск, 2009. –108 с. Режим доступа к ресурсу: <http://lib2.rfei.ru/system/206>.

2. Богданова Ж.А. Развитие социального учета: определение основных понятий [Текст] / Ж.А. Богданова // Инновационная экономика. – 2013. – №7. – С. 293-296.

3. Мэтьюс М.Р. Теория бухгалтерского учета: учебник / М.Р. Мэтьюс, М.Х.Б. Перера [Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова, И.А. Смирновой]. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 1999. – 663 с.

4. Жиглей И.В. Бухгалтерский учет социально-ответственной деятельности субъектов хозяйствования: необходимость и ориентиры развития [Текст]: монография / И.В. Жиглей. – Житомир: ЖДТУ, 2010. – 495 с.

5. Соколов Я.В. История бухгалтерского учета [Текст]: учеб. / Я.В. Соколов, В.Я. Соколов. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 272 с.

6. Хорн Д.К. Основы управления финансами / Д.К. Хорн [Пер. с англ. / Гл. ред. серии Я.В.Соколов.]. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 800 с.

Mominova Munisa Davronbekovna

QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Anotatsiya. Mazkur tezis Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning dolzarb masalalarini o‘rganish va samarali yechimlarni taklif qilishga qaratilgan. Qurilish sohasining maxsus sharoitlari, murakkab loyihalar va bir-biriga bog‘liq jarayonlar buxgalteriya hisobini tashkil qilishda ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tezisdagi zamonaviy axborot texnologiyalari, me‘yoriy hujjatlar talablari hamda xalqaro hisoblash standartlaridan foydalanish orqali buxgalteriya hisobini samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotlarning aniqroq va shaffof bo‘lishi, soliq nazorati va auditorlik faoliyatini soddalashtirishga erishish uchun zarur bo‘lgan amaliy tavsiyalar berilgan. Tezis natijasida, Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘z: buxgalteriya hisobi, Qurilish tashkilotlari, hisoblash standartlari, axborot tizimlari, moliyaviy hisobotlar, samaradorlik.

Zamonaviy iqtisodiyotda Qurilish sohasi har bir mamlakatning infrastrukturani rivojlantirish va iqtisodiy o‘rinishga erishishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Qurilish tashkilotlari murakkab loyihalar, katta miqdordagi resurslar va turli xil shart-sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, buxgalteriya hisobi tizimining samaradorligi va aniq bo‘lishi ayniqsa muhimdir. Buxgalteriya hisobi – bu korxonaning moliyaviy holati, faoliyat natijalari va mablag‘ aylanishini monitoring qilish uchun zarur vosita bo‘lib, uning to‘g‘ri tashkil etilishi tashkilotning barqaror ishlashiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib, bu jarayonni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalar, me‘yoriy hujjatlar talablari va xalqaro standartlardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tezisdagi

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'llari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan.

Qurilish sohasining boshqa iqtisodiy sektorlardan farqli jihatlaridan biri – bu uning murakkab tuzilishi va uzun muddatli loyihalar bilan bog'liqligi. Qurilish tashkilotlarida quyidagi maxsusliklar mavjud:

1. Loyihalar uzun muddatli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Qurilish loyihalari bir necha oydan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Bu esa buxgalteriya hisobida moliyaviy operatsiyalarni aniqlash va ularga to'g'ri baholashni qiyinlashtiradi.
2. Katta miqdordagi materiallar va resurslar ishlatiladi. Qurilish jarayonida turli xil materiallar, jihozlar va energiya resurslari ishlatiladi. Ularning har biri alohida hisob-kitoblar va soliq imtiyozlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.
3. Bir nechta tomonlar ishtirok etadi. Loyihalar ustida buyurtmachi, podryadchilar, investorlar, auditorlar va boshqa subpodryadchilar ishlaydi. Har bir tomonning moliyaviy manfaatlari va talablari buxgalteriya hisobiga ta'sir ko'rsatadi.
4. Tabiiy va iqtisodiy sharoitlar o'zgaruvchan. Qurilish jarayoni tabiat sharoitlari, narxlarning o'zgarishi va siyosiy omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Bu esa moliyaviy hisobotlarni tuzishni murakkablashtiradi.

Shuning uchun ham Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimi faqat moliyaviy hisobotlarni tuzish bilan cheklanmay, balki strategik qarorlar qabul qilish va resurslarni samarali boshqarish uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi tizimini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarur:

1. Aniqlik va shaffoflik tamoyili. Barcha moliyaviy operatsiyalar to'liq va aniq ravishda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Shu bilan birga, hisobotlar tushunarli va tahlil qilishga qulay bo'lishi lozim.
2. Doimiylik tamoyili. Hisoblash usullari va mezonlari loyihaning boshlanishidan tugashigacha o'zgarimas holda saqlanishi kerak.
3. Teng huquqlik tamoyili. Barcha tomonlar (buyurtmachi, podryadchi, investorlar) uchun teng huquqli hisobotlar tayyorlanishi kerak.
4. Xavfsizlik va himoyalanganlik tamoyili. Moliyaviy ma'lumotlar ishonchli va himoyalangan bo'lishi lozim. Ma'lumotlarning yo'qolishi yoki buzilishi oldini olish uchun maxsus choralar ko'rilishi kerak.
5. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tamoyili. Zamonaviy dasturiy ta'minotlar va axborot tizimlaridan foydalanish orqali hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va xatoliklarni kamaytirish mumkin.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga oid bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarga quyidagilar kiradi:

1. Hisoblash usullarining noaniqligi. Ba'zi hollarda moliyaviy operatsiyalar to'g'ri baholanmasligi yoki noto'g'ri hisobga olinishi mumkin. Masalan, materiallar va ishlar qiymatini aniqlashda xatoliklar yuz berishi mumkin.
2. Me'yoriy hujjatlarning noaniqligi. Davlat tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar ba'zan noaniq yoki kontradiktuar bo'lishi mumkin, bu esa hisob-kitoblarni murakkablashtiradi.

3. Texnologik jihatdan qulay bo'lmagan tizimlar. Ko'plab tashkilotlar hali ham qog'oz asosidagi hisob-kitoblardan foydalanadi yoki eskirgan dasturiy ta'minotlardan foydalanadi. Bu esa xatoliklar va ma'lumotlarning yo'qolishiga olib keladi.
4. Kadrlar yetukligining kamligi. Zamonaviy buxgalteriya tizimini boshqarish uchun malakali mutaxassislariga ehtiyoj bor, ammo bunday kadrlar kamtar bo'lishi mumkin.
5. Solishtirma hisobotlarning kamligi. Qurilish tashkilotlarida loyihalar uzun muddatli bo'lganligi sababli, moliyaviy holatni solishtirish va tahlil qilish qiyinlashadi.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun quyidagi yo'llardan foydalanish mumkin: Zamonaviy buxgalteriya dasturlari (masalan, 1C:Enterprise, SAP, Oracle) hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni integratsiyalash imkonini beradi. Bu esa xatoliklarni kamaytirish va ishlarni tezlashtirishga olib keladi.

Xalqaro hisoblash standartlari (IFRS) Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni global darajada tan olinadigan shaklda tayyorlashga imkon beradi. Bu esa investorlar va auditorlar bilan hamkorlikni osonlashtiradi.

Buxgalteriya xodimlarini zamonaviy texnologiyalar va me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish uchun doimiy ta'lim kurslari va seminarlar o'tkazish zarur.

Davlat tomonidan me'yoriy hujjatlarni yanada tushunarli va aniqroq qilish kerak. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy stimullarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilishi lozim.

Qurilish loyihalarini bosqichma-bosqich monitoring qilish uchun maxsus tizimlar joriy etish zarur. Bu tizimlar yordamida loyihaning moliyaviy holati va rejalashtirilgan natijalar solishtirilib, o'zgarishlar vaqtida aniqlanishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- Avtomatlashtirishni oshirish: Qurilish jarayonida ishlatiladigan barcha resurslar va operatsiyalar avtomatik ravishda kiritiladigan tizimlarni joriy etish.
- Moliyaviy risklarni boshqarish: Risklarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirish uchun maxsus algoritmlardan foydalanish.
- Shaffoflikni oshirish: Barcha moliyaviy operatsiyalar va hisobotlar ochiq va tushunarli bo'lishi kerak.
- Auditni muntazam o'tkazish: Tashkilot faoliyatini muntazam ravishda tekshirib turish orqali xatoliklarni oldini olish.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish – bu faqat hisob-kitoblar bilan cheklanmaydigan, balki butun tashkilot faoliyatini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan jarayondir. Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro standartlar va malakali kadrlar bilan ta'minlangan holda buxgalteriya hisobi tizimi Qurilish tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va strategik maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, bu sohaga alohida e'tibor qaratish va doimiy takomillashtirish ishlarini olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdukarimov, A. (2020). *Zamonaviy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar*. Toshkent: Ilm Ziyo. Buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi haqida batafsil ma'lumotlar.
2. Ibragimov, R., & Karimov, S. (2019). *Qurilish sohasida moliyaviy boshqaruv va hisoblash standartlari*. Toshkent: Universitet nashriyoti. Qurilish tashkilotlarida xalqaro hisoblash standartlaridan foydalanish va moliyaviy hisobotlarni shaffoflashtirishga bag'ishlangan.
3. Xasanov, Z. (2021). *Axborot texnologiyalari orqali buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish*. Toshkent: Fan va texnologiya. Qurilish tashkilotlarida zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanish va buxgalteriya jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.
4. International Financial Reporting Standards (IFRS) Foundation. (2022). *IFRS Standards 2022*. London: IFRS Publications. Xalqaro hisoblash standartlarining eng so'nggi versiyasi, jumladan Qurilish sohasidagi loyihalar uchun qo'llaniladigan mezonlar.
5. Mirzaev, N. (2018). *Buxgalteriya hisobi va audit: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O'zbekiston. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini o'zaro bog'liqligi va samaradorligini oshirish yo'llari.
6. Rahmonov, Sh. (2020). *Moliyaviy boshqaruv va monitoring tizimlari*. Toshkent: Ilm-fan. Moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etish va ularni Qurilish loyihalarida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar.
7. Sattorov, A. (2019). *Qurilish sohasida soliq siyosati va moliyaviy barqarorlik*. Toshkent: Sharq. Qurilish tashkilotlarida solishtirma hisobotlar va soliq imtiyozlaridan foydalanishning ahamiyati.
8. Tursunova, M. (2021). *Zamonaviy buxgalteriya dasturlari va ularning amaliy tatbiqi*. Toshkent: Innovatsion ta'lim. 1C:Enterprise, SAP, Oracle kabi zamonaviy dasturlarning Qurilish tashkilotlarida qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumotlar.
9. Usmonov, K. (2020). *Qurilish loyihalarida risk boshqaruv va moliyaviy tahlil*. Toshkent: Ilm va ijtimoiy rivojlanish. Qurilish loyihalarida moliyaviy risklarni aniqlash va ulardan himoyalash usullari.
10. Warren, C. S., Reeve, J. M., & Duchac, J. (2020). *Accounting (27th Edition)*. Boston: Cengage Learning. Butun dunyo bo'ylab tan olingan buxgalteriya fanining klassik qo'llanmasi, jumladan Qurilish sohasidagi hisob-kitoblarga oid misollar va tahlillar.

Murodova E'zoza Maqsud qizi
“TDIU” Magistr ta'lim bosqichi talabasi

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB TIZIMINI RIVOJLATIRISHDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bu moliyaviy axborotni tayyorlash va taqdim etish uchun qabul qilingan global talablar

majmui bo'lib, ularning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotni transparant, solishtirish mumkin va ishonchli qilishdir. O'zbekiston Respublikasi hisob tizimini rivojlantirishda MHXS joriy etilishi mamlakat iqtisodiyoti integratsiyasini kuchaytirish, xorijiy investorlarni jalb qilish va biznes-muhitni yaxshilash uchun muhim rol o'ynaydi. Mazkur tadqiqotda MHXS ning O'zbekiston hisob tizimidagi o'rni, ahamiyati hamda amaliy jihatdan qo'llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushbu standartlarga o'tish jarayonida tug'iladigan muammolar va ularga yechim topish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, MHXS, O'zbekiston, hisob tizimi, transparantlik, investorlar, iqtisodiy integratsiya, solishtirish mumkinlik, hisob haqi.

Zamonaviy iqtisodiyotda mamlakatlar orasidagi iqtisodiy integratsiya, investorlar faolligining oshishi va global savdo aloqalarining kengayishi bilan moliyaviy axborotning transparantligi va ishonchliligi muhim omilga aylandi. Moliyaviy hisobot – bu korxonalar faoliyatining natijalarini, moliyaviy holatini va naqd pul oqimlarini aks ettiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Xalqaro bozorda raqobatbardoshlikka erishish uchun mamlakatlarning moliyaviy hisobot tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati kuchayib bormoqda. Shu kontekstda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) juda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida hisob tizimini yanada rivojlantirishga intilib kelmoqda. Mazkur maqolada MHXS ning O'zbekiston hisob tizimidagi o'rni, ahamiyati hamda amaliy jihatdan qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards – IFRS) – bu moliyaviy axborotni tayyorlash va taqdim etish uchun ishlab chiqilgan global talablar majmui bo'lib, ularni Xalqaro Hisobga Olish Standartlari Kengashi (IASB) tomonidan ishlab chiqiladi va nashr etiladi. MHXS asosiy maqsadi moliyaviy hisobotni transparant, solishtirish mumkin va ishonchli qilishdir. Ular quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- **Transparantlik:** Korxonalarining moliyaviy holati va faoliyati haqidagi axborotni ochiq va tushunarli tarzda taqdim etish.
- **Solishtirish mumkinlik:** Har xil davlatlarda joylashgan korxonalarining moliyaviy hisobotlarini bir-biri bilan solishtirish imkonini beradi.
- **Ishonchlilik:** Moliyaviy axborotning aniqligi va ob'ektivligini ta'minlash.

MHXS dunyo miqyosida qabul qilingan va 140 dan ortiq mamlakatda qo'llaniladi. Ular korxonalarining moliyaviy hisobotlarini tuzishda eng yuqori darajadagi talablarni belgilaydi va investorlar, auditorlar, kredit institutsiyalari va boshqa foydalanuvchilar uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi.

MHXS ning O'zbekiston hisob tizimini rivojlantirishdagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanib, xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. Biroq, mamlakatning hisob tizimi hali ham mahalliy standartlar asosida ishlayapti va bu, xorijiy investorlar uchun qiyinchiliklar tug'diradi. MHXS ni joriy etish orqali O'zbekiston quyidagi yo'nalishlarda o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin:

- Investorlarni jalb qilish: MHXS korxonalarining moliyaviy axborotini transparent va solishtirish mumkin qiladi, bu esa xorijiy investorlar uchun ishonchni oshiradi.
- Iqtisodiy integratsiya: MHXS ga o'tish orqali O'zbekiston xalqaro iqtisodiyotga yaqinroq turadi va global bozorga kirish imkonini oladi.
- Hisob tizimini modernizatsiya qilish: Mahalliy standartlardan MHXS ga o'tish jarayoni hisob tizimini takomillashtirish va zamonaviy usullarni joriy etishga olib keladi.

MHXS ni joriy etishning ustunliklari. MHXS ni joriy etish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bir qator ustunliklarni o'z ichiga oladi:

- Investorlar uchun ishonchni oshirish: MHXS korxonalarining moliyaviy axborotini aniq va ob'ektiv ravishda taqdim etadi, bu esa investorlar uchun qaror qabul qilishni osonlashtiradi.
- Kredit olish imkoniyatini oshirish: Banklar va boshqa kredit institutsiyalari korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda MHXS asosida tayyorlangan hisobotlarga ishonch bilan tayanishi mumkin.
- Global standartlarga moslashuvchanlik: MHXS ga o'tish orqali O'zbekiston korxonalarini xalqaro bozorga osonroq kirish imkonini oladi.
- Tadbirkorlik muhitini yaxshilash: Transparentlik va ishonchlilikni oshirish orqali biznes-muhitni yaxshilash mumkin.

MHXS ni joriy etishda tug'iladigan muammolar. MHXS ni O'zbekiston hisob tizimiga joriy etish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud:

Mahalliy standartlar bilan farqlar: O'zbekistonning mahalliy hisob standartlari MHXS bilan bir qancha jihatlar bo'yicha farq qiladi, bu esa o'tish jarayonini murakkablashtiradi.

- Kadrlar kamchiligi: MHXS bilan ishlash uchun malakali mutaxassislar yetarli emas, bu esa korxonalarda standartlarni to'g'ri qo'llashni qiyinlashtiradi.
- Texnik resurslar kamchiligi: MHXS talablariga javob beradigan zamonaviy hisob dasturlari va texnologiyalar kamtarafli.

Muammolarga yechim topish yo'llari. Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash: MHXS bilan ishlash uchun malakali mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus kurslar va o'quv dasturlari joriy etish.
- Xalqaro tajriba bilan tanishish: MHXS ni muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlardan tajriba olish va uni O'zbekistonda qo'llash.
- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: MHXS talablariga javob beradigan hisob dasturlarini kiritish va ularni keng qo'llash.

Xulosa. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi hisob tizimini rivojlantirishda MHXS ni joriy etish investorlarni jalb qilish, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va biznes-muhitni yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Biroq, MHXS ga o'tish jarayonida tug'iladigan muammolarni hal qilish uchun hamda bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Kelajakda O'zbekiston MHXS ni to'liq joriy etish orqali xalqaro iqtisodiyotga yaqinroq turishi va o'zining iqtisodiy potensialini yanada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Financial Reporting Standards (IFRS) – Xalqaro Hisobga Olish Standartlari Kengashi (IASB) Muallif: IASB (International Accounting Standards Board.). Chop etilgan yili: Doimiy yangilanib turadi (oxirgi versiyasi 2023-yil).
2. "Moliyaviy Hisobot: Nazariya va Amaliyot". Muallif: Robert N. Anthony, David F. Hawkins. Nashriyot: McGraw-Hill Education. Chop etilgan yili: 2019
3. "Xalqaro Moliyaviy Hisobotlash Standartlari: Amaliy Qo'llanma". Muallif: Barry J. Epstein, Eva K. Jermakowicz. Nashriyot: Wiley. Chop etilgan yili: 2021
4. "O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy Hisobot Tizimi va Xalqaro Integratsiya". Muallif: A. M. Toshpulatov. Nashriyot: O'zbekiston Milliy Universiteti. Chop etilgan yili: 2020
5. "Moliyaviy Boshqaruv va Hisobotlash: Zamonaviy Yondashuvlar". Muallif: Charles T. Horngren, Gary L. Sundem, John A. Elliott. Nashriyot: Pearson Education. Chop etilgan yili: 2022

Onorboev Shuhratjon Mirzaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

BIZNES MUVAFFAQIYATINI TA'MINLASHDA RAQOBAT QURILMASINING O'RNI.

Annotatsiya. Xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan maxsulotning bozor talablariga mos bo'lishi bugungi kunda sub'ektni iqtisodiy faoliyatini belgilovchi omil bo'lishi bilan birgalikda mamlakat iqtisodiy xafsizligini ta'minlashning xam birlamchi vositalaridandir. Shuning uchun bugungi kunda maxsulotni bozor talablariga mosligini shakllantirish jarayonini va uning darajalarini belgilovchi turli omillarni nomoyon bo'lishi xususiyatlarini belgilash, sub'ektning raqobat kurashini tashkil etish qurilmasini, uning barqarorligini ta'minlashga sharoit yaratadigan omillarni aniqlash, ularni hisobga olgan xolda uning modelini shakllantirish dolzarb vazifadir. Bozor faoliyatini va raqobatni tashkil etishda raqobat qurilmasini samarali qo'llash, xar bir vaziyat uchun a'loxida moslashuvchan unsurlardan foydalanish bozorda raqobat ustunligini ta'minlash uchun muximdir. Xo'jalik sub'ektlari raqobat faoliyatini olib borar ekan, bozorning talablarini va uning chegaralarini farqlab olish lozim. Chunki bugungi kunda bozorlar shakllangan bo'lib, ularda ma'lum o'ziga xos qadamlarni tashlash shunga mos xolda tavakkalchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin, ayniqsa kichik korxonalarda ma'lum bir kutilmagan xarajatlarni chaqirishi va bunday xarajatlar sub'ektni iqtisodiy axvolini yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ushbu ishda kichik iqtisodiy sub'ektlar uchun raqobat kurashini olib borish qurilmasini shakllantirish xamda uni o'ziga xos tomonlari xaqida fikr yuritishga xarakat qilindi.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, maxsulot raqobatbardoshligi, bozordagi muvafaqiyat, raqobatchilar, mahsulotlar, raqobat qurilmasi, boshqaruv, raqobat qurilmasini shakllantirish.

Kirish. Milliy bozorlarning global bozorlarga integrallashuvi, investitsion va innovatsion jarayonlarning ortib borishi ichki va tashqi bozorlarda raqobat kurashining kuchayishiga olib keldi. Bozor ishtirokchilari safi turli yetakchi firmalar bilan to'lib borishi yuz berib, bozorda o'z o'rnini saqlash uchun kurashning kuchayishi kuzatildi. Bunday sharoitda kichik korxonalar oldida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning bozor talablariga mosligi ko'rsatkichini bozordagi yetakchi ishtirokchilar darajasiga yetkazish yoki iste'molchilarning keng ommalari talablariga moslashtirish kabi vazifalar paydo bo'ladi. Maxalliy kichik korxonalarining moliyaviy xolatini hisobga olganda o'zgarib borayotgan bozor talablariga moslashish jarayoni kichik biznes vakillariga raqobatda ustunlikni saqlab qolish va samarali raqobatni olib borish uchun ma'lum bir vositalardan foydalanishni zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda raqobatda ustunlikni shakllantira olmaslik kichik biznes vakillari uchun faoliyatni to'xtatilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bugungi kuchli raqobat sharoitida kichik biznes vakillari uchun bozorda barqaror raqobat faoliyatini ta'minlaydigan raqobat qurilmalarini shakllantirish muxim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu ishda biznes sub'ektlari tomonidan raqobatda ustunlikni ta'minlashda foydalaniladigan raqobat qurilmasi va uni shakllantirish to'g'risida so'z yuritiladi.

Adabiyotlar sharxi. “Raqobat kompaniyaning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishini belgilaydigan asosiy omildir” (M. Porter. 2018).

“Raqobat strategiyasi kompaniyaga tarmoqda raqobat kurashini belgilaydigan kuchlarning bosimiga dosh berishga imkon beradigan barqaror va foydali o'ringa erishishga qaratilgan” (M. Porter. 2018).

“Qiymat - boshqaruv sub'ekti yoki ob'ektidan ko'ra alohida narsa bo'lib, egalik qiladi (o'z ichiga oladi), saqlab qolishga yoki kelajakda ega bo'lishga intiladi” (A. Fatxutdinov, 2000).

“Strategik marketingning vazifalaridan biri qadrlı qiymatni o'rganish, qadrlı bo'lgan mahsulotlarni tanlash, tovarlar raqobatbardoshligini me'yoriy parametrlarini shakllantirishdir”

(A. Fatxutdinov, 2000).

Tadqiqot metodologiyasi. Xo'jalik sub'ektlari faoliyatida raqobatda ustunlikni ta'minlashga xizmat qiladigan kuzatish, baxolash, taqqoslash, taxlil, sintez, induksiya, deduktsiya, mantiqiy xulosalash kabi usullar ishni metodologik asoslarini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Bugungi kunda maxsulot xaridorgirligi kategoriyasi turli tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ular tomonidan taklif qilingan turli shaxsiy yondoshuvlardan tashkil topadi. Raqobatbardoshlik, maxsulot xaridorgirligi, raqobat kurashi kabi tushunchalar juda ko'p omilli kategoriyalar bo'lganligi sababli ushbu tushunchalarni ma'lum bir omillar yordamida tafsiflashga xarakterlar qilingan. Shuning uchun raqobatbardoshlik, maxsulot xaridorgirligi, raqobat kurashi kategoriyalari to'liq tafsiflashga sharoit yaratadigan xamda barcha tomonidan e'tirof etilgan, umumqabul qilingan yagona uslubiyoti mavjud emas. Raqobatbardoshlik bozor talabini qondirish orqali shakllanganligi bois ushbu kategori bozor bilan bog'li tushunchadir.

Raqobatbardoshlik maxsuloting nafililigini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimiga kiradi. Raqobatda ustunlik tushunchasi bozor talabini maksimal darajada o'zida mujassamlashgan maxsulotni bozorga taklif qilishni anglatadi. Porter raqobatda ustunlik kompaniyani bozordagi muvafaqiyatli faoliyati deb tafsiflaydi. Faxutdinov A. ishlab chiqarish jarayonida faqat iste'molchilar e'tirof etgan maxsulotni ishlab chiqarish lozimligini uqtiradi. Maxsulot raqobatbardoshligini Fatxutdinov A. maxsulotdan olinadigan naf bilan uni jalb qilish va undan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar nisbati orqali tafsiflaydi.


Bugungi bozorda taklif qiluvchilarning sonini keskin ortib borishi sharoitida raqobatda ustunlik orqali tarmoqda foyda olish imkoniyati yaratilishi mumkin. Maxsulot xaridorliligi ishlab chiqaruvchining raqobatda ustunligining birinchi sharti bo'lib, raqobatbardoshlikka uning omillarini to'liq hisobga olish orqali erishish mumkin. Maxsulot xaridorliligi deganda sifatli, narxi sifatiga mos va foydalanish jarayonida qulay bo'lgan maxsulotni tushunish mumkin. Iste'molchilar talablariga mosligi mavjud, ular tomonidan ma'lum qadr va qimmatga ega bo'lgan maxsulot xaridorlar nazariga tushush extimoli katta bo'lib, shunday maxsulotlarni sotish foydani xamda ishlab chiqarish xajmlarida samarani ta'minlash mumkin. Maxsulot raqobatbardoshligini ta'minlash avvalo raqobatbardoshlikni miqdoriy ko'rsatkichlar orqali ifodalash, uning miqdorlariga baxo berish va shundan keyin maxsulot raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ma'lum boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maxsulot raqobatbardoshligi to'g'risidagi mukammal shakllantirilgan ma'lumotlar ishlab chiqarish sub'ektining bozorda raqobat kurashini olib borish usulini va uning vositalarini ishlab chiqarishga asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish sub'ektining bozorda raqobat kurashini olib borish uslubi ishlab chiqarish jarayoni keng qamrovli bo'lib ushbu jarayon bir qator omillarni keng taxlili qilish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, biznes sub'ekti o'z kurash modelini qurish jarayonida avvalo hisobga olish lozim bo'lgan omillarni aniqlashi va ularning hissalarini aniqlash usullarini ishlab chiqish lozim. Ilmiy adabiyotlarda bozorda raqobat kurashi modelini qurishda qatnashadigan ananaviy omillar keltirilgan bo'lib, ularga quyidagilarni keltirish mumkin. Ishlab chiqarish sub'ektining raqobat bo'yicha qaysi tarmoqqa tegishli ekanligi omili. Chunki aynan tarmoq xususiyati orqali tarmoqda raqobat kurashini belgilanadi. Sub'ekt tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda raqobat kurashi vositalarini tanlashi mumkin. Raqobatning bunday vositalariga maxsulotni narx siyosati, ishlab chiqarish xajmlarini belgilash siyosati, maxsulotni sifat siyosati, marketing siyosati va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu raqobat vositalari yordamida raqobat sub'ektining raqobat kurashini olib borish modelini shakllantirish mumkin. Bunday model xar bir raqobat ishtirokchisi uchun aloxida, ichki xususiyatlarini hisobga olgan xolda ishlab chiqarilishi lozim.

Raqobat sub'ektining raqobat kurashi olib borish qurilmasini shakllantirish quyidagi tartibda olib borilishi mumkin. Avvalo raqobat kurashini olib borish qurilmasini ishlab chiqishning maqsadi aniqlanadi. Shundan keyin tarmoqda raqobatchilar tomonidan qo'llanilayotgan raqobat kurashi qurilmalari taxlili amalga oshiriladi. Ushbu ma'lumotlar xamda raqobat sub'ektining ichki va tashqi raqobat

zaxiralari taxlili ma'lumotlaridan foydalangan xolda raqobat kurashini olib borish qurilmasi modeli ishlab chiqiladi. Raqobat kurashi qurilmasidan foydalanish jarayonida uning yutuq va kamchiliklari taxlili amalga oshirilib boriladi va uni doimiy takomillashtirish amalga oshiriladi.

Raqobat kurashini olib borish qurilmasi modeli.



1- Rasm. Raqobat kurashini olib borish qurilmasi modeli.

Raqobat kurashini olib borish qurilmasini ishlab chiqish jarayonida raqobatchilar tomonidan samarali qo'llanilishi yo'lga qo'yilgan raqobat kurashi modellari chuqur taxlil qilishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Chunki tarmoqda mavjud bo'lmagan raqobat kurashi qurilmalarini ishlab chiqarish kichik biznes sub'ekti uchun moddiy tomondan ko'p xarajatlarni talab qilishi mumkin va shu bilan birgalikda tayyor bo'lgan qurilmani raqobatchilar tomonidan oson o'zlashtirilishi mumkin. Ikkinchi tomondan bunday yangi raqobat kurashi qurilmalarini qo'llash raqobatchilar tomonidan xaf sifatida qabul qilinishi mumkin va qarshi xarakatlarni yuzaga keltirishi orqali raqobat kurashini kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Raqobat kurashi qurilmasini samarali qo'llashni ta'minlash tarmoqni rivojlanishi natijasida raqobat kurashida yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olib xolda raqobat qurilmasini doimiy takomillashtirish borishni ta'minlashni taqozo etadi. Chunki bugungi kunda tarmoqda o'zgarishlar chastotasi tezlashib borishi tendentsiyasi kuzatilmoqda va bunday o'zgarishlarning raqobat qurilmasini takomillashtirishda doimiy hisobga olmaslik uning samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun raqobat sub'ektlari raqobat kurashi qurilmasini shakllantirishda 1 – rasmda keltirilgan model asosida raqobat kurashini olib borishning raqobat sub'ekti xususiyatlarini hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan qurilmasini shakllantirib olishlari mumkin.

Raqobat kurashini tashkil etish qurilmasini samarali shakllantirish uchun yuqoridagi modelda keltirilgan vazifalarni aniqlashtirish, ularni ma'lum bir

bajarilishi lozim bo'lgan amaliyotlari ro'yxati tarzida shakllantirib olishlari talab qilinadi. Masalan raqobat kurashi qurilmasining shakllantirishning maqsadlari aniqlashtirilayotganda raqobat sub'ektining avvalo strategik maqsadlarini hisobga olinishi va shundan so'ng yaqin maqsadlar belgilanishi lozim.

Raqobatchilar tomonidan qo'llanilayotgan raqobat qurilmalari taxlilini amalga oshirish jarayonida kelajakda raqobatda ustunlikni ta'minlashga sharoit yaratadigan raqobat qurilmalarini asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Bunday qurilmalar odatda ma'lum bir xarajatlarni talab qilishi mumkin. Raqobatbardoshlikni ta'minlashning ichki zaxiralari taxlili amalga oshirilishi jarayonida raqobatda ustunlikni ta'minlashga sharoit yaratadigan ichki zaxiralarga asosiy e'tibor qaratilishi va bunda raqobat sub'ektining kelgusida faoliyat olib borishi kutilayotgan tarmoqlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Raqobatbardoshlikni ta'minlashning tashqi zaxiralari taxlilini o'tkazish jarayonida raqobatda ustunlikni ta'minlashning tashqi strategik zaxiralari e'tibor qaratiladi. Bunda tashqi muxitga moslashish qurilmalarini ishlab chiqish muxim.

Raqobat kurashini olib borish qurilmasining shakllantirish jarayonida raqobat sub'ektining tarmoq xususiyatlari asosiy omil bo'lib qolishi lozim.

Tarmoqda raqobat kurashini olib borish qurilmasini qo'llashning natijalari va uning taxlilini amalga oshirish jarayonida erishilgan natijalar bo'yicha raqobat qurilmasiga baxo beriladi va strategik maqsadlarning o'zgarishi bilan bog'liq xolda tashkiliy choralar taqdimoti amalga oshiriladi.

Xulosalar va takliflar. Tarmoqda raqobat kurashini olib borish orqali raqobat sub'ektlari muvafaqiyatli faoliyatni ta'minlovchi raqobatda ustunlikni ta'minlashga erishadilar. Raqobatda ustunlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri maxsulot xaridorgirligini ta'minlashdir. Raqobat sub'ekti maxsulot xaridorgirligini ta'minlash bilan birgalikda tarmoqda muvafaqiyatli faoliyatining muxim vositasi, raqobat kurashini olib borish qurilmasini yarata olishi muximdir. Bu esa o'z navbatida zaxiralardan maksimal foydalangan xolda belgilangan reja asosida raqobat kurashini olib borishni ta'minlaydi. Raqobat kurashi qurilmasini ishlab chiqishda muxim talab ichki zaxiralarni samarali boshqarish orqali tashqi muxitda strategik muvafaqiyatli faoliyatni ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / Майкл Портер; Пер. с англ. — 6-е изд. — М.: Альпина Паблишер, 2018. — 716 с.
2. Портер М. П60 Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / Майкл Портер ; Пер. с англ. — 6-е изд. — М.: Альпина Паблишер, 2016. — 453 с.
3. Фатхутдинов р.а. Стратегический маркетинг: Учебник. — М.: ЗАО Бизнес-школа "Интел-Синтез", 2000. — 640 с.

TDIU magistranti O. Rahmatov
Ilmiy rahbar: "Buxgalteriya hisobi"


INVESTITSIYA KO'CHMAS MULKI HISOBINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA HOS XUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiya ko'chmas mulki hisobini tashkil etishning o'ziga hos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, investitsiya ko'chmas mulki hisobini yuritishdagi asosiy tamoyillar yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya ko'chmas mulki, bino, yer, asosiy vosita, boshlang'ich qiymat modeli, haqqoniy qiymat modeli.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, tovarlar va xizmatlarning sifatli bozorini shakllantirgan holda raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlash, davlat aktivlarini boshqarishda bozor tamoyillarini joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida muhim ahamiyat kasb etishi hammamizga ma'lum. Iqtisodiyot rivojlanishida mulkka egalik qilish, mulkdan vaqtincha foydalanishning rivojlanib kelayotgan operatsion, moliyaviy ijara va lizing shakllari ham muhim o'rin egallaydi.

Operatsion ijara munosabatlari natijasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni lokalashtirish, eksport hajmini oshirib import hajmini kamaytirish kabi yutuqlarga erishish mumkin. Ushbu yutuqlarga erishish aholining ishsizlik darajasini kamaytirib, aholi daromadlarining oshishiga olib keladi. Shunday ekan, operatsion ijara munosabatlari bo'yicha xo'jalik jarayonlarini hisobini to'g'ri va aniq hisobga olish dolzarb masala hisoblanadi.



(ko'chmas mulk egasi tomonidan yoki foydalanish huquqidagi aktiv sifatida ijarachi tomonidan tutib turiladigan) mulkdir (er yoki bino (yoki binoning bir qismi), yoki har ikkalasi) ”.

Demak, ushbu ta'rifga ko'ra xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zida mavjud bo'lgan, asosiy vosita ob'ekti sifatida turuvchi bino (yoki binoning bir qismi) va erni operatsion ijaraga bersa yoki ularning qiymatini oshishini kutish maqsadi bo'lsa, ushbu asosiy vosita ob'ekti endi investitsiya ko'chmas mulki sifatida qaraladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'ziga tegishli bo'lgan mulkni (binoni) bir qismni o'z extiyoji uchun mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlar ko'rsatish, ma'muriy va boshqa maqsadlar uchun, yana bir qismini investitsiya ko'chmas mulk sifatida foydalanishlari mumkin. Ushbu holatda binoni qismlarga bo'lgan holatda sotish yoki opretsion ijaraga berish imkoniyati bo'lsa, binoning xar bir qismini alohida hisobga olish imkoniyati bo'ladi. Ya'ni, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt uch qavatli binosining ikkinchi va uchinchi qavatlaridan o'z extiyolari uchun foydalanib, birinchi qavatini opretsion ijaraga beradigan bo'lsa yoki birinchi qavatni o'zini sotish imkoniyati bo'lsa, ushbu binoni hisobini alohida investitsiya ko'chmas mulk hisobi bilan birgalikda yurtishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan asosiy vosita tarkibida turuvchi bino yoki binoning bir qismini kelgusida iqtisodiy naf olishi va uning qiymatini (bino bir qismini) ishonchli baholash imkoniyati mavjud bo'lganja, ushbu binoni operatsion ijaraga yoki ularning qiymatini oshishini kutish maqsadi bo'lganda bino yoki binoning bir qismi investitsiya ko'chmas mulk tarkibiga o'tkazilganda buxgalteriya hisobida quyidagi ikki yoqlama yozuvlar bilan amalga oshiriladi:

Dt Investitsiya ko'chmas mulki schyoti;

Kt Asosiy vosita (bino) schyoti.

Xarid qilingan investitsiya ko'chmas mulkining boshlang'ich qiymati uning xarid narxi va uni xarid qilish bilan bog'liq har qanday bevosita sarflardan tashkil topadi. Bevosita sarflar, masalan, yuridik xizmatlar uchun haqlar, ko'chmas mulkni o'tkazish bo'yicha soliqlar va operatsiya bo'yicha boshqa sarflarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, agar aktiv tashkilotning o'zida yaratilgan bo'lsa, qarzlarni bo'yicha sarflar ham uning boshlang'ich qiymatiga kiritilishi mumkin.

Quyidagilar investitsiya ko'chmas mulkining boshlang'ich qiymatiga kiritilmaydi:

- startap sarflar (agar ular ko'chmas mulkni rahbariyat tomonidan nazarda tutilgan tarzda foydalanishga yaroqli holga keltirish uchun zarur bo'lmasa);
- investitsiya ko'chmas mulkidan rejalashtirilgan foydalanish darajasiga erishilishidan oldingi yuzaga kelgan operatsion zararlar, yoki
- ko'chmas mulkni qurish yoki takomillashtirishda me'yordan ortiq sarflangan material, ishchi kuchi yoki boshqa resurslar qiymati.

Investitsiya ko'chmas mulkining boshlang'ich qiymati aktiv tan olingan kundagi pul mablag'lari bilan darhol to'lanishi mumkin bo'lgan ekvivalent narxga teng bo'ladi. Amaliyotda investitsiya ko'chmas mulki uchun to'lov kechiktirilgan tarzda to'lanishi belgilangan bo'lishi mumkin. Bunday holatda uning boshlang'ich qiymati diskontlangan summaga teng bo'ladi. Diskontlangan summa va barcha

to'lovlar summasi o'rtasidagi farq kredit davridagi foiz xarajatlari sifatida tan olinadi.

Agar bino yoki binoning bir qismi investitsiya ko'chmas mulk tarkibiga o'tkazilayotgan vaqtda, o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar (masalan: yuridik xizmatlar uchun to'lovlar, mulkni o'tkazish bo'yicha soliqlar, yig'implar, joriy ta'mirlash xarajatlari va boshqalar) uning boshlang'ich qiymatiga qo'shiladi:

Dt Investitsiya ko'chmas mulki schyoti;

Kt Pul mablag'lari yoki majburiyat schyotlari.

Investitsiya ko'chmas mulkning joriy qiymatini aniqlashda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar 40-BHXS talablariga muvofiq ikki hil modeldan foydalanishlari mumkin:

1. Boshlang'ich qiymat modeli.

2. Haqqoniy qiymat modeli.

Investitsiya ko'chmas mulkning joriy qiymatini aniqlashda boshlang'ich qiymat modelini tanlagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining barcha investitsiya ko'chmas mulklarini 16-son "Asosiy vositalar" nomli BHXSdagi talablarga muvofiq yuritadilar. Mulk boshqa aktivlar singari amortizatsiya qilinadi va investitsiya ko'chmas mulkini quyidagilarga muvofiq baholashi lozim bo'ladi:

- agar u sotish uchun mo'ljallangan (yoki sotish uchun mo'ljallangan hisobdan chiqariladigan guruhga kiritilsa) aktiv sifatida tasniflash mezoniga mos kelsa, 5-son MHXS "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat" ga muvofiq;

- agar ijarachi tomonidan foydalanish huquqidagi aktiv sifatida tutib turilgan va 5-son MHXSga muvofiq sotish uchun mo'ljallanmagan bo'lsa, 16-son MHXSga muvofiq;

- boshqa barcha holatlarda boshlang'ich qiymat modeli bo'yicha 16-son BHXSdagi talablarga muvofiq.

13-son MHXSga muvofiq haqqoniy qiymat – bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o'tkazish uchun to'lanishi mumkin bo'lgan narx hisoblanadi.

Investitsiya ko'chmas mulkning joriy qiymatini aniqlashda haqqoniy qiymat modelini tanlagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining barcha investitsiya ko'chmas mulklarini haqqoniy qiymat bo'yicha baholashi lozim. Investitsiya ko'chmas mulkning haqqoniy qiymatidagi o'zgarish natijasida vujudga keladigan foyda yoki zarar u yuzaga kelgan davrning foyda yoki zarari tarkibida tan olinishi lozim. Ushbu modelda mulkka amortizatsiya xarajatlari hisoblanmaydi.

Korxonalar faqat foydalanish xususiyatida o'zgarish bo'lganda, ko'chmas mulkni investitsiya ko'chmas mulkiga yoki investitsiya ko'chmas mulkini boshqa toifadagi ko'chmas mulkka o'tkazishi lozim. Ko'chmas mulkdan foydalanish bo'yicha rahbariyatning niyati o'zgarishining o'zi foydalanish xususiyatidagi o'zgarishga dalil bo'lmaydi.

Foydalanish xususiyatidagi o'zgarishga misollar:

Sinfdan sinfga	Vaqt	Boshlang'ich qiymat modeli	Haqqoniy qiymat modeli
----------------	------	----------------------------	------------------------

IKM*dan Avga	egasi foydalanadigan ko'chmas mulk sifatida foydalanishni boshlaganda	Balans qiymati bo'yicha o'tkaziladi	Haqqoniy qiymat sifatida qabul qilinadigan shartli boshlang'ich qiymat
AVdan IKMga	egasi ko'chmas mulkni band qilishni to'xtatganda	Balans qiymati bo'yicha o'tkaziladi.	O'tkazish sanasigacha 16-son BHHS asosida baholanadi. O'tkazish sanasiga haqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi va har qanday farq foyda yoki zararda aks ettiriladi.
IKMdan zaxiralarga	sotish maqsadida takomillashtirish boshlanganda	Balans qiymati bo'yicha o'tkaziladi.	Haqqoniy qiymat sifatida qabul qilinadigan shartli boshlang'ich qiymat
Zaxiralardan IKMga	ko'chmas mulk boshqa tomonga operativ ijaraga berilganda	Balans qiymati bo'yicha o'tkaziladi.	O'tkazish sanasiga haqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi va har qanday farq foyda yoki zararda aks ettiriladi.

IKM-investitsiya ko'chmas mulki

Quyidagi hollarda qayta tasniflash amalga oshirilmaydi:

1-holat. Agar tashkilot investitsiya ko'chmas mulkini takomillashtirmasdan hisobdan chiqarishga qaror qilsa, u ko'chmas mulkni hisobdan chiqarilgunga qadar investitsiya ko'chmas mulki sifatida aks ettirishda davom etadi va uni zaxira sifatida qayta tasniflamaydi.

2-holat. Agar tashkilot kelgusida investitsiya ko'chmas mulki sifatida foydalanishni davom ettirish uchun mavjud investitsiya ko'chmas mulkini qayta takomillashtirishni boshlasa, ko'chmas mulk investitsiya ko'chmas mulki sifatida qoladi va u qayta takomillashtirish mobaynida egasi foydalanadigan ko'chmas mulk sifatida qayta tasniflanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).
3. Eshov M.P., Abdurakhmanova G.K., Burkhanov A.U., Abdusalomova N.B. and Ergasheva S.T. (Ed.) Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS (Advanced Series in Management, Vol. 33B), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 1-4. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B001>
4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. // ASSA . IFRS/IAS., 2019 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga

- tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3400.
6. Ergasheva Sh.T., Ilxamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2022. - 360 bet.
 7. . Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. (O'quv qo'llanma) - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2024. 204 bet.
 8. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

TDIU, mustaqil izlanuvchi
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li

ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI HISOBGA OLISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI: "O'ZBEKNEFTGAZ" AJ MISOLIDA

Ishlab chiqarish korxonalarida boshkaruv xisobini tashkil qilish va yuritish juda ko'p jihatdan xarajatlar xisobi qanday olib borilishiga bog'liq bo'ladi. Xarajatlar hisobining tug'ri va o'z vaqtida tashkil qilinishi korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha tug'ri xamda samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga asos bo'ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-fevraldagi 1999-yilda 54- sonli nizomiga asosan tartibga solinadi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, sotish xarajatlari, davr xarajatlar va boshqa operatsiya xarajatlari tarkibiga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 24-fevral PQ-4611 sonli qaroriga asosan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinlarda — MHXS) yirik tashkilotlar yani yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar, 2021-yilning 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi ko'zda tutilgan. Shu boisdan "O'zbekneftgaz" AJda xam MHXS asosida hisobot tayyorlanmoqda.

Sababi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha moddiy harakatlarni xarajatlar deb hisobga olishimizdan qat'i nazar, xuddi ana shu xarajatlar tabiati tannarxga kiritilishi, xisobga olinishi bilan bir-biridan farq qiladi. Neft va gaz korxonasi bir sexda bir vaqtning o'zida tabiiy gaz, gaz kondensati, olingugurt va suyultirilgan gaz, boshqa sexda bir vaqtning o'zida avtobenzin, dezil yoqilg'isi, aviakerosin va mazut ishlab chiqariladi. Bevosita tabiiy gaz ishlab chiqarishga sarflanayotgan to'g'ri xarajatlarni (asosiy materiallar, amortizatsiya xarajatlari, ish xaqi va boshqalar) kommunal xizmat va ma'muriy-boshkaruv apparata xodimlari xarajatlarini xisobga olish uchun ko'shimcha hisob-kitoblar amalga oshirilishi talab kilinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilish uchun eng avvalo, ana shu xarajatlarni hisobga olishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglab olish lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarishda xarajatlarni taqsimlashda aniq xarajatlar obyektiga olib borish qattiy jarayon talab qiladi.

Xarajatlarni guruhlashning barcha ko‘rinishlari turli hildagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qo‘llaniladi.

Yangi O‘zbekiston moliyaviy hisobotning rivojlanida iqtisodiyotning bazali tarmoqlari, shu jumladan Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta‘minlash maqsadida kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish. Uglevodorod xom ashyosi mavjud konlar, geologiya-qidiruv maydon va strukturalarini tahlil qilgan holda ularga shaffof mexanizmlar asosida investorlarni jalb qilish orqali qazib chiqarish hajmlarini oshirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, joriy yilning 16-yanvarida davlatimiz rahbari tomonidan uni bo‘lib o‘tgan iqtisodiyot bo‘yicha iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida 2024-yil iqtisodiy kompleks rahbarlari va barcha davlat korxonalari uchun tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili bo‘lishini ta’kidladi.

Shuni maqsadida “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan davlatimiz rahbari tomonidan fevral oyida o‘tqazilgan yig‘ilishida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ichki bozorda aholi talabini ta‘minlash, narxlar barqarorligini saqlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida dizel yonilg‘isining narxlari EKO dizel yonilg‘isi narxiga nisbatan 15%ga arzonlashtirilishi ta‘minlanishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib jamiyat ishlab chiqarilayotgan an‘anaviy dizel yonilg‘isiga sintetik dizel yonilg‘isi komponentini kompaundlash orqali dizel yonilg‘isining to‘liq hajmlari Ts 164728899-044 talablari asosida dizel yonilg‘isi EVRO K-4 SSDF ishlab chiqarish ko‘zda to‘tilgan.

O‘zbekneftgaz aksionerlik jamiyatining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari va aholisini 2023-yil va keyingi yillarda neft, gaz kondensati va tabiiy gazni qayta ishlash mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash hamda eksport qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Jamiyatning amaldagi ijroiya apparati tuzilmasi 2023-yil 25-apreldagi 8-son Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan.

Jamiyat tabiiy gaz, gaz kondensati va neftni qidirish, qazib olish, qayta ishlash va realizatsiya qilish, ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirish obyektlarini qurish ishlarini amalga oshiruvchi yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi tashkiloti hisoblanadi.

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari tabiiy gaz, gaz kondensati, suyultirilgan gaz, neft va ularni qayta ishlash mahsulotlari hisoblanadi.

Ayni paytda, respublika hududida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kompaniyalarni hisobga olgan holda yiliga 51,5 mlrd kub metr tabiiy gaz hamda 3,1 mln tonnadan ortiq suyuq uglevodorodlar qazib chiqarilmoqda.

Саидакбаров Хусниддин Абдисалом ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Бухгалтерия ҳисоби кафедраси доц., и.ф.д

НОМАРКАЗЛАШТИРИШ–МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАР ДАРОМАД БАЗАСИНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШДА БОШҚАРУВНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: Ҳудудлар иқтисодиётини давлат томонидан тартибга солиш тизимини трансформациялаш ҳудудларнинг барқарор ва инновацион ривожланиши учун шароит яратишга, уларнинг рақобатбардошлиги ва аҳоли фаровонлигини оширишга қаратилган. Ушбу трансформацияни амалга ошириш давлат, бизнес ва жамоатчиликнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатларини, шунингдек, халқаро тажриба ва илғор амалиётларни ҳисобга олишни талаб қилади.

Калит сўзлар: давлат бюджети, маҳаллий бюджетлар, давлат, қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий базалар, иқтисодий ўсиш, барқарор ривожланиш, бошқарув тизими.

Маҳаллий бюджетлар Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетида муҳим таркибий қисмни ташкил этади ва маҳаллий ҳокимиятларнинг фаолият кўрсатишларида молиявий манба бўлиб ҳисобланади. Маҳаллий бюджетлар тизими маҳаллий талаб-эҳтиёжларни тўлароқ ундиришни ҳамда давлатнинг марказлаштирилган тартибда амалга оширадиган тадбирларнинг бажарилиши билан чамбарчас боғланган ҳолда ижро этишга имкон яратиб беради.

Таъкидлаш лозимки, маҳаллий бюджетлар даромадлари асосан маҳаллий солиқлар ва умумдавлат солиқларидан ажратмалар ҳисобига шаклланади. Мамлакат ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражалари бўйича бир-бирларидан фарқланади. Бунинг натижасида улар ўртасида номутаносибликлар вужудга келган. Мазкур номутаносибликларга барҳам бериш, уларнинг ривожланиш даражаларини бир-бирларига яқинлаштириш ҳамда тегишли ҳудудларни кенг қамровли ривожлантиришга маҳаллий бюджетлар маблағлари етмайди.

Шу боисдан республика бюджетидан маҳаллий бюджетларга тегишли равишда дотация ва субвенциялар ажратилиши керак бўлади. Мамлакат ҳудудларини иқтисодий ривожлантириш, улар ўртасидаги иқтисодий номутаносибликка мумкин қадар барҳам бериш мақсадида Республика ва маҳаллий бюджетлар ўртасидаги муносабатларни, боғлиқликни янада такомиллаштириш зарур бўлади. Шунингдек, маҳаллий бюджетларнинг ҳудудларни кенг қамровли ривожлантиришдаги ролини ошириш учун уларга даромад тушумларининг янги манбаларини қидириб топиш, солиқ ундиришнинг прогрессив тизимини жорий қилиш ва мавжуд солиқ тушумлари асосини такомиллаштириш зарурати мавжуд. Бунда давлат бошқарувини ҳамда бюджетни номарказлаштириш асосида маҳаллий бюджетлар даромад базасини янада барқарорлаштириш ва мустаҳкамлаш долзарб аҳамиятга эга.

Давлат бошқаруви тизимини таҳлил қилиш учун, авваламбор, бошқариш тушунчасининг мазмунини аниқлаш лозимдир. Бошқариш, бошқарув – кенг маънода, бирон-бир объектга уни бир ҳолатдан бошқа бир ҳолатга ўтказиш ёки маълум бир ҳолатда тутиб туриш учун таъсир ўтказувчи фаолият сифатида тушуниш мумкин. Бошқариш – алоҳида функция бўлиб, турли-туман соҳалар

(мамлакат ва унинг ҳудудлари, миллий иқтисодиёт ва унинг тармоқлари, корхона ва унинг бўлимлари)да инсонлар устидан раҳбарлик қилиш фаолиятidir. Бошқариш – ташкилотнинг мақсадини ифодалаш ва унга эришиш учун зарур бўлган башорат қилиш, режалаштириш, ташкил этиш, иштиёқни уйғотиш (мотивация) ва назорат қилиш бўйича фаолият тури, жараёнидир. Бошқариш – шундай фаолиятки, унинг ёрдамида уюлмаган жамоа (халойиқ ёки тўда) самарали ва аниқ мақсадга йўналтирилган унумли (баракали) гуруҳга айлантирилади. Бошқариш – маълум жараёнга, организм ва жамоага мақсадли таъсир кўрсатишни ўзида ифода этувчи ижтимоий фаолиятнинг бир туридир. Бошқариш – муайян ахборотга асосланган ва мавжуд дастурга мувофиқ объектнинг ишлашини, яъни фаолият кўрсатишини таъминлашга йўналтирилган тадбирлар мажмуасидир.

Шунингдек, машҳур француз олими Анри Файоль ҳам бошқарувга қўйидагича таъриф беради: “Бошқарув – бу, корхона ихтиёридаги барча ресурслардан максимал фойда олган ҳолда уни мақсад сари етаклаш фаолиятidir”. Ижтимоий бошқарув моддий объектларни, жараёнларни, инсонни, гуруҳларни бошқаради. Ишлаб чиқариш бошқаруви эса, ижтимоий бошқарувнинг бир қисми ҳисобланади. Бошқариш ташкилотни пировард мақсадга олиб борувчи ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг дастаги ҳисобланади. Ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш бир-биридан ажралмас тушунчалардир. Бошқариш пировард мақсадни белгилаб олган вақтдан бошланиб, ташкилотни лойиҳалаш, ташкил этиш, қуриш, фаолиятни изга солиш, қайта қуриш ва замонавийлаштириш давомида амалга оширилади ва олиб борилади. Бошқариш даври – мақсаднинг аниқланишидан унга эришилгунгача бўлган вақтни ўз ичига олади. Унинг асосий босқичлари қўйидагилардан иборат: 1) мақсадни шакллантириш (белгилаш); 2) мақсадни башорат қилиш ва режалаштириш; 3) қабул қилинган қарорлар ёки мақсадли вазифаларни мувофиқлаштириш; 4) эришилган натижаларни таҳлил этиш ва баҳолаш; 5) янги бошқарувли тизимни танлаб олиш ва аниқлаш. Бу барча цикллар учун энг муҳим бошқарув тизими ҳисобланади. Демак, қисқача қилиб айтганда, бошқариш бошқарувчи тузилманинг бошқариладиган тузилмага мақсадли таъсирidir.

Бошқариш ижтимоий тизимнинг ички имманент хусусияти ҳисобланади. Ўз навбатида, тизимлилик ҳар қандай ижтимоий ташкилот (тузилма)нинг муҳим тавсифидир. XIX асрнинг охиридан бошлаб ғарб мамлакатларининг вазирликларга асосланган бошқарув тизими иқтисодиётга раҳбарлик қилиш ижтимоий масалалар ечимини топишда ўз имкониятлари анча чекланиб қолганлиги сезилди. АҚШда вазирликларга кўмаклашиш мақсадида функционал номарказлаштирилган муассасалар – мустақил агентликлар ташкил этилди. Буюк Британияда ижтимоий корпорациялар, Францияда ижтимоий идоралар тузилди. Номарказлаштирилган тузилмаларга кенг бошқарув ваколатлари берилгани учун маъмурий ҳуқуқ субъектлари функцияларини бажара бошлади (масалан, АҚШ Федерал савдо комиссияси). Номарказлаштирилган муассасалар аниқ тижорат ва хўжалик фаолиятини амалга ошира бошлади. Шунинг учун улар хусусий ҳуқуқ субъекти сифатида

хам намоён бўла бошлади. Бу янги тузилмалар ўз фаолият учун иш усуллари ва шакллари танлашда эркин бўлгани учун бозор иқтисодиёти қонуниятларига тезлик билан мослаша бошлади, уларнинг бошқарув самараси ошди. Номарказлаштиришнинг учта – сиёсий, маъмурий ва фискал турлари, деволүция, ваколатларни бериш ва ноконцентрациялашув шакллари мавжуд.

Сиёсий номарказлаштириш – сиёсий ҳокимиятни минтақавий ҳокимият органлари – фуқаролар йиғинларидан бошлаб маҳаллий ҳокимият органларигача бўлган даражаларга бериш демакдир. Деволүция (инглизча *devolution* – ваколат ёки мажбуриятни бериш) – бу маҳаллий ҳокимият органларини мустақил ёки автоном бўлишини таъминлаш мақсадида уларга бошқарув масъулияти, ҳокимият, даромадлар ресурслари ва манбаларини тасарруф этишнинг берилиши демакдир. Иқтисодиётнинг давлат секторини номарказлаштириш унинг функцияларини самарали бажаришга имкон берган тақдирдагина асосли ҳисобланади. Иқтисодиёт назариясида маҳаллий ва умумдавлат ижтимоий бойликни ўрганиш ўринли бўлиб, уларни ишлаб чиқариш эса давлатнинг асосий функцияларидан бири ҳисобланади.

Табиийки, умумдавлат бойликларини ишлаб чиқаришда фискал номарказлаштириш ушбу тадбирларни иқтисодий самарадорлигининг пасайишига олиб келади. Ижтимоий бойликларнинг маҳаллий даражада тақдим этилиши маҳаллий бошқарув органлари томонидан мустақил қарорлар қабул қилиниши сабабли нисбатан самаралидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги ПФ-5185-сонли “Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислохотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони //Халқ сўзи, 2017 йил

9 сентябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий ажлсига Мурожаатномаси //Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

3. Ишмухамедов А.Э., Рахимова М.Р., Ишмухамедова Л.А. Минтақавий иқтисодиёт. Дарслик.– Т., ТДИУ, 2007. – 162-б.

4. Абулқосимов Ҳ.П., Муродхўжаева М., Абулқосимов М.Ҳ. Давлатнинг минтақавий сиёсати ва ҳудудлар ривожланишини тартибга солиш йўллари. Монография. – Наманган: “Наманган”, 2016.– 128 б.

5. Тожиева З. Номарказлаштириш – ислохотларни чуқурлаштириш омили.// <http://www.biznesdaily.uz/ru/gazeta-birja/37598-nomarkazlashtirish--islohotlarni-chuqurlashtirish-omili>.

6. Қирғизбоев М. Ўзбекистонда маъмурий ислохотлар концепцияси – давлат бошқарувининг миллий инновациявий модели //<http://mt.uz/uz/press-sluzhba/novosti/zbekistonda-mamuriy-islo-otlarkontseptsiyasi-davlat-bosh-aruvining-milliy-innovatsiyaviy-modeli/>

SHAKIROV UTKIRBEK TAXIROVICH
Kafil-sug'urta AJ
"Investitsiya va korporativ aloqalar"
departamenti direktori

SUG'URTA TASHKILOTLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya Maqolada sug'urta tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari muhokama qilingan. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar boshqaruvini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumotlar tahlilini, blokcheyn texnologiyalarini, shuningdek, sug'urtada narsalar interneti va sun'iy intellektni qo'llash jarayonlarining tavsifi sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda axborot texnologiyalarini muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni rivojlantirish sharoitida raqamlashtirishning istiqbollari va afzalliklari ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, sug'urta kompaniyalari, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, blokcheyn, narsalar interneti, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, ma'lumotlar xavfsizligi, innovatsion mahsulotlar, raqamlashtirish.

Zamonaviy axborot texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalari, jumladan sug'urta sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotni globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida sug'urta kompaniyalari o'z ishining samaradorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati bilan duch kelmoqda. Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklari, shuningdek, uning soha rivojiga va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilashga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish. Sug'urtada axborot texnologiyalaridan foydalanishga yordam beruvchi asosiy omillardan biri bu turli biznes jarayonlarini avtomatlashtirishdir. Zamonaviy dasturiy mahsulotlar va tizimlar tufayli sug'urta kompaniyalari arizalarni ko'rib chiqish, ekspertiza o'tkazish, schyot-fakturalarni rasmiylashtirish va sug'urta to'lovlarini to'lash vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

Avtomatlashtirish quyidagilarga imkon beradi:

- inson omillari bilan bog'liq xatolar sonini kamaytirish;
- ma'muriy xodimlarning xarajatlarini kamaytirish;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligini oshirish;
- ma'lumotlarni ro'yxatga olish va tahlil qilish jarayonlarini soddalashtirish;
- shunday qilib, axborot texnologiyalaridan sug'urta kompaniyalariga qaror qabul qilishni tezlashtirish va mijozlar ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish yaxshilandi. Zamonaviy axborot texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali to'plash, saqlash va qayta ishlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, har kuni mijozlar, sug'urta da'volari va risklari

haqida katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydigan sug'urta kompaniyalari uchun juda muhimdir.

Analitik vositalar va sun'iy intellektdan (AI) foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- risklarni tahlil qilish va prognoz qilish;
- sug'urta hodisalarining yuzaga kelish ehtimolini baholash;
- ko'proq sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;
- sug'urta mukofotlarini hisoblashni optimallashtirish;

Tahlil tizimlari ma'lumotlarni samarali qayta ishlash, yashirin naqshlarni ochish va kompaniyaga ko'proq asosli qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin.

Mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash. Axborot texnologiyalari sug'urta kompaniyalarining mijozlar bilan o'zaro munosabatlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Onlayn xizmatlar va mobil ilovalarning rivojlanishi mijozlarga quyidagilarga imkon beradi: onlayn sug'urta polisiga murojaat qilish, chat va chatbotlar orqali real vaqtda maslahat va yordam olish, ilovalar va to'lovlar holatini kuzatib borish, sug'urta polislarini boshqarish va ma'lumotlarni onlayn yangilash, mijozlarga xizmat ko'rsatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga, xizmatlarning mavjudligini oshirishga va kompaniya bilan o'zaro aloqalar qulayligini oshirishga yordam beradi. Bu sug'urta kompaniyalariga yuqori raqobat muhitida mijozlarni jalb qilish va ushlab turishga yordam beradi.

Hisob-kitob va to'lov jarayonlarini takomillashtirish. Blokcheyn texnologiyalari va boshqa innovatsion yechimlar sug'urta kompaniyalarida hisob-kitoblar va to'lovlar jarayonlarini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Masalan, blokcheyn tranzaktsiyalarning to'liq shaffofligini ta'minlaydi va to'lovlarni qayta ishlash uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish firibgarlik ehtimolini kamaytiradi, sug'urta da'volarini ko'rib chiqishni tezlashtiradi, mijozlarning ishonch darajasini oshiradi. Ushbu jarayonlarni takomillashtirish kompaniyaning obro'sini oshirishga va bozorda yanada raqobatbardosh taklifni yaratishga yordam beradi.

Yangi sug'urta mahsulotlari va modellarini ishlab chiqish. Axborot texnologiyalari yangi sug'urta mahsulotlari va modellarini ishlab chiqish uchun ham imkoniyatlar ochadi. Masalan, "Internet of Things" dan foydalanish mijozning xatti-harakati asosida sug'urta polislarini yaratish imkonini beradi, masalan, haqiqiy kilometr uchun to'lovni amalga oshiradigan avtomobil sug'urtasi yoki mijozning holatini real vaqtda kuzatuvchi tibbiy sug'urta.

Ma'lumotlar xavfsizligi va himoyasini yaxshilash. Sug'urtaning eng muhim jihatlaridan biri bu mijozlar ma'lumotlarini himoya qilishdir. Sug'urta kompaniyalari tibbiy ma'lumotlar, moliyaviy ma'lumotlar va shaxsiy ma'lumotlar kabi nozik ma'lumotlar bilan ishlaydi. Ma'lumotlarni shifrlash va ko'p darajali autentifikatsiya kabi axborot texnologiyalari yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi va ma'lumotlar sizib chiqishidan himoya qiladi.

Sug'urta tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish ish samaradorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi

mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishda muhim omil bo'lmog'da. Jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, xavfsizlikni oshirish va innovatsion sug'urta modellarini ishlab chiqish - bularning barchasi sug'urta kompaniyalariga bozordagi tez o'zgarishlar sharoitida raqobatbardosh va muvaffaqiyatli qolish imkonini beradi.

Kelajakda texnologiya rivojlanishi bilan sug'urta sohasida yanada jiddiy o'zgarishlarni kutishimiz mumkin, masalan, xavflarni bashorat qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanish, shaffoflikni oshirish va xizmatlar narxini pasaytirish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning ko'payishi, real vaqt ma'lumotlariga asoslangan yangi mahsulotlarni joriy etish.

O'z faoliyatida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanayotgan kompaniyalar nafaqat o'zlarining ichki jarayonlarini takomillashtirish, balki mijozlarga yanada jozibador va innovatsion xizmatlarni taklif qilishlari mumkin, bu esa kelajakda ularning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Бенашвили, И. В., & Кузнецова, Л. В. (2020). *Цифровизация в страховании: теоретические и практические аспекты*. М.: Институт экономики и права.

2. Гусева, Т. В. (2019). *Информационные технологии в бизнесе: примеры из страховой отрасли*. Санкт-Петербург: Норма.

3. Ильин, А. Б., & Павлов, М. В. (2021). *Использование блокчейн-технологий в страховании*. Журнал «Информационные технологии в экономике», 14(3), 45-59.

4. Смирнов, Р. И. (2022). *Инновации в страховании: как ИТ изменяют рынок*. М.: Экономика.

5. Орлов, П. А. (2021). *Влияние искусственного интеллекта на страховые услуги*. Вестник страхования, 3(45), 98-112.

6. Устинов, В. В. (2020). *Автоматизация процессов в страховых компаниях: современные тренды*. Экономика и инновации, 7(1), 23-34.

7. Шмидт, М. В. (2018). *Интернет вещей в страховании: потенциал и возможности*. Международный журнал страхования, 5(2), 67-78.

8. Бойко, Л. В. (2020). *Обеспечение безопасности данных в страховых компаниях с использованием ИТ*. Журнал информационной безопасности, 6(2), 89-97.

9. Беляев, М. Г., & Ковальчук, В. Н. (2021). *Аналитика больших данных в страховании: от теории к практике*. М.: Научный мир.

10. Евграфова, И. А. (2022). *Цифровые технологии в управлении рисками на страховом рынке*. Москва: Институт развития экономики.

**TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi
dotsenti D.A. Sativaldiyeva
katta o'qituvchisi i.f.f.d.; J.O 'Suyunov
mustaqil izlanuvchisi M.R.G 'ozieva**

ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLISH: IFRS TALABLARIGA MUVOFIQ HISOBOTLARNI TAYYORLASHDA TUZATISHLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada BHMSga muvofiq tayyorlangan hisobotni xalqaro talablarga to'liq javob beradigan hisobotga aylantirish masalalari aks ettirilgan. Transformatsiya qilish usuli kamroq mehnat talab qiladi. Maqolada transformatsiya qilish usuli BHMS va IFRS bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotidagi asosiy farqlarni, shuningdek hisobot berish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tahliliy ma'lumotlarni olish zarurligini aniqlash imkonini berishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: transformatsiya, BHMS, IFRS, milliy va xalqaro standartlar, asosiy vositalar, aktivlar, hisob siyosati, tovar-moddiy zaxira, amortizatsiya, ko'chmas mulk va yer uchastkalari, uskunalar, avtotransport vositalari, tugallanmagan qurilish, mebel va ofis jixozlari.

Milliy qonunchiligimiz xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni mol-mulk va majburiyatlarning buxgalteriya hisobini yuritish va tegishli hisobotlarni tuzish majburiyatini oladi. Buxgalteriya hisobi ishlarining katta hajmini hisobga olgan holda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, xalqaro standartlarga muvofiq hisobot berish usulini mustaqil ravishda tanlaydilar. Eng keng tarqalganlari:

Milliy va xalqaro (IFRS) standartlariga muvofiq parallel buxgalteriya hisobini yuritish;

- BHMSga muvofiq tayyorlangan hisobotni xalqaro talablarga to'liq javob beradigan hisobotga aylantirish. Bu usul kamroq mehnat talab qiladi. Bu millie va IFRS bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotidagi asosiy farqlarni, shuningdek hisobot berish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tahliliy ma'lumotlarni olish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Transformatsiya deganda milliy qonunchilik talablariga muvofiq yuritiladigan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini IFRSga mos keladigan hisobotlarni yaratish imkonini beruvchi ma'lumotlarga aylantirish tushuniladi.

Transformatsiyaning asosiy bosqichlari:

- asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish;
- tegishli milliy buxgalteriya standartlari qoidalarini qo'llash amaliyoti va xalqaro standartlar talablari o'rtasidagi farqlar (og'ishlar) yig'indisini aniqlash;
- IFRSga muvofiq tegishli hisobot moddalarini hisoblash;
- IFRSga muvofiq hisobotlarni tayyorlash.

Shuni ta'kidlash kerakki, transformatsiyani amalga oshirishdan oldin, milliy standartlarga muvofiq tuzilgan hisobot auditini o'tkazish kerak. Ushbu tadbirning maqsadi yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va iloji bo'lsa, bartaraf etishdir.

Asosiy vositalarni hisobga olish eng ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, transformatsiya paytida ularga kiritilgan tuzatishlar muhim bo'lishi mumkin va hisobotning ishonchliligiga ta'sir qiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu tuzatishlarning amalga oshirilishi ko'plab savollarni tug'diradi.

Tashkilotning moliyaviy hisobotlarida mavjud bo'lgan asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zgartirish bilan bog'liq og'ishlarni aniqlash va tuzatishlar kiritish qiyinligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– milliy standartlar qoidalarining xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan me‘yor va qoidalardan chetga chiqishi;

- asosiy vositalarni hisobga olishning amaldagi usullari va usullarining milliy standartlar qoidalaridan chetga chiqishi;

- milliy buxgalteriya hisobi va hisobotini o'zgartirish uchun uslubiy apparatning yo'qligi, bu hisobotga kiritilgan yanada ishonchli ma'lumotlarni olish uchun o'ylangan harakatlar ketma-ketligi.

Keling, tegishli xalqaro standartlar talablariga va tashkilotning buxgalteriya siyosati qoidalariga e'tibor qaratgan holda, tashkilotning milliy hisobotdagi ma'lumotlarga tuzatishlar kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradigan asosiy omillarni aniqlaylik.

Mumkin bo'lgan tuzatishlarni aniqlash uchun ma'lumot manbalari:

– buxgalteriya hisobi maqsadlarida tashkilotning hisob siyosati (milliy standart);

– xalqaro moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadida tashkilotning hisob siyosati;

– tashkilotning audit qilingan moliyaviy hisoboti, shu jumladan milliy standartlarga muvofiq tuzilgan tushuntirish xati;

- 0100 "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar", 0200 "Asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar ", 0300 "Uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar", 0700 "O'rnatish uchun asbob-uskunalar", 0800 "Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar" schyotlari bo'yicha tashkilotning buxgalteriya hisobi ma'lumotlari (sintetik va analitik);

- fuqarolik-huquqiy munosabatlarni o'rnatishga va asosiy vositalar bilan operatsiyalarni (sotib olish, begonalashtirish, tekin foydalanishga berish, moliyaviy ijaraga berish va boshqalar) ta'minlashga qaratilgan xo'jalik shartnomalari;

- aktivlarni asosiy vositalarga tasniflash (qayta tasniflash), ulardan foydalanish muddati va boshqalarga ta'sir qiluvchi faktlarni aniqlashga imkon beruvchi tashkilotning ichki hujjatlari (nizomlar, buyruqlar, ko'rsatmalar);

– professional baholovchilar tomonidan yaratilgan asosiy vositalarni baholash natijalari to'g'risidagi hisobotlar.

Xalqaro hisobotlarni tayyorlash, uning to'liqligi va standartlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun birinchi navbatda tashkilotning hisob siyosati qoidalarini tahlil qilish kerak. Asosiy vositalarga nisbatan ko'rsatilgan hujjatda kamida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- aktivlarni asosiy vositalar sifatida tasniflashda tashkilot foydalanadigan muhimlik mezonini (raqamli qiymati).

Masalan, milliy buxgalteriya hisobida bu mezon odatda ellik barobar bazaviy hisoblash miqdoridan yuqori bo'gan qiymat olinadi;

– asosiy vositalarni keyingi baholash modeli (dastlabki yoki qayta baholangan qiymati bo'yicha);

– amortizatsiyani hisoblash usuli, shuningdek, hisoblash modeli (oylik, yarim yillik, yillik);

- murakkab asosiy vositalarning alohida tarkibiy qismlarini aniqlashda tashkilot foydalanadigan mezonlar.

Asosiy vositalarning to'liq ro'yxatini aniqlashda quyidagilar mavjudligiga alohida e'tibor berilishi kerak:

- murakkab asosiy vositalar. Masalan, turli xil foydalanish muddatiga ega bo'lgan asosiy vositalar to'plami bo'lgan binolar. Xususan, konditsioner, ventilyatsiya, isitish tizimi va lift uskunalari mustaqil ob'ektlar bo'lib, ulardan foydalanish muddati ko'chmas mulk ob'ekti sifatida binoning o'zi foydalanish muddatidan sezilarli darajada farq qiladi;

- dastlab tashkilotning buxgalteriya hisoblarida tovar-moddiy zaxira sifatida hisobga olingan asosiy vositalar. Ushbu aktivlar moliyaviy hisobotda balansning tegishli aktiv moddasi bo'yicha aks ettirilishi yoki hisobot davrida hisobdan chiqarilishi va daromadlar to'g'risidagi hisobotning tegishli xarajat moddasiga kiritilishi mumkin;

- uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar, BHMS hisob siyosatiga muvofiq, tovar-moddiy boyliklar sifatida tasniflanishi kerak;

- noishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar;

- qurilishi tugallanmagan ob'ektlar;

- alohida inventar ob'ektlar bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar (0100 "Asosiy vositalar" va 0200 "Asosiy vositalarning eskirishi" schyoti debet qoldig'i).

IAS 16 "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq, asosiy vositalar moddiy ob'ektlar sifatida ta'riflanadi, ular:

- tashkilot tomonidan ishlab chiqarish yoki mahsulot va xizmatlar yetkazib berishda, boshqa tashkilotlarga ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalaniladi;

- bir yillik davrdan ortiq foydalanish uchun mo'ljallangan.

Shunday qilib, ushbu turdagi aktivlarga xos xususiyatlarni aniq belgilash mumkin, xususan:

- moddiy mohiyat (bu ularning nomoddiy aktivlardan farqi);

- foydalanish usullarining yopiq o'ziga xos ro'yxati (bu ularning investitsion ko'chmas mulk va zaxiralardan farqi);

- uzoq muddatli foydalanish xususiyati (bu ularning aktsiyalardan farqi).

Aktivlar tan olish vaqtida asosiy vositalar sifatida tasniflanadi. Bunda asosiy mezon aktivlardan foydalanishdan daromad olish usuli hisoblanadi.

Asosiy vositalarni sotib olish (yaratish) xarajatlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda aktiv sifatida tan olinadi:

- ob'ekt bilan bog'liq kelajakdagi iqtisodiy foyda tashkilotga kelishi ehtimoli bor;

- ob'ektning narxi ishonchli tarzda o'lchanishi mumkin.

Ikkala mezon ham zarur va bir vaqtning o'zida bajarilishi kerak. Agar ulardan birortasi bajarilmasa, aktiv tan olinmaydi va xarajatlar joriy xarajatlarga kiritiladi.

Yuqoridagi qoidalar bizga to'g'ri tasniflash imkonini beradi:

- tugallanmagan qurilish shaklidagi kapital qo'yilmalar;

- ishlab chiqarishdan tashqari ob'ektlar.

IFRSda tugallanmagan qurilishni tan olish, o'lchash va hisobga olishni to'xtatish masalalarini alohida tavsiflovchi standart mavjud emas. Ammo bu

ob'ektlar asosiy vositalarga tegishli bo'lganligi sababli, ularga 16-IAS qoidalari qo'llanilishi kerak.

40 - IASga muvofiq, tugallangandan keyin investitsiya mulki sifatida tan olinishi kerak bo'lgan tugallanmagan qurilish ushbu standart qoidalarga muvofiq hisobga olinadi. Shunday qilib, bunday tugallanmagan qurilish ob'ektlarini adolatli qiymat bo'yicha hisobga olishda adolatli qiymatdagi o'zgarishlardan olingan daromadlar va xarajatlar kapitalga emas, balki joriy foyda va zararga kiritilishi kerak.

BHXSda shakldan ko'ra mazmun ustunligi tamoyili katta ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra xo'jalik operatsiyalari faqat huquqiy shakliga emas, balki ularning mohiyatiga va iqtisodiy haqiqatiga muvofiq ravishda taqdim etilishi kerak. Natijada, tashkilot ob'ektni ishlatishni boshlagan vaziyat, garchi u milliy buxgalteriy balansida hali ham qurilishning bir qismi bo'lsa ham, odatiy holdir.

IFRS bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzishda nafaqat ob'ektni qurish uchun xarajatlar miqdori, balki undan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo'lgan kelajakdagi iqtisodiy foydaning taxminiy miqdori ham hisobga olinishi kerak.

Shunga ko'ra, agar biron bir tugallanmagan qurilish ob'ekti tugallanmaydi, deb oqilona ishonch bilan aytish mumkin bo'lsa, ular iqtisodiy foyda keltira olmaydi va hisobdan chiqarilishi kerak.

Kapital qo'yilmalarni aks ettiruvchi 0800-sonli schyoti ham tugallanmagan qurilish ta'rifiga muvofiqligini tahlil qilishni talab qiladi.

IFRSdagi tegishli toifa faqat qurilishi uzoq vaqt talab qiladigan ob'ektlarni aks ettirishni nazarda tutadi. Agar ko'rsatilgan schyotda kompyuter uskunalari, ofis mebellari va boshqalar kabi ob'ektlar aks ettirilgan bo'lsa, u holda transformatsiya paytida ularni tovar-moddiy zaxira sifatida tasniflash yoki ishga tushirish va amortizatsiya qilish uchun tuzatish kiritish kerak.

Foydalanishdagi asosiy fondlar tarkibidan tashkilotga iqtisodiy foyda keltirmaydigan asosiy bo'lmagan aktivlarni chiqarib tashlash kerak. Bularga ijtimoiy ob'ektlar (bolalar bog'chalari, madaniyat markazlari va boshqalar) kiradi. Ushbu asosiy vositalar, agar ular hisobot davrida sotib olingan bo'lsa, davr xarajatlari (ijtimoiy xarajatlar sifatida), agar ular oldingi davrlarda sotib olingan bo'lsa, taqsimlanmagan foyda hisobidan hisobdan chiqariladi.

Analitik hisob ma'lumotlarini o'rganish, shuningdek, tashkilotning asosiy vositalarining to'liq ob'ekt tarkibini aniqlash va ularni tahliliy guruhlar o'rtasida taqsimlash imkonini beradi, masalan:

- ko'chmas mulk va yer uchastkalari;
- uskunalar;
- avtotransport vositalari;
- tugallanmagan qurilish;
- mebel va ofis ichki buyumlari;
- boshqa ofis jihozlari.

Ushbu taqsimot, xususan, foydali xizmat muddatini aniqlash, qayta baholash va amortizatsiyani hisoblashda qo'llanilishi mumkin.

Shunday qilib, IFRS qoidalariga muvofiq shakllantirilgan asosiy vositalarning ob'ekt tarkibi milliy standartlar talablariga muvofiq tashkilot tomonidan tuzilgan ro'yxatdan sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

1-misol. Moliyaviy yil oxiridagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tahlil qilish tashkilotning quyidagi aktivlarga ega ekanligini ko'rsatdi (1-jadval):

1-jadval

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivlari

Buxgalteriya hisobi ob'ekti (aktivi)	Axborot manbai	Narxi (ming p.b.da)	Haqiqiy holati
Kompyuter uskunalari	0800 "Kapital qo'yilmalar hisobi" schyoti.	150,0	Foydalanishga yaroqli holatga keltirish uchun qo'shimcha xarajatlar talab etilmaydi
Ofis mebellari	0800 "Kapital qo'yilmalar hisobi" schyoti.	130,0	Foydalanishga yaroqli holatga keltirish uchun qo'shimcha xarajatlar talab etilmaydi
Tugallangan qurilish loyihasi (ofis binosi)	0800 "Kapital qo'yilmalar hisobi" schyoti.	145 000,0	Foydalanishga tayyor, lekin qabul qilish komissiyasining dalolatnomasi yo'q
Sotib olingan va foydalanishga topshirilgan madaniyat markazi	0100 "Asosiy vositalar hisobi" schyoti.	75000,0	Noishlab chiqarish maqsadlarida foydalanishga topshirilgan asosiy vositalar
Foydalanishga topshirilgan madaniyat markazi binosiga hisoblangan amortizatsiya	0200 "Asosiy vositalarning amortizatsiya hisobi" schyoti.	1500,0	Noishlab chiqarish maqsadlarida foydalanishga topshirilgan asosiy vositalar
Ishlab chiqarish uskunalari	1000 "Materiallar hisobi" schyoti.	1 000,0	Har bir uskunaning narxi BRV hajmining 50 barobaridan oshmaydi

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatiga ko'ra IFRS maqsadlari uchun, ofis mebellari uning tannarxidan qat'i nazar tovar-moddiy zahiralarga kiritiladi va ishlab chiqarish uskunalari, uning qiymatidan qat'i nazar, asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi (tashkilot ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi).

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari tegishli ravishda milliy standartlarga muvofiq tuzilgan hisobotlarda aks ettiriladi. Masalan, 0800-"Kapital qo'yilmalar hisobi" schyotida hisobga olingan aktivlar balansning "Boshqa uzoq muddatli aktivlar" qatorida aks ettiriladi. Joriy moliyaviy yil uchun asosiy vositalarni ishlatish paytida hisoblangan amortizatsiya: "Kompyuter uskunalari" ob'ekti uchun - qiymatning 5%, "ofis binosi" ob'ekti uchun - qiymatning 2%. Tashkilot ishlab chiqarish uskunasi 5 yil davomida, shu jumladan hisobot moliyaviy yilida foydalanishni rejalashtirmoqda.

Hisobotga kerakli tuzatishlarni ko'rib chiqaylik, buning sababi milliy va xalqaro standartlarda nazarda tutilgan aktivni asosiy vosita sifatida tan olish mezonlaridagi farqlardir. Korrektirofka jurnalida buxgalteriya balansining (BB) va

foyda va zarar to'g'risidagi hisobotning (FZH) tegishli moddalaridagi o'zgarishlar aks ettiriladi (2-jadval). Bunda, tegishli ko'rsatkich qiymatning o'sishi aktivda (debet), kamayishi esa - passivda (kredit) ko'rsatiladi.

Agar tuzatish kiritish natijasida buxgalteriy balansi va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga bir vaqtning o'zida ta'sir qilsa (masalan, BB - aktiv (debet), FZH - passiv (kredit)), u holda balanslash moddasi bo'lib "Taqsimlanmagan foyda" moddasi hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bir vaqtning o'zida balans va foyda va zararlar hisobiga kiritilgan barcha o'zgarishlar soliqlarni to'lashdan keyin hisoblangan foyda miqdoriga ta'sir qiladi.

2-jadval

Korrektirofka jurnali

Xo'jalik muomalalari	Aktiv (debet)	Passiv (kredit)	Narxi (ming p.b.da)
Kompyuter texnikasini asosiy fondlarga kiritish	BB-"Asosiy vositalar"	BB-"Boshqa uzoq muddatli aktivlar"	150,0
"Kompyuter texnikasi" ob'ekti uchun amortizatsiya hisoblab chiqilgan	FZH - "Ma'muriy xarajatlar"	BB-"Asosiy vositalar"	7,5
Ofis mebellarini tovar-moddiy zahiraga kiritish	BB -tovar-moddiy zahiralar	BB-"Boshqa uzoq muddatli aktivlar"	130,0
Ofis binosi asosiy fondlar tarkibiga kiritildi	BB-"Asosiy vositalar"	BB-"Boshqa uzoq muddatli aktivlar"	145000,0
" Ofis binosi " ob'ekti uchun amortizatsiya hisoblab chiqilgan.	FZH-«Ishlab chiqarish tannarxi»	BB-"Asosiy vositalar"	2900,0
“Madaniyat uyi” obyektining asosiy vositalar ro'yxatidan chiqarishi	FZH-«Boshqa xarajatlar»	BB-"Asosiy vositalar"	75000,0
“Madaniyat uyi” obyektini uchun hisoblangan amortizatsiya korrektirovka qilindi	BB-"Asosiy vositalar"	FZH-«Boshqa xarajatlar»	1500,0
Ishlab chiqarish uskunalari asosiy fondlar tarkibiga kiritildi	BB-"Asosiy vositalar"	FZH-«Ishlab chiqarish tannarxi»	1000,0
Ishlab chiqarish uskunasi uchun amortizatsiya hisoblangan	FZH-«Ishlab chiqarish tannarxi»	BB-"Asosiy vositalar"	200

Asosiy vositalarning dastlabki qiymatini (birinchi tannarxini) shakllantirish sarflangan xarajatlar tarkibini aniqlash va ularni baholash bilan bog'liq.

Asosiy vositalar tannarxiga kiritilgan xarajatlar tarkibini aniqlash uchun ikkita asosiy mezon qo'llaniladi:

- xarajatlarning aktivni olish bilan bevosita bog'liqligi;
- aktivni olish uchun xarajatlarni qilish zarurati.

Ushbu mezonlar sifat mezonlari bo'lib, ularni qo'llash sub'ektivdir va professional mulohazaga asoslanadi.

16-IAS ning 16-bandiga muvofiq, asosiy vositalar ob'ektining dastlabki qiymati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– sotib olish bahosi, shu jumladan xarid bilan bog‘liq import bojlari va qaytarilmaydigan soliqlar, savdo chegirmalari va chegirmalar chegirib tashlangan;
 - aktivni kerakli joyga etkazib berish va uni tashkilot rahbariyatining niyatlariga muvofiq ishlashini ta'minlaydigan holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan har qanday xarajatlar.

Asosiy vositalar yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarni, xususan, to‘lov shartlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Agar aktivni sotib olish odatdagi shartlardan tashqari to‘lovlarni kechiktirishga imkon bersa, aktiv diskontlangan (kelajakdagi to‘lovlarning joriy qiymati) qiymati bo‘yicha hisobga olinishi kerak. Bu kelajakdagi moliyaviy oqimlarning joriy qiymati ularning nominal qiymatidan sezilarli darajada farq qilishi mumkinligi bilan bog‘liq. Diskont stavkasini aniqlash uchun odatda xaridor qarz mablag‘larini jalb qilishi mumkin bo‘lgan bozor stavkalaridan foydalaniladi.

Milliy buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishda sotib olish narxi tomonlar tomonidan kelishilgan shartnomada ko‘rsatilgan qiymat hisoblanadi. Shunday qilib, korrektirovka yozuvlari aktivning dastlabki qiymatini shakllantirishning belgilangan xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2-misol. Tashkilot hisobot yili boshida uskunalar sotib oldi. Shartnoma shartlariga ko‘ra, kechiktirilgan to‘lov ikki kalendar yilni tashkil etadi, shundan so‘ng tashkilot uskunani yetkazib beruvchiga 3000 ming p.b. o‘tkazishi shart. Xuddi shunday muddatga olingan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi yiliga 15% ni tashkil qiladi. Hisobot yili uchun hisoblangan amortizatsiya miqdori 600 ming p.b.ni tashkil etdi. (foydalanish muddati - 60 kalendar oy).

Uskunaning chegirmali narxi 2,268 ming p.b.ni tashkil qiladi. $(3000 / (1 + 0,15) \times 2)$.

Amortizatsiya hisoblangan $2268 : 5 = 454$ ming p.b. bu 146 ming p.b. buxgalteriya hisobiga qaraganda kamroq (600 - 454).

Shartnomada nazarda tutilgan qiymat va asosiy vositaning diskontlangan qiymati o‘rtasidagi farq sotuvchi tomonidan taqdim etilgan kechiktirilgan to‘lov uchun foizlar miqdori - 732 ming p.b. (3000 – 2268).

3-jadval

Korrektirovka jurnali

Xo‘jalik muomalalari	Aktiv (debet)	Passiv (kredit)	Narxi (ming p.b.da)
Uskunaning narxi chegirma miqdoriga kamaytirildi	BB-"Kreditorlik qarzi"	BB-"Asosiy vositalar"	732,0
Sotib olingan asbob-uskunalar bo‘yicha amortizatsiya summasi korrektirovka qilindi	BB-"Asosiy vositalar"	FZH-«Ishlab chiqarish tannarxi»	146,0
Foiz xarajatlari tan olindi	FZH-«Foiz xarajatlari»	BB-"Kreditorlik qarzi"	340,0

Hisobot davri oxirida foizlar bo‘yicha xarajatlar tan olinishi kerak. Bunda:

Debet "Foizlar xarajatlari" - 340 ming p.b. $(2268 \times 0,15)$;

Kredit "Kreditorlik qarzi" - 340 ming p.b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son, 2020 yil 24 fevral
2. IFRS 2 (IAS 5) Sotish uchun saqlanadigan uzoq muddatli aktivlar va to'xtatilgan faoliyat. . [https:// https://finotchet.ru/articles/84/](https://finotchet.ru/articles/84/)
3. BHMS 5 “Asosiy vositalar”. https://nrm.uz/contentf?doc=5543_5-son_bhms_asosiy_vositalar&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana
4. IAS 16 "ASOSIY VARSATLAR". <http://finotchet.ru/articles/138/>
5. Сатывалдыева Д.А. Бухгалтерский учет. О'quv qo'llanma -Т.: “IQTISODIYOT”, 2023. -248 b.
6. Зубарева Я.И. Сравнительная характеристика учета основных средств в соответствии с ПБУ 6/01 и МСФО (IAS) 16. ЖУРНАЛ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ Том 2 № 10 , 2016

Суюнов Жалолиддин Ўктам ўғли
ТДИУ “Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси
катта ўқитувчиси, i.f.f.d, (PhD).

МАҲСУЛОТЛАРИНИ БОЗОР ТАЛАБИГА МОСЛИГИНИ ТАМИНЛАШ ВА РАҚОБАТНИ ОШИРИШ

Аннотация. Тадбиркорлик мамлакатимиз иқтисодиётининг энг йирик соҳаси бўлиб, ушбу соҳанинг барқарор ва замон талаблари даражасида ривожланиши аҳолининг бандлиги ва турмуш фаровонлиги, бозорларнинг сифатли товар ва хизматлар билан тўйинганлиги, нархларнинг адолатли даражаларининг шаклланиши, мамлакат иқтисодиётининг ривожланиш суръатларини белгилаб беради. Тадбиркорлик корхоналарининг самарали фаолиятини белгилайдиган бир қатор омиллар мавжуд бўлиб, ушбу омиллар таркибида рақобат ва рақобалашишнинг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Рақобат фаолиятининг самарали ташкил этилиши корхонани рақобатда устунлигини таъминлайди, бозорда мувафақиятли фаолият кўрсатишига шароит яратади. Шу боисдан бугунги кунда рақобатни корхоналар фаолиятида номоён бўлиши, унинг ўзига хос хусусиятлари каби муаммоларни ўрганиш, самарали ташкил этиш бўйича маълум бир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш муҳим вазифалардан бўлиб ҳисобланади. Ушбу мақолада корхоналар фаолиятида рақобатнинг номоён бўлиши ва унинг хусусиятларининг баъзи жиҳатларини ёритишга ҳаракат қилинди.

Калит сўзлар: корхона, рақобат, рақобатлашиш, бозор, бозор сегменти, паст харажатлар, рақобат стратегияси, рақобат устунлиги, рақобатлашиш усуллари.

Кириш: Бугунги кунда тадбиркорлик соҳасини ривожлантиришга давлатимиз томонидан катта эътибор берилмоқда. Соҳани мамлакат ЯИМдаги улушини 55% ни ташкил этаётганлиги соҳани иқтисодий салоҳиятини ва уни ривожлантиришнинг муҳимлигини кўрсатади. Шундай шароитда корхоналар фаолиятларини ўрганиш ва уларни ривожланишида тўсиқ бўлаётган салбий ҳолатларни аниқлаш, уларни бартараф этиш бўйича чоралар ва тавсиялар

ишлаб чиқиш илмий тадқиқотлар олдига кўйилган муҳим вазифадир. Корхоналар одатда рақобатли бозорларда фаолият олиб борганлиги сабабли, улар бозорларда доим кучли рақобат шароитида фаолият олиб боради.

Кучли рақобатга бардош берган тадбиркорлик соҳаси вакиллари тармоқда ўз фаолиятини давом эттириш ҳуқуқига эга бўлади, табиийки бир қатор фирмалар бундай кучли рақобатга бардош бера олмайди ва ўз фаолиятини тўхтатишга мажбур бўлади. Ўзбекистон Республикаси статистика агентлигининг маълумотларига кўра Ўзбекистон Республикасида 2024 йил 1 июль ҳолатига кўра фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектлари сони 390898 тани ташкил этган бўлса, худди шу йилда фаолиятини тўхтатган кичик бизнес субъектлари сони 43049 тадан кўпроқни ташкил этган. Ушбу ҳолатдан кўриниб турибдики ташкил этилаётган тадбиркорлик субъектларининг сезиларли қисми ўз фаолиятини тўхтатаётганлиги корхоналарда иқтисодий фаолиятини ташкил этишда бир қатор хал этилиши лозим бўлган муаммолар мавжудлигини кўрсатади.

Адабиётлар шарҳи: Корхоналарни иқтисодиётидаги тутган ўрни ва ахамиятини ҳисобга олганда соҳани ривожлантиришнинг мамлакат иқтисодиёти учун аҳмиятини англаш қийин эмас. Корхоналар рақобатли бозорларда кучли рақобат шароитида фаолият юритишади ва уларнинг иқтисодий фаолияти, унинг самарадорлиги ушбу корхоналарда рақобатлашиш салоҳиятига бевосита боғлиқ.

Шунинг сабабли ушбу долзарб масала доим олимларнинг диққат эътиборида бўлиб келган. Рақобат ва унинг номоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари доирасида дунёнинг етакчи олимлари томонидан қатор тадқиқотлар олиб борилган ҳамда ушбу олимлар томонидан ишлаб чиқарилган илмий хулосалар корхоналарда рақобатни ташкил этишда қимматли манба бўлиб ҳисобланади.

“Рақобат компаниянинг муваффақиятли ёки муваффақиятсиз бўлишини белгилайдиган асосий омилдир” (Портер, 2018).

Саноатдаги рақобат тармоқнинг иқтисодий таркибий тузилишининг асосларидан келиб чиқади ва мавжуд рақобатчиларнинг хатти-ҳаракатларидан анча узоққа боради (Портер, 2016).

Истеъмолчига нима керак бўлса шу нарсани ишлаб чиқаринг ва унга ўзингиз ишлаб чиқара олган нарсангизни сотишга уринманг (Фатхутдинов, 1997).

Тадқиқот методологияси: Тадбиркорлик корхоналари фаолиятида рақобатдан самарали фойдаланишда қўлланилган усуллар: индукция ва дедукция, кузатиш, таққослаш, омилли таҳлил, синтез ва бошқа.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси: Глобаллашувнинг ҳозирги шароитида мамлакатларнинг ривожланиши ва ижтимоий иқтисодий муаммоларни хал этиш масалалари кўп жиҳатдан маҳсулотларини бозор талабига мослик даражаларига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Ушбу соҳа ўз хусусиятига кўра иқтисодиётимиз ўзгаришларига жуда таъсирчандир.

Мамлакатимиз ўзининг ижтимоий ва иқтисодий ривожланишининг янги босқичларига кириб келаётган бугунги даврда маҳсулотларини бозор талабига

мослигини тaминлаш ва рақобатни ошириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Республика мустақиллигининг дастлабки йилларидан фарқли ўлароқ ҳозирда тадбиркорлик субъектлари иқтисодиётнинг барча тармоқларида фаоллик кўрсатмоқда.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шундан далолат берадики маҳсулотларини бозор талабига мослигини тaминлаш ва рақобатни ошириш иқтисодиётнинг барча соҳаларида кенг ривожланиши аҳолини иш билан таъминлаб уни турмуш даражасини юқори бўлишига шароит яратган ва шу ўринда мамлакатда иқтисодий муаммоларни бартараф этишга ёрдам берганлигига гувоҳ бўламиз. Шу жумладан мамлакатимизда ҳам ушбу соҳасини ривожлантиришга, уни иқтисодиётдаги ўрни ва ролини янада оширишга катта этибор берилмоқда ҳамда соҳада кенг қамровли ислохотлар олиб борилмоқда.

Маҳсулотларини бозор талабига мослигини тaминлаш ва рақобатни ошириш соҳаси ўзига тегишли бўлган бир қатор афзалликларга эга. Жумладан, ушбу соҳа корхоналарини катта харажатларсиз ташкил қилиш мумкин. Шу билан биргаликда улар бозор талабларига тез мослашишади, маҳсулот ишлаб чиқариш стратегиясини бозордаги вазиятга қараб тез ўзгартиради, иқтисодий муаммоларни нисбатан тез ечиш салоҳиятига эга ҳамда ички ва ташқи бозорларга зарур маҳсулотларни етказиб бериш имконияти ошади.

Соҳани ривожлантириш бўйича олиб борилаётган чора тадбирларни етарли деб бўлмайди. Ушбу соҳани ривожланган мамлакатларда ривожлантириш учун қўлланилган энг янги ва долзарб чораларни ўрганиб, уларни иқтисодиётимизнинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда тадбиқ қилишни янада кучайтириш вазифаси долзарб бўлиб қолмоқда.

Маҳсулотларини бозор талабига мослаштирилиши ривожланиб бориши меҳнатга лаёқатли кишиларни иш билан таъминлаш имкониятларини кенгайтиради, хусусан балоғатга етган, меҳнат қилишга иштиёқи бўлган ёшларимиз учун янги иш ўринлари яратилишига шароит яратади. Айниқса, фойдаланилмаётган ички ресурс ва имкониятлардан фойдаланиш имкониятлари пайдо бўлади. Маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнлари тезлашади, ресурслардан самарасиз фойдаланиш, талон-тарож ва нобудгарчиликларга барҳам берилади ҳамда бозор талаблари асосида маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш йўлга қўйилади.

Мамлакатимиз томонидан соҳада кенг амалга оширилаётган ўзгаришларга қарамасдан, бугунги кунда ҳам тадбиркорликни қўллаб қувватлаш ва уларга шароит яратиш масаласида бир қатор камчиликлар сақланиб қолмоқда. Тадбиркорликни ривожлантириш ва янги иш ўринлари яратиш ҳали талаб даражасида эмас. Соҳада билимнинг камлиги, бизнесни юритишдаги камчиликлар, ҳуқуқий саводхонликнинг етишмаслиги, таваккалчилик даражасининг рақобат шароитида юқорилиги, бозорда бизнесни самарали юрита олмаслик, ҳамкорлар топишда тажрибасизлик ва бошқалар. Бундай муаммоларнинг мавжудлиги соҳани ривожлантиришга кенг ёндашувни заруриятини юзага келтиради.

Ўзбекистон Республикасида хусусий мулк ва мулкдорлар ҳуқуқлари кафолатларини ҳимоя қилишни кучайтириш, тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ишларини ташкил этиш тизимини тубдан такомиллаштириш, шунингдек, тадбиркорлик субъектларининг молиявий ресурсларга ва ишлаб чиқариш инфратузилмасига киришини ҳамда тадбиркорлик субъектларининг молиявий ресурслар ва ишлаб чиқариш инфратузилмасидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришга қаратилган фармон ва қарорлар ҳукуматимиз томонидан қабул қилиниб, уларнинг ижроси таъминланиб борилмоқда.

Глобаллашув шароитида корхоналар тобора ривожланиб бораётган бизнес муҳитида ишламоқда. Бунда бир томондан, доимий равишда янги имкониятлар пайдо бўлаётган бўлса, иккинчи томондан эса доимий равишда ўсиб бораётган талаблар бу корхоналарга янгича талабларни қўймоқда. Бундай вазият макроиктисодий ва микроиктисодий даражаларда ҳам номоён бўлмоқда ва бевосита барча соҳаларда ўз таъсирини кўрсатмоқда. Афсуски, бундай ҳолат қўллаб ташкилотларни самарали бошқариш ва ривожлантириш жараёнларини сезиларли даражада мураккаблаштиради.

Маҳсулотларини бозор талабига мослигини таъминлаш ва рақобатни оширишни ривожлантириш керак экан аввало унинг афзалликлари ва камчиликларини очиқ бериш муҳим аҳамият касб этади.

Тадбиркорликни афзалликларидан бири бу миждозлар билан яқиндан алоқаси бўлиб ҳисобланади. Бу тадбиркорларга миждозларнинг истаклари ва фикрларини тезда кузатиб бориш, уларга ўз вақтида жавоб бериш ва уларга мослашиш имконини беради. Бунинг натижаси, харидорлар ушбу маҳсулотни бошқа маҳсулотлар билан таққослаганда ушбу компанияни маҳсулотини танлашларига имконият яратилади.

Хозирги кунда бозор барча турдаги маҳсулотлар ва хизматлар билан тўлдирилган. Бундай вазиятда корхоналар ўз фаолиятларининг турларини ва кўламларини оширишга эътибор қаратмоқдалар, шу ўринда инновациялар орқали ривожланишга эътибор қаратишлари керак. Шундагина бу инновациялар катта сегментга ёки соҳага айланишига олиб келади.

Рақобат муҳитида тадбиркорлик соҳаси доимий равишда ўзгариб туриши ва ўзгарувчан бозор шароитларига мослашиши талаб этилади. Бозордаги ўрнини топиш учун уларга мутлақо янги таклифлар билан ҳаракат қилиши лозим.

Тадбиркорлик барқарорлик ва иқтисодий ривожланиш асосидир. Шунинг учун кўп мамлакатларда тадбиркорлик соҳаси давлат томонидан қўллаб-қувватланади. Бу турли хил имтиёзлар, субсидиялар, грантлар шаклида намоён бўлади.

Иқтисодиётни ривожлантиришда тадбиркорлик бозор иқтисодиётининг муҳим атрибутлиги ва иқтисодий шароитдаги ўзгаришларга осонлик билан мослашувчанлиги туфайли иқтисодиёт барқарорлигига ёрдам бериб, иш ўринлари ташкил этиш ва бандликни оширишда бебаҳо рол ўйнайди.

Албатта, тадбиркорлик соҳасининг ўзига хос афзалликлари билан бирга бир қатор камчиликлари ҳам мавжуд ва улар хавфнинг юқори даражаси, йирик

компанияларга қарамлик ва етакчилик қобилиятининг пастлиги, ҳамда маблағ йиғишда қийинчиликлар ва бошқаларда намоён бўлади. Айниқса маблағларнинг етишмаслиги корхоналарда катта муаммолардан бири бўлиб хисобланади. Ушбу муаммонинг сабаблари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин.

инвестицияларнинг оқими - 90% ҳолатларда, инвесторлар бозорда етакчи мавқега эга бўлган йирик компанияларни танлаши;

юқори ҳажмдаги кредитларнинг мавжуд эмаслиги (бўлса ҳам, юқори фоизда) - аксарият корхоналар кўпинча кредитлар учун гаров таъминотини тامينлай олмасликлари ва банкларнинг уларга кредит беришга бўлган қизиқишининг йўқлиши.

ускуна лизингининг юқори нархлар билан тавсия этилиши тадбиркорлик соҳаси учун маблағ тўплаш имкониятининг бекор бўлиши.

Тадбиркорлик соҳаси иқтисодий аҳамияти илмий ва технологик инқилоб ривожланишининг чуқурлашиши ҳисобига сезиларли даражада кучаймоқда. Ҳозирги кунда тадбиркорлик фаолиятининг ўсиши кўп жиҳатдан иқтисодиёт ва ижтимоий ҳаётни ахборотлаштириш, энг сўнгги технологиялар соҳасидаги ютуқлар билан боғлиқ бўлиб, бу соҳадаги ишларнинг катта қисмини автоматлаштиришга имкон берди. Натижада йирик бошқарув кадрларини сақлашга бўлган эҳтиёж пасайди, қолаверса корхоналарнинг самарадорлиги ва мос равишда кичик корхоналарнинг жозибадорлиги ошади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, тадбиркорларнинг корхоналари сони ортиши ўз навбатида, корхоналар ўртасида рақобат курашини кучайишига олиб келди. Рақобат ўз навбатида рентабеллик самарадорликни ошишига олиб келади. Самарадорликни ошиши унумдорликни ошириш, ишчи кучи таннархини оптималлаштириш, ишлатилаётган технология даражаси кувватдан фойдаланишни яхшилаш ва ишлаб чиқариш тизимининг мослашувчанлиги ошириш бошқа муҳим омилларда номоён бўлади.

Ҳар қандай корхонанинг асосий мақсади минимал харажат қилиб максимал фойда олишдир. Энг яхши усул бу танловда ғолиб бўлишни таъминлашдир. Бу ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ва умуман корхонанинг рақобатбардошлигини ошириш йўлидаги ўз вақтида қилинаётган чоралар натижасидир. Корхонанинг рақобатбардошлилиги бу ички ва ташқи омилларга боғлиқ бўлиб динамик хисобланади.

Турли мулкчилик муносабатларини қарор топиши ва ривожланиши шароитида ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатишнинг турли тармоқлари ва соҳаларида банд бўлган хўжалик субъектлари, мамлакатда яратилган имконият ҳамда шарт-шароитлардан келиб чиқиб, ўзларининг ривожланиш стратегиясига эга бўлади. Ушбу жараёнда тадбиркорлар корхоналари ўз фаолиятларини у ёки бу даражадаги бозор талабига осон мослаштиришга ҳаракат қилади.

Ҳар бир корхонанинг муваффақиятли ривожланиши, у томонидан аҳоли ва бошқа истеъмолчилар учун зарур бўлган маҳсулотларни энг мақбул нархда ишлаб чиқариш, харажатлар билан фойда ўртасидаги нисбатларнинг оптимал равишда эканлиги ва корхонани келажакда янада фаол амал қилиш

шартларини белгилаб беради. Чунки аҳоли томонидан билдирилган умумий талаблар рағбатлантирувчи омил ҳисобланади. Бунда умумий талабнинг ўсиши деярли барча товарлар айниқса, истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни ошириш учун кучли рағбатлантирувчи омилларни яратади. Мана шундай рағбатлантирувчи омиллар натижаси рақобат муносабатларини юзага келишига сабаб бўлади ва бу жараён субъектлар ўртасида харидор бозори учун соф иқтисодий кураш турларини содир бўлишига олиб келади.

Бозор иқтисодиётида товарнинг тижорат ютуғини асосий омили бўлиб, товарнинг истеъмол қиймати сифати ва унинг рақобатбардошлиги ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида корхонанинг иқтисодий барқарорлигига олиб келиши мумкин. Шунинг учун ҳам тадбиркорларнинг корхоналари рақобатбардошлиги ва иқтисодий барқарорлик категориялари жуда мураккаб ва ўзаро бир-бири боғланган бўлиб, рақобатбардошлик фақат иқтисодий барқарорлик мавжуд бўлгандагина содир бўлади. Иқтисодий барқарорликка жуда ҳам кўплаб ички ва ташқи омиллар таъсир кўрсатади ва улар тадбиркорлик корхоналарининг ривожланиш истиқболларида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, рақобат муҳитида ғолиб чиқиш имкониятини яратади.

Рақобат бозор иқтисодиётини ҳаракатлантирувчи кучидир. Рақобатда тадбиркорлар ғолиб чиқиш учун ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш, товар сифатини ошириш, товар сотилишини харидор учун қулайлаштиришга интиладилар. Акс ҳолда товарларни сотиб, катта фойда кўриб бўлмайди. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, монополия рақобатга зид, чунки у товар ишлаб чиқарувчига яқка ҳукмронликни таъминлаб, ўзаро беллашув учун шароит қолдирмайди. Шунинг учун, мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда монополияни чеклашга қаратилган чора тадбирларни кўпайтириш лозим.

Иқтисодий категория сифатида «рақобат» нисбатан кенг тарқалган фундаментал атама ҳисобланади. Рақобат серқирра тушунча. Рақобат ҳам хўжалик юритиш усули, ҳам бир капиталнинг бошқаси билан беллашувини таъминлай оладиган усул сифатида юзага чиқади. Бундан ташқари, рақобат ижтимоий ишлаб чиқаришнинг тартибсиз бошқарувчиси сифатида ҳам намоён бўлади.

Рақобатни маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш жараёнида, шунингдек капитал киритиш соҳасида хўжалик юритувчи субъектларнинг ўзаро таъсирини таъминловчи бозор механизмининг элементи сифатида кўриб чиқиш мумкин. Рақобатнинг амал қилиш шакли ижтимоий ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг меъёр ва қоидалари тизими ҳисобланиб, унинг асосида давлат ислохатлари, давлат ва хусусий фирмалардан иборат миллий хўжалик амал қилишининг бозор усуллари ётади. Шундан келиб чиққан ҳолда, рақобатнинг моҳияти бозор иқтисодиётининг талабларига жавоб бериши тадбиркорликни ривожлантириш воситаси деб қараш мақсадга мувофиқдир.

Маҳсулот ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги рақобат маҳсулотларни қулай шароитда ишлаб чиқариш ва яхши фойда келтирадиган нархда сотиш, умуман иқтисодиётда ўз мавқеини мустаҳкамлаш учун курашдан иборат бўлиб ҳисобланади. Шу билан бирга улар керакли ишлаб чиқариш воситалари,

хом ашё ва материалларни сотиб олиши, ишчи кучини ёллаш учун зарур маблағларни сарфлайдилар. Маҳсулот ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги рақобат охир-оқибатда, бозорда истеъмолчиларни ўзига жалб қилиш билан тугалланади.

Тадбиркорлик субъектлари ўртасида маҳсулот рақобати товарларнинг ижтимоий қийматини, бошқача айтганда, бозор қийматини аниқлайди ва белгилайди. Бу қиймат, одатда, ўртача шароитда ишлаб чиқарилган ва муайян тармоқ товарларининг анчагина қисмини ташкил этадиган маҳсулотлар қийматига мос келади. Бундай рақобат натижасида техника даражаси ва меҳнат унумдорлиги юқори бўлган субъектлар қўшимча фойда оладилар ва аксинча, техника жиҳатдан ночор корхоналар эса, ўзларида ишлаб чиқарилган товар қийматининг бир қисмини йўқотадилар ва зарар кўрадилар.

Хулоса ва таклифлар: Корхоналар ўзларининг инновацион характери билан иқтисодитни ривожланиб боришини таъминлайди.

Иш билан бандлик ошиб, қамбағаллик камаяди.

Бозорлар товарлар билан тўлдирилиб нарх меъёрлари ва уларнинг адолатли даражасини таъминлашга ёрдам беради.

Ишлаб чиқаришни ташкил топишдаги тезкорлик иқтисодиётни ривожланишини тезлашишига ёрдам беради.

Ресурсларни тезкорлик билан тўпланиши технологияларни ривожланишига ёрдам беради.

Корхоналарнинг маълум бир камчиликлари ҳам бўлиб, булар қуйидагилардан иборат:

- хажмини кичиклиги
- капитални етишмаслиги
- молиявий ресурслар топишда қийинчиликлар
- бозор шароитларини ўзгаришларига юқори сезувчанлиги
- фаолиятининг беқарорлиги, ташқи муҳитга таъсир этишда ночорлиги
- аҳоли сони кам жойларда самарасизлик, раҳбарнинг қарорларига фаолиятнинг боғлиқлиги
- молиявий хамкорлар топишда қийинчиликлар, узоқ муддатли барқарор хамкорлик шартномаларининг тузишдаги қийинчиликлар
- рақобатга чидамсизлик, бозорда кенг фаолият олиб бориш имкониятининг йўқлиги.

Корхоналарнинг иқтисодий имкониятлари уларни фаолиятнинг барча йўналишлари бўйича рақобат олиб боришга имкон бермайди. Улар бозордаги устун жиҳатларини аниқлаб шу жиҳатлари кучайтириш орқали рақобат курашини олиб боришлари лозим. Корхоналар бозорнинг маълум бир сегментида рақобат курашини олиб бориш уларга устунликни таъминлайди. Уларнинг танлаган рақобат стратегиялари, бозорларнинг маълум бир сегментлари устунлигидан самарали фойдаланиш асосида, рақобатда устунликка эга бўлишни таъминлашга қаратилган бўлиши керак. Корхоналар хужумкор ёки химоя стратегиясидан фойдаланишидан қатъий назар улар рақобатда пасив бўла олмайдилар, рақобатдан қочиш уларнинг

рақобатбардошлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шунинг учун бундай корхоналар бозор ўзгаришларига ўз фаолиятларини мослаштириб бориш орқали ўзларининг рақобатлашиш салохиятини ривожлантиришлари муҳим ҳисобланади.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Портер М. (2016) Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / Майкл Портер ; Пер. с англ. -6-е изд. –М.: Альпина Паблишер,. -453 с.

2. Портер М. (2018) Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / Майкл Портер; Пер. с англ. - 6-е изд. –М.: Альпина Паблишер, - 716 с.

3. Турсунов Р.Т. (2017) Бизнес стратегияси [Матн] дарслик; Р.Т. Турсунов ва бошқ.ж Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. –Т.: “Баркамол Файз медиа” нашриёти, -380 б.

4. Фатхутдинов Р.А. (1997) Система менеджмента: Учеб.-практ. пособие. - М.: ЗАО "Бизнес-школа "Интел-Синтез", - 352 с.

**Тайгашинова К.Т., д.э.н., профессор,
Ержанов А.К., д.э.н., профессор,
Раимов Д.С., магистр экономики**

Алматинский гуманитарно-экономический университет

СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НЕКОТОРЫХ ВОПРОСОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Аннотация. В статье излагаются актуальные проблемы по охране окружающей среды, обеспечение экологической безопасности, формирование учетно-информационной базы, как важный инструмент при принятия экологических управленческих решений. Аргументирована необходимость разработки экологической политики на уровне государства с учетом нарастающих темпов роста загрязняющих факторов окружающей среды, вызывающие значительный урон для стабильного развития экономики, здоровью населения. Авторы утверждают о целесообразности составления и представления отчета по природоохранным мероприятиям, не только по природоохранной деятельности, но и отчетность по экологическим мероприятиям, отчетность по недропользованию, водопользованию, лесным угодиям, землепользованию и т.п.

Ключевые слова: Охрана окружающей среды, экология, полезные ископаемые, природная среда, экологическая политика, природопользование, экологическая безопасность, экологический учет, экологическое управление.

Актуальность исследования состояния «экологии», «окружающей среды» как никогда бесспорна и своевременна. «Экология» - наука о взаимоотношениях живых организмов с окружающей средой [1, с.372]. Окружающая среда – внешняя среда, в которой функционирует организация,

включая воздух, воду, землю, природные ресурсы, флору, фауну, человека и их взаимодействие [2].

Как показывает анализ мировой практики в области регулирования эколого-экономических отношений, одним из подходов позволяющих достичь согласования экологических и экономических интересов и потребностей общества, является экологическая информация, в обеспечении «экологической безопасности» страны.

Недостаточная проработанность вопросов охраны окружающей среды и экологическое развитие, формирование экологической информации, которая так важна для экологического управления, в обеспечении «устойчивого развития» страны обусловили выбор проблемы исследования.

Президент Республики Казахстан Токаев К.К. в своем Послании народу Казахстана 2022 года указал на необходимость разработки новой стратегии развития «Экологии и защиты биоразнообразия». В то же время «Охрана окружающей среды и экологическое развитие выходят на первый план казахстанской повестки дня. Этим вопросом занимается весь цивилизованный мир, и нам негоже оставаться в стороне от магистральной тенденции» [3].

Всем известно, что сегодня освоение и добыча полезных ископаемых негативно влияет на окружающую среду, а это наше с вами здоровье. Экологическая проблема – любые явления, связанные с заметными воздействиями человека на природу, обратными влияниями природы на человека, его хозяйственную деятельность [4, с.373].

